



65

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

100


TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

A.N. SAMADOV, S.T. ISHMURODOV

REKLAMA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan
5340300 - Marketing ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT - 2007



Samadov A.N., Ishmurodov S.T. Reklama faoliyatini tashkil etish: O'quv qo'llanma.-T.: TDIU, 2007. - 181b.

Ushbu o'quv qo'llanmada "Reklama faoliyatini tashkil etish" fanining predmeti, metodi, vazifalari, bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, reklama vositalarining xususiyatlari va tasnifi keng yoritilgan Shuningdek, o'quv qo'llanmada reklama faoliyatini tashkil etish fanidan izohli atamalar lug'ati berilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma "Marketing" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir i. f.d., prof. Qosimova M.S.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. Komilova F.Q.

i.f.n., dots. Ergashxodjaeva Sh.J.

Самалов А. Н., Ишмуралов С. Т. Организация рекламной деятельности: Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, 2007. - 181стр.

В данном учебном пособии излагаются предмет, методы, задачи, социально-экономическая значимость рекламы в условиях рыночной экономики и особенности рекламных средств в организации рекламной деятельности. А также в данном учебном пособии приведен словарь рекламных терминов.

Учебное пособие предназначен для студентов вузов, обучающихся по специальностям "Маркетинг".

Ответственный редактор: д.э.н., проф. Касымова М.С.

Рецензенты: д.э.н., проф. Камилова Ф.К.,

к.э.н., доц. Эргашходжаева Ш.Ж.

Samadov A.N., Ishmuradov S. T. The organization of the advertisement activity: The manual. – T.: TSUE, 2007. - 181p.

In this manual there are given the object, methods, tasks, social and economic importance of the advertising under conditions of market economy and specifics of the advertisements tool in the organization of advertisement activity. Also in this manual there are given glossary of advertising terms.

The manual is advised for the students of the higher education establishments majoring in "Marketing".

Editor in chief: P.h. d., prof. Kasimova M.S.

Reviewers: P.h. d., prof. Kamilova F.K.

P.h. d., prof. Ergashkhudjaeva Sh.I.

© Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, 2007.

© Ташкентский государственный экономический университет, 2007.

© Tashkent state university of economy, 2007.

K I R I SII

Reklama faoliyatini tashkil etish fanining dolzarbligi. Mamlakatimizda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va globallashuv yo'lidan borayotgan jarayonda yangicha faoliyat olib borish va yangicha fikrlash uslublarini talab etmoqda. Bozor iqtisodiyoti hayotimizda tobora kengroq ko'lam olayotgan sharoitda marketing sohasida ta'lif olayotgan mutaxassislar ko'p qirrali bilimga ega, chuqur mulohaza va mushohada asosida faoliyat olib borishga qodir, o'z ishini puxta egallagan mutaxassis bo'lishi shart. Ayniqsa, reklama faoliyatini tashkil etish o'ta murakkab va nozik sohada band bo'lgan amaliyoshilarga juda yuqori talablar qo'yiladi. Negaki mavjud holatlardan maqbul darajada foydalanish, hamda mamlakatning iqtisodiy o'sishiga, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning reklama faoliyatini tashkil etishi orqali moliyaviy mablag'larini maksimallashtirishda hamda ularni mablag'lar bilan ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, iqtisodiy jihatdan turli xulosalar chiqarish ularning to'g'ri va asosli ekanligini isbotlab bera olishi kerak.

Bozor munosabatlarining yanada ravnaq topishida, erkin raqobat va aholi turmush farovonligini ta'minlashda reklama faoliyatini tashkil etish muhxim ahamiyat kasb etadi.

Reklama-bozorda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish uslublarini, tovarlarni ishlab chiqarish hamda sotish muammolarini kompleks, sistemali ychish uslublarini bozorda vujudga keladigan o'zgarishlarga tezda moslashish, iste'molchilarga tabaqali yondoshish, raqobatdosh yangi tovarlarni vujudga keltirish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etish, konyunkturani o'rganish va bashorat qilish hamda ta'sirchan reklamani rivojlantirish masalalarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandir. "Reklama faoliyatini tashkil etish" fani korxonalarни bozorda iqtisodiy maqsadlarga erishish quroli sisatida qarashga alohida e'tibor beradi.

Reklama faoliyatini tashkil etish fani raqobatni, iste'molchi xulq-atvorini tovarming sifatini, uning raqobatbardoshligini va bozomi chuqur o'rganadi.

Iqtisodiyot, biznes va tijorat sohasi bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassisliklar uchun reklama faoliyatini tashkil etish fani, bozor faoliyatini metodologik asoslarini o'rgatadigan asosiy fandir. Reklama eng avvalo, uni o'rganuvchilarni o'ziga bozor faoliyatini tizimi sifatida jalb etadi. U korxonalarni bozordagi harakati va holatini o'rgatadi. Reklama-bu faol assortiment siyosatini, narx, oldi-sotdi, reklama, iste'molchilarni o'rganish, tomonlar bilan munosabatlarga kirishish, tijorat tavakkalchiligini o'rganadigan fandir.

"Reklama faoliyatini tashkil etish" fani keng qirradagi oliy ma'lumotli iqtisodchilarni shakllantiradigan asosiy mutaxassislik fanlardan biri hisoblanadi. Reklama faoliyatini tashkil etishning bosh vazifasi talabalarga reklama faoliyatini tashkil etishni asosiy turlari, uslublarini hamda tamoyillarini o'rgatishdan iboratdir.

Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarining qiyosiy tahlili. Reklama faoliyatini tashkil etish sanidan Pankratov F.G., Bajenov U.K., V.G.Shaxurinlarning "Основы рекламы" darsligi Moskva shahrining «Dashkov и К°» nashriyoti tomonidan 2006 yilda chop etilgan bo'lib, unda reklama faoliyatini tashkil etish fanining predmeti, metodi va vazifalari, reklama faoliyatini tashkil etish fanining iqtisodiy mohiyati va mazmuni, reklamaning asosiy turlari, reklamada "publik reyleyshn", reklama faoliyatini tashkil etish, reklama faoliyatini rejalashtirish, reklama faoliyatini nazoratini mavzulari keng yoritib berilgan

Vasilyev G.A, V.A. Polyakovlarning «Основы рекламной деятельности» o'quv qo'llanmasi oliy ta'lim talabalari uchun Moskva shahrining ЮНИТИ-ДАНА nashriyoti tomonidan 2004 yilda chop etilgan bo'lib, unda quyidagi reklama va jamiyat, reklamaning asosiy turlari va uni targ'iboshilari, reklama: PR va brend, reklama faoliyatini tashkil etish, reklama kompaniyalarini

rejorashtirish, reklama faoliyatini nazoratini tashkil etish, reklama faoliyatini samaradorligini baholash mavzulari keng yoritib berishga harakat qilingan.

Mazkur o'quv qo'llanma "Reklama faoliyatini tashkil etish" deb nomlanib unda reklamaning hamma jabhalarini iloji boricha talabalarga tushunarli qilib yoritib berishga harakat qilingan.

Bundan tashqari Bagiyv G.L., Polyakov V.A., Kotler F., L.A.Danchenoklar tomonidan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilgan. Ularda reklama faoliyatini tashkil etish elementlarini to'liq jarayonlari, reklama turlari, reklama faoliyatini nazorat qilish, reklama orqali sotish, kommunikasiya siyosatlari keng yoritib berilgan.

Mamlakatimizda marketing va reklama sohasida Qosimova M.S., Xodiyev B.YU., Jalolov J., Soliyev A., Nosirov P., Abdullayeva SH., M.Yusupovlar tomonidan reklama faoliyatini tashkil etish faniga taalluqli ilmiy maqolalar chop etilgan.

I-bob. «REKLAMA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH» FANINING PREDMETI, METODI VA VAZIFALARI

1.1. Reklama faoliyatini tashkil etish fanining iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Reklama lotincha - «qichqiraman» so'zidan olingan bo'lib, tovarlarning xususiyatlari va har xil turdag'i xizmatlarni sotish, ularga iste'mol talablarini yuzaga keltirish maqsadida beriladigan ma'lumotdir¹.

Reklama faoliyatini tashkil etish fanining iqtisodiy mohiyati bo'lib marketing sohasida o'z bilimini takomillashtirib borayotgan talabalar uchun reklamaning mazmun mohiyatini ilmiy hamda amaliy jihatdan chuqur o'rghanishga mo'ljallangandir.

Reklamaning bozordagi sotuvchi va haridorlar hamda tovar va xizmatlarning keskin raqobashiligi bilan aloqasi quydag'i tushunchani shakllantiradi:

“Reklama (reklama ma'lumoti)-reklama beruvchi tomonidan tarqatilgan ma'lumotlarning (axborotning) har xil matnli, u foydalangan tahlil yoki boshqa vositalardan qat'iy nazar, shu jumladan nashr qilish yo'li bilan, efirga uzatish yo'li bilan ommaviy o'rghanish, ommaviy foydalanish yoki yetkazish, reproduksiya yo'li bilan va uchunchi shaxslarga nisbatan reklama beruvchi to'g'risida uning tovarlari (ish xizmatlari), xususiyati va harakteristikalari, ishlab chiqarish sharoitlari, oliy hamda ishlatish va boshqa holatlar to'g'risida, shu maqsadlarning reklama beruvchi uning tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan qiziqishini shakllantirishga yoki ushlab turishga xizmat qiluvchi, bozorda ularni raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

Turli iqtisodiy sharoitlarda reklama faoliyatining xususiyatlari ko'rsatilgan iqtisodiyot, mamlakat ichki bozorida talab va taklifning balanslashgan sharoitlarida rivojlangan reklama faoliyatini tashkil etish xosdir. Reklama

¹ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учебное Пособие для вузов. - М: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

talabga mos keluvchi tovarlarni sotilishini tezlashtirish uchun ishlataligani. Bozomi shakllanishida boshlangan yangi jarayon reklamani ishlatalish va rivojlanishida prinsipial yangi yo'llarini talab qiladi.

Shuni hisobga olish kerakki reklamaning vazifalari bir xil emas va tovar bozorining rivojlanish bosqichiga bog'liq holda uning vazifalari o'zgarib turadi.

Bozor munosabatlariiga o'tishning dastlabki bosqichida reklamaga aholini import elektron hisoblash va orgtexnikalar, bank, birja, sug'urta kompaniya xizmatlari; mamlakatda va uning tashqarisida biznes mакtablarida o'qitish, biznes bo'yicha o'quv metodik qo'llanmalar to'g'risida barcha ommaviy axborot vositalarida aholiga ma'lumotlarni yetkazib berish keng amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi. Tovar ishlab chiqarishni rivojlanishi bilan reklamaning iqtisodiy roli ortib boradi. Reklama tufayli haridor tanlashda qaysidir tovarga xohishini bildiradi, shu bilan u oldi sotdi jarayoni, kapitalni aylanishini tezlashtiradi.

Reklama tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish emas. U faqatgina tovar va xizmatlami iste'molchiga yetkazib berish vositasi bo'lishi kerak. Reklama amaliyotida shuni esda tutish lozimki: reklama muvoffaqiyat qozonishi uchun u to'g'ri, haqiqatga mos bo'lishi, reklama qilinayotgan tovarning haqiqatan ega bo'lgan sifatlarini ko'rsatishi kerak. Noinsof reklama balki shovqin ko'tarishi mumkin va ma'lum muvoffaqiyat olib kelishi mumkin, lekin bu muvoffaqiyat tuyulayotgandek bo'lishi mumkin, lekin u vaqtinchalik bo'ladi.

Haqqoniy reklama talabni ko'paytirishga, ushlab turishga yoki barqarorlashtirishga yordam beradi. Hayot darajasini ko'tarish uchun reklama faoliyatini to'g'ri tashkil etish ham o'ziga xos rag'batlantiradi.

Reklama yordamida bozor, haridorlar uchun to'liq va ochiq bo'ladi. Har xil iste'molchilarning ehtiyojlariiga qarab, didlariga, xohishlariga, daromadlariga va turmush tarzlarining yashashlari hamda millatlariga, an'anaga qarab amalga oshiriladi.

Reklama faoliyatida amalga oshiriladigan reklama bilan bog'liq bo'lган jihatlarni asosan quyidagi chizma orqali tahliliy ko'rib chiqishimiz mumkin.

| <i>Reklamaning ijobiy tomonlari</i> | <i>Reklamaning salbiy tomonlari</i> |
|---|---|
| 1. Iqtisodiyotga ta'siri | |
| Iqtisodiyotni o'sishiga yordam beradi, kapital qo'yilmalarni va ishtirokchilarni, joylarni aniqlashtiradi | Resurslarning keskin kamayishiga olib keladi. Kim o'zarga ishlab chiqarishda iqtisodiyotda salbiy oqibatlar qoldiradi |
| Raqobatni qo'lab- quvvatlaydi | Monopolizasiyaga olib keladi |
| Iste'molchilarni xabardor qiladi va raqobatni engillashtiradi | Narxsiz raqobatni shakllantiradi |
| 2. Sanoatga ta'siri | |
| Yangi tovarlar uchun bozorlarni kengaytiradi | Bozorga chiqishda to'siqlar barpo qiladi |
| Firmalar o'rtaida raqobatni ushlab turadi | Firmalar o'rtaida raqobatni tugatadi |
| 3. Firmalarga ta'siri | |
| Tushumlarni faoliyat hajmiga muttanosib ravishda o'sishini ta'minlaydi | Harajat va baholarni o'sishiga olib keladi |
| Marketing faoliyatida tavakkalchilik darajasini va noaniqlikni pasaytiradi | Juda katta miqdorda fu Ja olishni ta'minlaydi |
| 4. Iste'molchilarga ta'siri | |
| Axborot bilan ta'minlaydi | Foydasiz anglashilmovchilikga olib keladigan axborot beradi. |
| Mahsulotlarni sifatini nazorat qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi | Tovarlar o'rtafiga kichik farqlarni hisobiga ularni diferensiallaydi. |

1-chizma. Bozor sharoitlarida reklamaning o'mi.

Reklama ishi bu kasbning asoslarini chuqur bilishni talab qiladi. Shu bilan bir vaqtda hozirgi milliy reklama ko'pincha professionallashtirilmaganlik bilan keskin ajralib turadi. Bu haqida gazeta, jurnal, radio, televideniyedagi reklama e'lonlari dalolat beradi. Xorijdagи va mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan reklama agentliklari tajribasida reklama materiallarini barpo qilish asosida yotadigan asosiy tamoyillar quyidagicha:

- har qanday reklama toza, to'g'ri va haqiqiy bo'lishi kerak;
- har qanday reklama jamiyat oldida javobgarlik hissi bilan tashkil qilinishi va sof raqobat tamoyillariga javob berishi kerak.

Hech qaysi reklama, reklamaga bo'lган xalqning ishonchiga putur yetkazishi mumkin emas. Bizning mamlakatimizda tovar va xizmatlarning reklama qilishda ham shu asosiy tamoyillarni qo'llash kerak. Reklamani yorituvchilar shuni esda tutishlari kerakki-reklama o'z-o'zidan tovarlarni past

sifatini kompensasiya qila olmaydi. Bundan tashqari bunday reklama sifatsiz tovarlarga bo'lgan salbiy qarashni kuchaytirishi mumkin, chunki ko'pchilik haridorlar reklama ta'sirida uni sotib oladilar va yomon "mish-mish" aholi o'rtaida tarqaladi. Reklama shunda samaraliki qachon u mahsulotni ishlab chiqarishidan haridorgacha yetib borish umumiy jarayoniga kiritilgan bo'lsa, tarqoq epizodik reklama tadbirdi juda katta xato hisoblanadi, chunki yuqori sifatli reklama bo'lganda ham to'la samarali emasdir. Mahsulotni ishlab chiqarishdan uni realizasiyasigacha bo'lgan hamma bosqichlar reklama ta'sirining aktiv dasturi bilan majassamlashishi kerak. Maqsadli yo'naltirilgan reklama kuchi ishlab chiqarish sohasida ham savdo sohasida ham bo'lishi kerak. Reklama vositalaridan foydalanishlikni bilmaslik bozorda faol ta'sir qilish imkonini, raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishish imkonini pasaytiradi. Reklama iste'molchilar uchun savdo va boshqa korxonalarini, xizmat, tovarlarni erkin tanlash sharoitlarini yaratishga yordam berishi kerak. Faqatgina tanlashning shunday sharoitlarida haridor ishlab chiqarishning maqsadli talabiga, aholining aniq guruhlarining ehtiyojiga yo'naltirilgan jarayonga bevosita qo'shilishi mumkin.

Marketing tizimida reklamani ishlab chiqarishda va iste'mol bilan bog'liqligi darajasini-tovar ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqarish va iste'mol bozori bilan, ya'ni haridor va sotuvchilarni tovar ayriboshlash munosabatlari bilan belgilanadi.

Reklama bozorming bog'lovchi elementi bo'lib hisoblanadi, chunki oldisotdi jarayonlarining har ikkala tomon uchun ijobjiy bo'lishi uchun potensial haridorlar uchun bozomi sharhlash lozim. Talab va taklif haqida kamida axborotga ega bo'lishi kerak. Reklama tovarlar haqida axborot tarqatib tovar taklisi shu bilan birga talabni shakllantirishda ishtirok qiladi.

Shunday qilib, reklama informatsion faoliyatning bir shakli bo'lib ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaсидаги aloqani ta'minlaydi. Uning yordamida bozor bilan iste'molchi o'rtaсидаги "teskari aloqa ta'minlanadi". Bu esa tovarlarni

bozordagi harakatini nazorat qilish haridorda reklama qilinayotgan obyektga bo'lgan qiziqishini barqarorlashtirishga yetkazib berish faoliyatiga o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Reklama ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida dialog hosil qiladi. Bu o'zining faoliyati yo'nalishini ishlab chiqarishni bozorga yo'naltirishga topadi. Amerika iqtisodchisi Tel Breyg aytganidek "iste'mol ishlab chiqarishga ketgan harajatlar va shu tovarlari bo'lishi sun'iy ehtiyojni hosil qilishi natijasida harajatlar o'rtasida keng emperik bog'liqlik mavjud"². Ishlab chiqarishni kengaytirish reklama budgetini ko'paytirish orqali erishish mumkin. Reklama ishlab chiqarilayotgan mahsulotni doimo mukamallashib borishini ta'minlaydi. Uni raqobatni quroli sifatida ishlatish kerak. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat bo'lishi iqtisodiy jihatdan korxonalarni kengroq va samaraliroq faoliyat olib borishlariga imkoniyat yaratadi:

Birinchidan raqobat turli ishlab chiqaruvchilarni samaradorligini solishtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan mahsulotning ma'lum sisatlarini va nisbatan past baholarini ta'minlay olmayotgan ishlab chiqaruvchilarni siqib chiqardi.

Uchinchidan ishlab chiqarish hukmdorligini yo'q qiladi, ishlab chiqarishni ijtimoiy ehtiyojlarga bo'ysundiradi. Reklamasiz bozorga faol ta'sir qilish, unda o'zining bozordagi o'mini mustahkamlash imkoni yo'q. Korxonalarning mustaqilligi qanchalik bozorda xo'jalik subyektlarning holati va qarorlariga ta'sir qiluvchi faol reklama axborotiga ehtiyoj oshadi.

Samarali tadbirkorlik faoliyatini yurgizishni asosiy sharti bu yangi raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarish, yangi tovar u bozorga chiqadigan vaqtga qarab iste'molchilarining shakllanadigan ehtiyojlariga javob bera olishi kerak. Bu jarayon maqsadli reklama kuchlarini ishlab chiqarish sohasida ham savdo sohasida ham talab qilinadi. Reklama bozorga yangi tovar va xizmatlarni

² Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: Учебник – 8-е изд., перераб и доп – М: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006 – 526 с. 2 эз

olib kiradi, yangi ehtiyojlarni shakkantiradi. Masalan: raqobatning aniq bozorlardagi holati va firmanın kerakli omillar bilan ta'minlanganligi. Shuning uchun raqobashilardan qolishmaslik uchun narx, sifat xizmat ko'rsatish darajasi bo'yicha shunday qarorlarni qabul qilish kerakki bu mahsulot hajmini oshirishga imkon yaratsin. Agar tovar sifati yuqori bo'lmasa yoki eskirsa raqobashilar undan tezda foydalanadilar. O'ylab qilingan reklama tadbirkorlik faoliyatini turli tomonlarigi ta'sir qiladi. Yangi mahsulotni ishlab chiqarish g'oyalarini ilmiy texnik taraqqiyot yutuqlarini ishlashini zamonaviy omilini, ishlab chiqarishni kooperatsiyani rag'batlantiradi. Xo'jalik tadbirkorligini reklama bilan majassamlashishi korxona va boshqa bozor subyektlariga yuqori daromad olish imkonini beradi, hamda ishlab chiqarishni rivojlanishini amalga oshirib ular o'zlarining faoliyatini har bir bosqichida maqsadli reklamani amalga oshirishlari shart.

Reklamaning tomirlari juda qadimga borib taqaladi. Reklama amaliyoti haqida gap tarixning birinchi yozma hujjatlaridayoq ketgan.

Eng qadimgi davrda rimliklar gladiatorlar janglari haqidagi e'lonlar bilan devorlarni bezaganlar. Jangchilarni ovoza qilish va ularni ko'z-ko'z qilishdan asosiy maqsad, jangchilarni reklama qilish bilan ularni orqasidan mo'maygina daromad ham topishganlar.

Qadimgi Gretsiyadagi "Oltin asr" Afina ko'chalari bo'ylab yurgan, qullar, qora mollar va boshqa tovarlarning sotilishi haqida jar solgan jangchilarni ko'rgan. Reklamaning yana boshqa bir ko'rinishi tamg'a bo'lgan, sotuvchilar ularni o'z tovarlariga bosganlar. Masalan, o'sha davrlarda sotuvchi va savdogarlar tovar sifatini tekshira turib, tamg'a qo'yganlar.

1450-yil, Gutenberg tomonidan bosma dastgohning ixtiro qilinishi yo'lli bilan reklama tarixida burilish yili bo'ldi. Reklama beruvchiga o'z axborotlarining qo'shimcha nuxalarini tayyorlashga hojat qolmadi.

Birinchi bosma e'lon 1478-yilda ingliz tilida paydo bo'lgan. 1622-yilda reklama kuchli taraqqiyotga ega bo'ldi-bu ingliz tilidagi gazetasining chiqishi

bilan bog'liq bo'ldi. Masalan, "Tetler" firmasining sartaroshlik uchun asboblari, patentga ega dorilar va boshqa tovarlarni sotish uchun reklama e'lonlari nashr etildi.

Reklama AQSHda eng katta ravnaqqa erishdi. Benjamin Franklin Amerika reklamasining otasi hisoblanadi. Uning 1728-yilda paydo bo'lgan "Gazett"i mustamlaka Amerika gazetalari orasida eng katta nusxa va eng ko'p hajmdagi reklama e'lonlariga erishildi¹.

Reklamaning rivojlanishiga bir necha omillar ta'sir qiladi:

Birinchidan, Amerika sanoati ishlab chiqarish jarayoniga qo'l mehnati tatbiq etishni tugatdi, buning natijasida tovarlar mo'lligi paydo bo'ldi.

Ikkinchidan, suv yo'llari, shosse va oddiy yo'llar chorrahalarining yaratilishi va reklama vositalarinig qishloq joylarga yetkazishni qulaylashtirdi.

Uchinchidan, 1813-yilda kiritilgan majburiy boshlang'ich ta'lim savodxonlik darajasini oshirdi va gazetalar hamda jurnallar chiqarishning o'sishiga yordam berdi va reklamani bosib chiqarishga katta imkoniyat yaratildi. Radioning keyingi paytda, televideniyening kashf etilishi reklamada kuchli turtki bo'lib xizmat qildi.

1.2. Reklama faoliyatini tashkil etish fanining predmeti va metodi

Reklama faoliyatini tashkil etish fanining predmeti va metodi sifatida amalga oshirilayotgan reklama borasidagi tadqiqotlarning yo'nalishlari, albatta bozorning rivojlanganlik darjasи, undagi raqobat intensivligi, tegishli tovar va xizmatlar bilan mashg'ul bo'lgan firmalarning katta-kichikligi, marketing axboroti va xabarnoma tizimlarining shakllanish sur'ati va boshqa omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan, rivojlangan xorijiy davlatlardagi firmalarning marketing tadqiqotlari yo'nalishlari, uyushtirish tartibi va shakllari

bizning mamlakatimiz korxona va tashkilotlar uchun o'zgarishsiz qabul qilinishi xususida fikrlash bir muncha noo'rin bo'ladi.

Zamonaviy marketing nazariyasining rivoj topishi va amaliy faoliyatda uning hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi, firmalarning marketing tadqiqotlarini uyushtirishda ham sezilarli tarzda o'z aksini topmoqda. Xususan, firmalarning raqobatgabardoshlik quvvati, bozordagi o'mi, strategik maqsadlari, diversifikasiya sari yo'l tutish taktikasi ko'pgini hollarda tadqiqotlarning yo'nalishi va kulamini belgilaydi. Jumladan bozorda faoliyat olib borayotgan korxonalar o'zlarini tovarlarini reklamasini berishlari uchun marketing strategiyalarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

- peshqadamlikka intiluvchi (bozorda o'rtacha 30 % ulushga ega);
- hamqadam intiluvchi (bozorda 20 % ulushga ega);
- bozordagi «nisha»ni-«bo'shliq»ni egallovchi (bozorda 10 % ulushga ega).

Reklama faoliyatini tashkil etishda ushbu strategiyalarni tanlagan va amalga oshirayotgan firmalarning bozordagi ulushi, kelgusi intilishlari tegishli muammolar bo'yicha marketing tadqiqotlarining yo'nalishlariga, jadalligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bozorda peshqadam bo'lган firma bozordagi konyunktura, yangi mahsulotni o'zlashtirish, sotish imkoniyatlarini oshirish, kommunikasiya va reklama yo'nalishidagi tadqiqotlarga ko'proq e'tibor qaratsa, bozordagi «nisha»ni egallovchi firma haridorlar istagini o'rganish, raqobatchilar tovarlarini va narxlarini tahlil qilish, bozor chegaralarini kengaytirish borasidagi tadqiqotlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Jumladan, bozorda reklama faoliyatini tashkil etish natijasida avtomobil bozorining shakllanishi va rivojlanishiga nazar tashlasak, ushbu fikrimizning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Yigirmanchi asming 60-70-yillarida jahon avtomobil bozorida Yaponiya va Janubiy Koreya avtomobillarining nomi hali tilga olingani yo'q edi. O'tgan o'ttiz yil davomida ushbu davlatlarda yaratilgan avtomobillar AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya kabi davlatlardagi mashhur firmalarning tajribasini o'rganish, avtomobillarni

tadqiq qilish asosida rivojlandi. Hozirgi kunda Yaponianing Toyota, Nissan, Mitsubishi, Xonda, Janubiy Koreyaning Xunday, Daewoo kabi kompaniyalari ayrim davlatlar bozorlarida peshqadamlikka erishish strategiyalarini amalga oshirishga harakat qilmoqdalar.

Shu sababdan reklama faoliyatida marketing tadqiqotlarini uyuştirishda bozorming rivojlanish holati, raqobat jadalligi, firmalarning ushbu bozorlarda faoliyat yuritish maqsadlari va vazifalar inobatga olinishi zaruriy ahamiyat kasb etadi. Reklama faoliyatini tashkil etishda marketing tadqiqotlari yo'nalishlarini belgilashda tegishli firmanın bozorda faoliyat yuritish o'mi, vazifalarini inobatga olish lozim. Xorijiy adabiyotlarda bu jihat firmanın missiyasi deb ataladi. Shu sababdan, tadqiqotlarning yo'nalishlarini belgilash firma maqsadlaridan kelib chiqishi kerak. Reklama faoliyatini tashkil etishda marketing tadqiqotini amalga oshirish, izlanish muammosini va maqsadlarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha izlanish muammosi bilan uning maqsadlari o'rtaida tafovut-farqlanish mavjudligiga etarlicha e'tibor berilmaydi. Buning oqibatida sezilarli xatolarga yo'l qo'yiladi.

Shu sababdan to'g'ri va aniq belgilangan muammo, tayinli maqsadga erishish uchun puxta zamin yaratadi. Masalan, yuqori sinfdagi avtomobillar ishlab chiqaruvchi «A» firmanın X-modelli avtomobilalarini ichki bort kompyuteri va radio telefonni bilan bir yo'la jihozlab chiqarishni misol qilib olaylik. Dunyo tajribasidan shu narsa ma'lumki, barcha avtomobil ishlab chiqaruvchi firmalar ushbu «qo'shimcha jihozlarni» qo'shimcha tanlov va unga xos bo'lgan haq evaziga bajaradilar. «A» avtomobil firmasi raqobatchilaridan ajratish, yuqori iste'mol darajasidagi haridorlar uchun urinishi qanday muammoni hal etishi va maqsadlarni ko'zlanishini ko'rib o'tamiz. Bort kompyuter va radio telefonli avtomobilarga bo'lgan ommaviy ehtiyoj va buyurtma asosida bajarish qanday manfaatlarga erishish imkonini beradi. Ushbu «qo'shimcha jihozlar» uchun harajatlar va daromadlarga ta'siri qay jihatda

bo'ladi, «qo'shimcha jihozlar» avtomobil harakati xavfsizligiga va boshqaruvchiga qanday afzalliliklar va xatarli holatlar yaratadi va h.k.⁴

Reklama faoliyatini tashkil etishda marketing tadqiqotida muhim bosqich-tadqiqot rejasini ishlab chiqish hisoblanadi. Bunda tadqiqot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va axborotlarni to'plash manbalari, uslublari, qurollari, tanlov o'tkazish tartiboti va rejalarini tuziladi. Tadqiqot asoslanadigan ma'lumotlar va manbalardan bir necha marotaba tegishli sohalarda foydalanish, ularni qayta ishlash mumkin.

Reklama faoliyatini tashkil etish marketing tadqiqotida kuzatish, tajriba, so'rov, guruqli bahs eng ko'p qo'llaniladigan uslublar hisoblanadi. Har bir uslub tadqiqotning tegishli bosqichlarida samarali axborot to'plash, uni qayta ishlash, texnik vositalardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Masalan, yuqorida keltirilgan radio telefonli va bort-kompyuterli avtomobilga bo'lgan boshlang'ich talabni baholash tadqiqotini olib ko'ravlik. Kuzatish uslubi vositasida haridorlarning joriy davrda va avtomobil bozoridagi munosabatlari, kunikmalarini baholash mumkin. Surov uslubida esa aniq bir haridorming «yangi jihozlarga» bo'lgan qiziqlishlari, ularga quyadigan talab va istaklarini baholash mumkin. Tajriba uslubida esa sinov tarzida avtomobilarning kichik partiyasini bozorda sotib, haridorlar holatlarini kuzatish mumkin.

Reklama faoliyatini tashkil etish jarayonida tadqiqot rejasini ishlab chiqish uslubiy jihatdan o'zaro bog'liqlik, anqlik, takrorlanmaslik, davriy uzuksizlik ta'minlanishligi quyidagicha ifodalanadi:

1. Qanday ma'lumotlar to'planishi kerak?
2. Ma'lumotlarni kim to'playdi?
3. Kim va niima xususida izlanish olib borish lozim?
4. Ma'lumotlarni to'plashda qanday uslublar qo'llaniladi?
5. Ma'lumotlar qanday shaklda va qanday muddatlarda taqdim etiladi?

⁴ Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шакурин В.Г. Основы рекламы: Учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 эск.

6. Ma'lumotlarni to'plash qachon va qayyerda amalga oshiriladi?
7. Ma'lumotlarni to'plash uchun qanday harajatlar ko'zda tutiladi?
8. Ushbu ma'lumotlar asosida qanday reklamani tashkil qilish mumkin?

Ushbu savollarga javob topish asosida tadqiqot rejasining izchilligi, mazmunan va mantiqan bog'liqligi ta'minlanadi. Bu o'z navbatida tadqiqotning keyingi bosqichlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklar va xatoliklarning vujudga kelishiga yo'l qo'yilmaydi. Ma'lumotlarni to'plash bosqichi tasdiqlangan reja asosida amalga oshirilishi bilan bir qatorda texnik vositalar yordamida ularni qayta ishslash, tayinli tartibga solish vazifasini bajaradi.

Chunki jamlanadigan ma'lumotlar qayyerda va qachon amalga oshirilishiga, ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga katta e'tibor beriladi. So'nggi vaqlarda ma'lumotlar va axborotlarni to'plashda kompyuter dasturlaridan foydalanish yuqori samara bermoqda.

Chunki to'plangan ma'lumotlar-bu hali natija emas, balki tayyorlangan bir dastlabki xom- ashyodir. Shu tufayli ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish va taqdim qilish bosqichlarini ancha osonlashtirish maqsadida maxsus kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Bunda asosiy ma'lumotlarga emas, balki grafik, diagramma, chizma shaklidagi natijaviy ma'lumotlarga qaratilmoqda.


Reklama faoliyatini tashkil etishda marketing tadqiqoti ma'lumotlarni imkon boricha qisqa, aynan mazmunini va zudlik bilan taqdim etilishi tayinli mahsulot xususida bozorda qaror qabul qilish ancha oson kuchadi. Shu sababdan taqdim etilgan marketing tadqiqoti natijalari umumlashtirilgan va umumiy xulosalar keltirilgan qismga ega bo'lishi talab etiladi.

Demak, reklama faoliyatini tashkil etish jarayonida marketing tadqiqotlarining yo'nalishlari, uning maqsadlari asosida muayyan uslublar tanlanadi. Qo'llaniladigan uslublar istakdag'i natijaga erishish yo'lida bir-birini to'ldirish, aniqlash, xatoliklarni o'z vaqtida bartaraf etish uchun xizmat qiladi. Tadqiqot qurollari esa, xoh anketa, xoh texnika vositalari tarzida bo'lsin

axborotlarni zudlik bilan to'plash, ularni qayta ishlash, kelgusi faoliyatda unumli foydalanish vazifasini bajaradi.

1.3. Reklama faoliyatini tashkil etish fanining maqsadi va vazifasi

Reklama faoliyatini tashkil etishning qisqacha mazmunu va mohiyatini keltirib o'tilgan.



Reklama faoliyatini tashkil etish fanining asosiy maqsadi sifatida reklama qilinayotgan va amalga oshiriladigan reklamalarni tashkil qilish jarayoni tushuniladi.

Tovar va xizmatlarni ko'rsatishni reklama qilishda har bir reklama beruvchi shaxs, avvalambor, zarur reklama vositalarini tanlaydi, ya'ni gazeta, jurnallar, radio, televide niye, tashqi reklama vositalari, transportdagi reklama, to'g'ridan-to'g'ri pochta orqali reklama va h.k.lar orasidan to'g'ri kelganini ajratib oladi. Bu yyerda qandaydir umumiy qonuniyatlar deyarli bo'lmaydi, chunki reklama vositalari har bir to'ning o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z navbatida boshqasidan farq qiladi. Barcha vaziyatlar uchun yaroqli bo'lgan birgina «eng yaxshi» vositaning o'zi yo'q. Shuning uchun aniq talablar, aniq vaziyatga qarab qaror qabul qilish lozim.

Reklamaga sarflanadigan pullarning 80 %i reklama tarqatuvchi vositalarga to'lanadi, bundan ko'rinish turibdiki, reklama vositalarini tanlash katta ahamiyatga ega.

Reklama vositalarini tanlashda 4 ta savolga javob berish lozim:

- 1. Kimni qamrab olmoqchimiz?**
- 2. Ular qayerda joylashgan?**
- 3. Murojaat qanday ahamiyat kash etadi?**
- 4. Reklama e'lonini qachon berish kerak?**

Reklama bilan kimni qamrab olmoqchimiz, degan savolga javob berish uchun potensial haridorlarni aniq bilishimiz kerak. Hech bir tovar, hech bir xizmat ko'rsatish birvarakayiga hamma tomondan, bir xil me'yorda foydalanilmaydi. Ba'zi odamlar boshqalarga qaraganda aniq potensial haridor hisoblanadi. Shuning uchun reklama beruvchining o'zi yoki reklama agentligi xodimi bozorni segmentlaydi, ya'ni demografiya, sotsial holati, hayot tarzi, mahsulotdan foydalanish darajasi nuqtai nazaridan eng aniq potensial haridorlarni ta'riflaydi. Sung'ra bozor holatidagi tavsifiga to'liq javob beruvchi

va eng ko'p potensial haridorlarni jalb qilishni ta'minlovchi reklama vositalarini ta'minlaydi.

Reklamani potensial haridorlar ko'p to'plangan joyda berish lozim, matbuotdagi aniq nashrda chop etish uchun tushunarli bo'lgan tilda yozilishi kerak. Qachon reklama qilish kerakligini hal qilishda yil fasllari, oylar, hafta, kun, soat, daqiqalar haqida so'z borishi mumkin. Matbuotdagi nashrlar davriyligi (har kungi gazetalar, haftada bir va oyda bir chiqadigan jurnallar) va radio televideniyeda chiqadigan vaqtli kesmalarning spesifik tasnifi reklama beruvchilarga murojaatlar ko'riliши, eshitilishi yoki o'qilishi mumkin bo'lgan aniq vaqtini belgilash imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda reklama dasturlarini amalga oshirish reklamalarda reklama kompaniyalarini o'tkazishda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun reklama beruvchilar va reklama agentliklari tomonidan qo'llanilayotgan reklama vositalarining ko'p turli-tumanliklarini kuzatish mumkin.

Hozirgi vaqtida jahon amaliyotida ham va mahalliy amaliyotda ham reklama vositalarining umumiy yagona tasnifining yo'qligi-reklama tadbirlarini o'tkazishda ulami tanlashda qiyinchiliklar tug'diradi. Xalqaro reklama uyushmasi tomonidan taqdim etilgan tasnifni bu maqsadlar uchun eng muvofiq deb hisoblash mumkin: matbuotdagi reklama, bosma reklama (yoki nashrdagi) audiovizual reklama, radio va telereklama; yarmarka kurgazmalari, reklama suvenirlari; to'g'ridan-to'g'ri pochta orqali reklama; tashqi reklama; pablik releyshenz tadbirleri; kompyuterlashgan reklama.

Matbuotdagi reklama davriy nashrda chop etilgan turli xil reklama materiallarini o'z ichiga oladi. Ulami shartli ravishda 2 asosiy guruhga ajratish mumkin: reklama e'lonlari va sharhlari-reklama harakteridagi nashrlar, bularga ba'zida to'g'ri, ba'zida esa reportaj, sharxlari kiradi. Reklama e'lonlari-bu davriy nashrga joylashtirilgan pullik reklama bildirishidir. Klassik variantdagи e'lon yirik reklama beruvchining tijorat taklifini maqsadini va afzalligini qisqa shaklda ifoda etadi. Reklama e'lonining asosiy matni qismi kichikroq bo'lgan

harflarda yozilib, reklama murojaati maqsadini to'liq, lekin kam so'z bilan ifodalaydi, haridor uchun mahsulotning foydali tomonlarini va afzalliklarini ta'kidlaydi. E'lomning oxirida haridor murojaat qilishi uchun manzil (kerak bo'lganda-telefon, faks yoki boshqa reklama vizitlari) keltiriladi⁵.

Shuni aytib o'tish joyizki, oxirgi paytlarda reklama e'loni chop etilayotganda u bilan birga qaytar kesma kupon yoki blank-buyurtma ham chop etilayapti. Reklama e'lomini tasviriy bezash iloji boricha uning mazmuniga mos kelishi kerak. Firma timsollarining asosiy elementlarini (mahsulot belgisi) ajratib ko'rsatilishi lozim.

Sharh-reklama harakteridagi maqola va boshqa nashrlar redaktsion material ko'rinishiga ega bo'lib, (chet el amaliyotida uni joylashtirishda asosiy huquq pullik reklama e'lolarini doimo chop etuvchi haridorlarga beriladi) korxona faoliyati haqida sharx beruvchi shaklda yoki uning rahbarlari, ish bo'yicha hamkorlari va haridorlari bilan bo'lgan suxbat (intervyu) shaklida yoziladi. Bu kabi materiallar yaxshi illyustratsiyalangan bo'lishi kerak, chunki illyustrasiyasiz katta matn qismi uncha yaxshi samara bermaydi. Bunday maqolalarni tasviriy bezashda firma simvolikasidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Reklama e'lolari va sharh-reklama harakteridagi maqolalarni chop etishda gazeta, jurnal, byulleten, turli ma'lumotnomalar, yo'riqnomalar kabi davriy nashr turlaridan foydalaniladi. Reklama faoliyatini tashkil etish mavzusiga ko'ra barcha matbuotning davriy nashrlarini ommaviy-siyosiy va ixtisoslashganligiga ko'ra klassifikasiyalash mumkin (turli tarmoq nashrlari, qiziqishlarga ko'ra nashr) ommaviy-siyosiy nashrlarda aholining keng qatlamiga mo'ljallangan mahsulotlar va xizmatlar haqidagi reklama e'lolarni berib borish va ularni iste'molchilar talab va didlarini, chtiyojlariga mos ravishdan kelib chiqib asosan chop etiladi.

⁵ Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы. Учебник – 8-е изд., перераб и доп – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.

Ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar haqidagi reklama e'lonlari fan va texnika, ishlab chiqarish tarmoqlari mutaxassisliklari o'qishiga mo'ljallangan bo'lsa, maxsus nashrlarda chop etilish lozim.

1.4. Marketing faoliyatida reklamani tashkil etish

Reklama bozori-murakkab ko'p qirrali hodisa. Reklama bozori maqsadli bozor tushunchasi tarkibiga kiradi, ya'ni reklama jarayoni qatnashchilari o'z faoliyatlarini mujassamlashtirgan maketing kommunikatsiyalari tarkibi hisoblanadi.

Reklama bozori-ma'lum bir aniq tovar yoki xizmatga nisbatan o'xshash ehtiyojlar, yetarli resurslar, shuningdek, harid qilish imkoniyatining borligi va tayyorligi bilan bo'lgan reklamaning mavjud va potentsial iste'molchilar yig'indisidan iborat. Bu bozor, birinchidan, reklama ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilar orasida, ikkinchidan, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar guruhi ichida iqtisodiy aloqala tizimini ifodalaydi. Bunda birinchi ko'rinishdagi aloqalarning asosiy shakli-olib sotish, ikkinchisini esa raqobat hisoblanadi.

Reklama bozorining jalb qilishligi, salohiyat, oson yetishish mumkin bo'lgan, barqarorlik, istiqbollilik, daromadlilik, himoyalanganlik kabi ko'rsatkichlar bilan harakterlanadi.

Firmanın maqsadli harakati reklama bozorining berilgan segmentiga chiqish imkoniyati borligini bildiradi. Reklama bozorining segmenti uning imkoniyatlarini baholash uchun o'lchamli bo'lishi kerak; tanlangan segment o'lchamlari, talab dinamikasi, o'zining yalpi salohiyati bo'yicha ahamiyatli bo'lishi kerak; segment ichida iste'molchilar tomonidan nisbatan birqaror o'xshashlik bo'lishi kerak; reklama segmenti o'zining rivojlanishi uchun yaxshi istiqbollarga ega bo'lishi kerak; reklama segmentining daromadliligi foy-normasi, rentabelligi va aksiyalar dividentlari asosida aniqlanadi.

Reklama xiznatlari bozorining an'anaviy tovarlar bozoridan asosiy farqi quyidagilar:


- reklama paydo bo'lishidan oldin uni baholab va taqqoslab bo'lmaydi, faqatgina reklamadan kutilayotgan va olingen soydanigina taqqoslash mumkin;
- bunda kerakli reklamaga iste'molchi emas, balki reklama beruvchi buyurtma beradi;
- reklama iste'molchilarini sanoat va iste'mol tovarlari bozorining iste'molchilaridan keskin farq qiladi. Bu xususiyat reklama agentligidan reklama beruvchining maqsadli segmenti asosida maqsadli auditoriyani aniqlashini talab qiladi. (maqsadli bozor – bu fermaning eng foydali potensial mijozlaridir);
- noma'lum tovar va xizmatlarga reklama qilinmaydi;
- rivojlangan bozor iqtisodiyotida bu bozor yuqori daromad keltiradi;
- reklama agentliklarining xalqaro tarmog'i tuziladi;
- reklama harajatlari keskin ko'payadi, lekin xalqaro miqyosda reklama faoliyatidan keladigan daromad oshadi;
- xalqaro OAVning tashkil etilishi va transmilliy sun'iy yo'ldoshli hamda kabel televideniyelarining paydo bo'lishi munosabati bilan reklama bozori keskin baynalminalashmoqda (maxsus kanallar);
- internet elektron tarmog'i rivojlanishi bilan yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Reklama bozorining *konyunktura hosil qiluvchi omillariga* quyidagilar kiradi: davriy (inqiroz, turg'unlik, jonlanish, bozor iqtisodiytining ko'tarilishi) va nodavriy (ilmiy-texnika taraqqiyoti, raqobashilik ta'siri, davlat tomonidan tartibga solish, siyosiy inqirozlar, ijtiinoiy ixtiloslar, mavsumiylik, inflatsiya).

Reklama bozorini harakterlovchi *miqdoriy parametrlar* – bozor salohiyati, bozor hajmi, bozorning to'yinganlik darajasi, bozor o'sish sur'atlari, reklama agentliklari orasida bozorni taqsimlashdir.

Reklama bozorining *sifatiy harakteristikalariga* quyidagilar kirdi: ijodiylik, reklama beruvchilarning sababları, stil, moda, reklama iste'molchilari didlari, mazmun, ahloqiy jihatlar va boshqalar.

Reklama bozorini tadqiq etish masalalari-reklama bozorini tadqiq etish eng birinchi bosqich bo'lib, shu bilan birga korxonaning reklama marketingi rejasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Reklama bozorini quyidagicha ifodalash mumkin.



3-chizma. Reklama bozorini segmentlash jarayoni

Uning maqsadi-marketingni boshqarish qarorlarini qabul qilish uchun kerakli axborotni yig'ish va qayta ishlashdir. Korxona o'z faoliyatlari davomida reklama bozorida ishlashning bir qancha usullariga ega bo'ladilar:

- 1) reklama tashuvchilari bozorining yagona segmentida to'planishi;
- 2) reklama beruvchilar segmentiga moslashish (orientatsiya).

Qisqacha xulosalar

Reklama lotincha "cheslato"-«qichqiraman» so'zidan olingan bo'lib, tovarlarning xususiyatlari va har xil turdag'i xizmatlarni realizatsiya qilish, ularga iste'mol talablarini yuzaga keltirish maqsadida beriladigan ma'lumotdir.

Reklama faoliyatini tashkil etish fanining iqtisodiy mohiyati bo'lib, marketing sohasida o'z bilimini takomillashtirib borayotgan talabalar uchun reklamaning imazmun mohiyatini ilmiy hamda analiy jihatdan chuqur o'rGANISHGA mo'ljallangandir.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollari

1. Reklamaning ahamiyati va reklamaning obyektiv zarurligi.
2. Fanining iqtisodiy mohiyati va mazmuni.
3. Reklama faoliyatini tashkil etish fanining predmeti va metodi.
4. Reklama faoliyatini tashkil etish fanining maqsadi va vazifasi.
5. Reklama vositalari va ularni ahamiyati..
6. Reklama faoliyatini asosiy avzalliklari.
7. Reklamada marketing axborotlarining ahamiyati.
8. Reklama xizmatlari bozori.
9. Marketing tizimida reklamani ishlab chiqarishning ahamiyati.
10. Reklamada marketing axborotlari bilan ishlash usullari.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Забин Д., Бребах Г. Прицельный маркетинг. Новые правила привлечения и удержания клиентов/ пер. с англ. Прал. Тит. Англ. – М.: Изд-во Эксмо, 2006. - 304с
2. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: Учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.
3. Мудров А.Н. Основы рекламы: учебник / А.Н. Мудров. – М.: Экономист. 2005. – 319 с.
4. Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.-414 с.
www.dis.ru. Marketing.
www.bci-marketing.aha.ru

2-bob. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA REKLAMANING O'RNI

2.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamaning ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklama faoliyatini tashkil etishning ahamiyatli tomonlari shundan iboratki, unda nafaqat passiv masalalarni asosiy iste'molchilar talablarini batafsil va to'la o'rganishni, balki faol masalalar-sotishning o'sishi, ularning samaradorligi va tadbirkorlik faoliyatida umumiy foydaliligini oshirish maqsadida talabni shakllantirish va rag'batlantirishni hal qilishni ko'zda tutadi.

Xuddi shu maqsadga, birinchi navbatda, kommunikatsion siyosat deb nomlangan tizim javob beradi, reklama uning tarkibiga bozorga ta'sir qiluvchi kompleks choralar sifatida kiradi. Xorijiy marketologlarining firkricha, bozorda talabni shakllantiruvchi va rag'batlantiruvchi tadbirlar tizimining asosiy elementlari quyidagilar:

1. Reklama.
2. Rag'batlantirish vositalari.
3. Pablisiti (targ'ibot).

Reklama marketing faoliyatining muhim elementlaridan biri bo'ladi. Reklama sotishni rag'batlantirish vositalari, servis siyosati, to'g'ridan to'g'ri va shaxsiy sotishlar, ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtiroy etish, tovar belgisi, o'rash-joylash, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtaсиda shaxsiy munosabatlarning shakllanishi, ommaviy axborot vositalari bilan ishlash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Masalan, F.Kotler hisoblashicha, "reklama mablag' bilan ta'minlash manbasi aniq ko'rsatish bilan pullik axborot tarqatish vositalari vositachiligi orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiyaning shaxsiy bo'limgan shakllarini namoyon qiladi".

R.B.Nozdrev, L.I.Suguchko ishida "Reklama-bu tovar yoki firma (korxona) tovarning iste'mol xususiyatlarini tijorat tashviqoti, firmaning

bo'lajak haridorlarni haridga faol tayyorlovchi faoliyati fazilatlari haqidagi axborotlarning ishontiruvchi vositasidir" deb ta'kidlab o'tishganlar.

Boshqa ko'pgina ta'riflar ham mavjud. Ularning barchasi bo'lajak haridorlarning shakllanishini ta'minlovchi, firma va tovarlar haqidagi axborotlar kabi elementlar bilan birlashtirilgan.

Reklama kompaniyasida rivojlantirish va amalga oshirish masalalariga katta ahamiyat beriladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda reklama iqtisodning ixtisoslashgan sohasiga aylangan va unga har yili katta mablag'lar sarflanadi. Masalan, AQSHda-75-78 mlrd. doll., Yaponiyada-28-28,5 mlrd. doll., G'arbiy Yevropada o'rtacha 10 mlrd. doll. har yili reklama faoliyatiga sarflanadi.

Buyuk Britaniyaning sobiq bosh Vaziri Uinston Cherchill bu masala bo'yicha shunday degan edi: "Reklama... yuqoriroq turmush darajasida talabni uyg'otadi. U inson oldiga o'zini va oilasini eng yaxshi turar joy, eng yaxshi kiyim, eng yaxshi oziq-ovqat bilan ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. U insonning tirishqoqligi va samaradorligini rag'batlantiradi".⁶

Reklamaning estetik ahamiyati. Reklama moda va dizayn an'analarining ko'zgusi hisoblanadi va bizning estetik tasavvurlarimizga o'z hissasini qo'shadi Qadim zamonlardan to hozirgi kunga qadar reklama murojaatlarining eng yaxshi namunalarini to'laqonli amaliy san'at asarlari deb hisoblashimiz mumkin Bunga misol sifatida Antonio Korredjo, Uilyam Xoggard, Pier Bonnar, Kazimir Malevich, Boris Kustodiev kabi buyuk rassomlar tomonidan ishlangan reklama plakatlari, shitlar va osma e'lqnarni keltirishimiz mumkin. Bastakor Sergey Prokofev Rossiyadagi shokolad markalaridan birining reklamasi uchun "Lazzatli ashula" asarini yaratdi. Juhon klassik musiqa sinining namoyondasi-Dmitriy Shostakovich ham reklama ustida ishlash tajribasiga ega edi.

⁶ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учебное пособие для вузов - М. ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

Aka-uka Lyumiyerlardan boshlab dunyoning ko'pgina taniqli kinorejissyorlari reklama videoroligi janrida hech bo'limganda bir marotaba bo'lsa ham ishlaganlar. Bular jumlasiga Federiko Fellini, Klod Lelyush, Andron Konchalovskiy, Devid Linch, Akiro Kurosava va Sergey Mixalkovlar kiradi. Djeyms Kameron, Devid Fincher va Lyuk Besson kabi mashhur shaxslar o'zlarining ijodiy faoliyatlarini reklamadan boshlaganlar. Umuman olganda, ko'pchilik zamonaviy kino aktyorlari uchun kino dunyosiga kirib borishlari reklama videokliplarida suratga tushishlaridan boshlangan.

Reklamaning siyosiy ahamiyati. Keng tus olayotgan demokratiya sharoitida siyosiy reklamaning ahamiyati saylovchilar ovozi uchun kurash vositali sifatida kuchayib bormoqda. Aynan siyosiy reklamaning va imidjneykerlikning darajasi va mukammalligi mamlakatdagi siyosiy kuchlarning taqsimlanishiga katta ta'sir o'tkazadi.

Reklamaning asosiy ko'rsatkichlariga axborot bilan ta'minlash, shaxsiy emasligi, bir tomonlama yo'nalganligi, joylashtiruvining noaniqligi, ommaviylici, xolisligi, obyektivligi va boshqalar kiradi. Masalan: pul ishlab topish, vositalar va vaqtini iqtisod qilish, ko'proq qulayliklarga erishish, sog'liqni mustahkamlash, atrof-muhitni tozaroq qilish, og'riqni sezmaslik, maqtov eshitish, mashhur bo'lism, hurmat qozonish, ko'proq rohatlanish, oilani himoya qilish, chiroli ko'rinishda bo'lism, muammolardan qochish, obro'ni saqlab qolish, o'z xavfsizligini ta'minlash va xohishni qondirish.

Reklama maqsadlari doimiy ravishda bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan:

- sotuvni bevosita rag'battantirish davri (1920-1930 yillar);
- tovarning "antiqa sotuv taklifi"ni topish va iste'molchilarga yetkazish davri (1940-1955 yillar);
- brendlarning noyob obro'sini yaratish davri (1955-1960 yillar);

- brendlarni joylashtirish-brendlar uchun bozorning tanlangan segmentida raqobashilardan farqlanadigan va uning maqsadli auditoriyasiga eng yaqin bo'lgan axborot tuzish davri (1970 yildan boshlab).⁷

Reklamaning eng muhim vazifalari “Reklamaning bosqichma-bosqich ta'siri” konseptsiyasida tizimli tartibga solingen. 1898-yildayoq Levis ana shu model asosida “AIDA”-qonunini shakllantirdi va u reklamaning quyidagi maqsadlarini o'z oldiga qo'yadi:

Attention-diqqat-e'tibor;

Interest-qiziqish;

Desire-xohish;

Action-harakat.

O'tgan davr mobaynida bu modelga ko'p o'zgartirishlar kiritildi va ba'zi paytlarda qiziqish (I) e'tibor (A)ning natijasi emas, balki uning sababi sifatida (AIDA) qabul qilingan, ba'zida esa bu modelga yana bir bosqich (*Confidence-ishonch*) qo'shilgan, shunda bu model AIDCA ko'rinishiga ega bo'lgan. Bu kabi modellar (ular 20 dan ortiq) shuni taqozo qiladiki, reklamaga duch kelish hamda harid qilish to'g'risida qaror qabul qilish orasida 4 tadan 10 tagacha bosqich o'tadi va ular “Samara iyerarxiyasi”ni tashkil etadi. Buning mohiyati shundaki, reklama dastlab ma'lum bir turki beradiki, u ehtimol maqsadli guruh e'tiborini o'ziga tortadi. Agar buning uddasidan chiqilsa reklama murojaatining keyingi ongli ravishda qabul qilinishi reklama qilinayotgan tovarga qiziqish uyg'otadi. Qiziqish tovar sotib olish xohishi paydo bo'lishining asosi hisoblanadi va bu o'z navbatida ma'lum harakatlarga turki bo'ladi.

Reklamaning oliv maqsadi bo'lib mijozga shunday ta'sir qilish hisoblanadiki, bunda mijoz harid qilayotgan paytda reklama qilinayotgan tovarni tanlasin.

⁷ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности. Учебное пособие для вузов - М: ЮНИТИ-ДАНА, 2004

Reklama maqsadlari tovarning bozordagi xulqi strategiyasiga bog'liq ravishda qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli bo'ladi. Maqsadlar talabga (axborot beruvchi, ishontiruvchi, esga soluvchi) va obro'ga (tarmoqli, korporativ) qarab moslashadi. Umumiylot holatda maqsadlar iste'molchilar hulqida kutilayotgan javob erishishdan tashkil topadi.

Tovarning tijorat reklamasi iste'molchilarga homiyning mahsuloti haqida axborot berishi yoki savdoni rag'batlantirishi kerak. Uning vazifasi—ma'lum bir mahsulotni sotish, iste'molchilar diqqatini raqobashilarining o'xshash mahsulotidan o'zining mahsulotiga jalb qilishdir. Tijorat reklamasidan farqli ravishda korporativ reklama sotuvchining o'ziga ijobjiy munosabat yaratish uchun tashkil etiladi. Bu reklamaning vazifasi—iste'molchilar e'tiborini korxonaning sotuvga chiqargan mahsuloti emas, balki aynan shu korxonaning o'ziga qaratishdir.

Masalan, agar "Filips Petroleum" firmasi o'zining yoqilg'isini reklama qilsa yoki sug'urta xizmatlarini taklif etsa, bunday reklama tovar reklamasi hisoblanadi. Ikkinchi tomondan qaraganda, agar "Filips Petroleum" firmasi neft quduqlarini burg'ilashning atrof-muhitga zararsiz va toza usuliga egaligini e'lon qilsa, bunday reklama aniq mahsulotdan farqli ravishda kompaniyaning maqsadlarini targ'ib etadi.

Fransiyalik mashhur reklama mutaxassisini Jak Segela shunday degan: "Reklama nafaqat savdoda, balki siyosatda va jamoat munosabatlarda ham o'z salmog'iga ega".

Reklamaning iqtisodiy va kommunikativ maqsadlari bo'ladi. Iqtisodiy maqsadlar to'g'ridan-to'g'ri tovar haridiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Iqtisodiy maqsadlarga quyidagilar kiradi:

- tovar sotilishni qo'llab-quvvatlash;
- tovar yoki xizmatning ma'lum turiga talabni shakllantirish;
- ma'lum bir firmanın ma'lum bir tovarini harid qilishga qiziqish uyg'otish;
- sotishni rag'batlantirish va muayyan turdag'i tovarga talabni shakllantirish;

- imtiyozli shartnomalar tuzish va narxning pasaytirilganligi haqida e'lon berish;
- yangi tovar yoki xizmatni bozorga kiritish muddatlarini qisqartirish;
- haridorlarning do'kon va ko'rgazmalarga tashrif buyurishga ta'sir etish;
- tovami yangi g'iloflarda namoyish etish;

Kommunikativ maqsadlarga quyidagilar kiradi:

- iste'molchilarni yangi mahsulot, yangi marka va yangi korxona bilan tanishtirish;
- tovaming taniqliligi darajasini oshirish;
- mahsulot iste'mol qilish odatiga ta'sir etish;
- iste'molchilarni axborot bilan ta'minlash (masalan, narxlar o'zgarishi haqida);
- ma'lum yo'nalishda imidjni o'zgartirish (zamonaviylashtirish, maftunkorligini oshirish);
- mahsulot harid qilib olish niyatida bo'limgan insonlarni do'konga jalg qiluvchi qiziqishni uyg'otish;
- mahsulotni harid qilib bo'lgan insonlarga taqlid qilish xohishini uyg'otish;
- mahsulotga sodiqlikni ta'minlash;
- korxona va uning mahsulotlari haqida fikrni yaxshilash;
- o'z inahsulotini raqobashilar mahsulotidan alohida ustun qilib ko'rsatish.

Maqsadlar reklama vazifalarini belgilaydi. Umumiy holda reklama vazifalari quyidagicha bo'ladi:

- *tijorat* (sotuvni rag'batlantirish, sotish hajmini o'stirish, tovar oborotini tezlashtirish, foydali hamkorlar izlash);
- *notijorat* (siyosiy maqsadlarni amalga oshirish, tabiatni muhosaza qilish, kasalliklar darajasini qisqartirish);
- *imidj yaratuvchi* (tovar va firma obrazini, korxona obro'sini va uning mahsulotini shakllantirish);

Umuman reklama tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishga har yili AQSI Ida yalpi milliy mahsulotning 2-2,25 %, Fransiyada-1 % sarflanadi, bu

tovar tannarxining 10 %ini tashkil qiladi. Tovar va xizmatlarning alohida turlari uchun reklamaga harajatlar 40 % gacha bo'lishi mumkin.

Xorijiy davlatlar va mamlakatimiz tajribasiga muvofiq reklamani quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Obyektlar bo'yicha reklama qilish

- nufuzli (firmaning) reklama. Bu reklamaning asosiy maqsadi firmani uning raqiblaridan farq qilishining reklamasidir;
- tovar reklamasi, ya'ni tovarga talabni shakllantirish va rag'batlantirish;
- tovar reklamasiga aniq markali tovarmi uzoq vaqt ajralib turish uchun qo'llaniladigan marka reklamasini ham kiritish mumkin;
- sarlavhani reklama-bu xizmatlar yoki xodislarani sotish haqidagi axborotlarni tarqatish;
- sotib bitirish reklamasi - bu arzonlashtirilgan narxlar bo'yicha sotib bitirish haqida e'lon;
- tushuntirish-tashviqot qilish reklamasi bu aniq maqsadni himoya qilish.

2. Etkazib berish shakllari bo'yicha:

- bevosita reklama, u tijorat sharoitlarida amalga oshiriladi va aniq tovar va aniq firmaga nisbatan reklama xizmatini to'g'ridan-to'g'ri bajarib, reklama beruvchini ko'rsatadi; bevosita reklama to'g'ridan-to'g'ri kanallardan foydalanmasdan va reklama beruvchini ko'rsatmasdan vazifani niqoblangan ko'rinishda bajaradi.

3. Reklama materialning harakteri va xususiyatlari bo'yicha:

- axborot-asosan tovarmi bozorga kiritishda amalga oshiriladi;
- kundiruvchi-firma oldida tanlab olingan talabni shakllantirish vazifasi turgan usish bosqichida alohida ahamiyatga ega bo'ladi;
- tovar haqida eslashga iste'molchini majbur qilishga imkon beruvchi eslatuvchi reklama;
- mustahkamlovchi reklama, u haridorni qilingan tanlov to'g'rilingiga ishontirishga harakat qiladi.

4. Tanlangan strategiya bo'yicha:

- bir turdag'i reklama turli mamlakatlarda faqat bitta reklama vositasini ko'zda tutadi, bu reklama tadbirlarini o'tkazish sarf va harajatlarni tejashga olib keladi;
- bir turda bo'limagan reklama yagona reklama konsepsiyasini berishida turli xil reklama vositalaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

5. Tarqatish vositalari bo'yicha:

- shaxsiy reklama ishi, ya'ni e'lonlarni jurnallar, umumiy yo'nalishdagi jurnallar, gazetalar, maxsus sohaviy jurnallar, firma bulletenlarida, axborotnomalariga joylashtirish;
- nashriy reklama kataloglari, bukletlar, otkritkalar, kalendalar;
- dalirect mail-reklama materiallarini pochta, telegraf, teleks orqali tarqatish;
- rolikli reklama - kino, televide niye, slayd-proeksiya;
- TV-marketing uy televide niyesi kanali bo'yicha reklama;
- radio bo'yicha reklama berishni ko'zda tutuvchi radio-reklama;
- tashqi reklama yirik hajmdagi plakatlar, elektralashtirilgan pannolarni tayyorlashni ko'zda tutadi;
- transportdag'i reklama. Bunday reklama butun transportning tashqi sirtiga o'rnatiladi;
- eng keng tarqalgan reklama tovari sotish joyida: do'konlarda, savdo zallarida bo'ladi.

Reklamalarning boshqa shakllari ham mavjud-esdaliklar ishlab chiqarish, tekinga otkritkalar taqdim qilish, turli xil o'yinlar o'tishi davrida esdaliklarni sovg'a qilish. Reklama faoliyatini rejalashtirish alohida qiyinchilikka ega. Xorijiy tajriba reklama sohasida asosiy qarorlarni birinchi bosqichda shakllantirish zarurligini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Vazifalarning qo'yilishi maqsadli bozor, marketing strategiyasi haqidagi avval qabul qilingan qarorlardan kelib chiqadi.

2. Firma o'z reklamasi vazifalarini belgilab turib, har bir alohida tovarga budjetni ishlab chiqadi. Reklamaning o'mi ularning talabini kutarishdan iborat.

3. Budjet belgilangandan so'ng firma reklama muomalasi va tarqatish vositalari haqida qaror ishlab chiqadi.

4. Reklama tadbirlarini o'tkazishni baholash uning kommunikativ va savdo samaradorligini o'lhash uchun amalga oshiriladi.

Kommunikativ samaradorligini o'lhashda reklama e'lonlari samarali kommunikatsiyani ta'minlashi haqida gapiradi. "Sanalgan testlar" nomini olgan bu uslubdan keyin foydalanish mumkin. Savdo samaradorligini o'lhash "sotishning" qanday hajmi e'lon tomonidan, ya'ni tovar haqidagi xabardorligini 90 %ga va taklifni 10 %li o'choviga oshirish natijasini beradi degan savolga javob berishga imkon beradi.

Birinchi bosqichda reklama (firma) obyektlari va tovar haqida faol va bo'lajak haridorlarga xabar berish zarur bo'lgan axborotlar aniqlanadi.

Ikkinci bosqichda reklama subyekti, ya'ni iste'molchilar va haridorlar guruhi yoki harid haqidagi qarorga ta'sir qiluvchi shaxslar aniqlanadi, reklama e'lonlari ularga murojaat qiladi.

Uchinchchi bosqich-bu reklama sabalari, ya'ni haridorlarni tovarga e'tiborini jalb qilish uchun urg'u beriladigan narsa.

To'rtinchi bosqich-bu reklama vositalari turini tanlash, ya'ni nisbatan eng ma'qulini tanlash:

Bunda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

- kanalning axborot, ko'ngilochar ma'lumot beruvchi vazifalari;
- reklama xabarning harakteri;
- kanalning texnik imkoniyatlari;
- kanalning auditoriya maqsadlariga to'g'ri kelishi;
- reklama tadbirlarini o'tkazish vaqtini tanlash;
- reklama kanalining davriyiligi.

Beshinchi bosqichda reklama xabari tuziladi, sarvlaha shakllantiriladi, ma'n tuziladi, rasmlar chiziladi, xodimlar, reklamani yetkazi beruvchilar, musiqani jurlik tanlanadi.

Oltinchi bosqichda reklama chiqishlari, reklama tadbirining jadvali tuziladi, reklama turlari, uning tarqatish vositalari bo'yicha vaqtarda muvofiqlashtiriladi.

Yetinchi bosqichda reklama tadbirlarida harajatlar smetasi tuziladi, ya'ni harajatlarning umumiy miqdori va alohida moddalar bo'yicha haridorlarning taqsimlanishi aniqlanadi.

Yakuniy sakkizinchi bosqichda dastlabki reklama samaradorligi aniqlanadi, ya'ni reklama faoliyatini natijasida tayyor mahsulotlarni sotish natijalarini belgilanadi. Reklama budgetini rejalashtirish reklamaga ajratilgan mablag'i umumiy miqdori, ularni taqsimlash, ya'ni ulardan qanday tadbirda va qanday hajmda foydalanishini doimo ko'rsatish aniqlanadi. Amaliyotda reklama harajatlarini doirasini aniqlashning turli xil usullaridan foydalaniladi. Oldingi yil harajatlaridan kelib chiqqan holda, ular maqsadlar va vazifalarni hisobga olgan holda oldingi yildagi sotish hajmida 3 % tashkil qiladi.

Yaponiya, G'arbiy Germaniya va AQSHda reklama faoliyati tovar va xizmatlar harakatida o'ziga xos bo'lgan muhim bir ahamiyat kasb etadi, bi haqda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish harajatlarini tartibi haqidagi quyidagi ma'lumotlar asosida keltirib o'tishimiz mumkin deb hisoblaymiz.

| | <i>I-jadval</i> | <i>TV</i> | <i>Radio</i> | <i>Matbuot</i> | <i>Boshqalar</i> |
|--------|-----------------|-----------|--------------|----------------|------------------|
| AQSH | 22 % | 70 % | 35 % | 36 % | |
| Kanada | 52 % | 25 % | 23 % | | |

Reklamaning qiymatini ancha katta ekanligini ushbu jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib reklama faoliyatini berilishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, AQSHda, TV-ga 30 daqiqalik reklama vaqtiga 100 ming

dollardan. Ispaniyada 50 ming dollardan iborat. Ta'kidlash kerakki, ko'pgina man'lakatlarda telereklamaga cheklashlar mavjud.

Bozor munosabatlarning rivojlanishi, jahon bozoriga chiqish reklama faoliyatining rivojlanishini talab qiladi. Hozirgi vaqtida, reklama kishilik faoliyatining barcha sohalari manfaatlariga tegishli bo'lganda iste'molchilarni reklama beruvchilardan himoya qilish kerak.

2.2. Bozor sharoitida reklamaning funksiyalari

Reklamaning asosiy funksiyalari quyidagilardir:

- *axborot beruvchi* (tovar mavjudligi haqida ma'lum qilish, tovar, korxona, ularning asosiy son va sifat jihatlari va xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish);
- *psixologik* (harid qilish paytida iste'molchilarning his-tuyg'ulari, o'z-o'ziga baho berishi va intilishlariga ta'sir etish orqali ehtiyojni vujudga keltirish va rivojlanirish);
- *rag'batlaniruvchi* (ehtiyoj borligi anglab etilgan paytda esga solish va harid qilishga qiziqish uyg'otishni amalga oshirish, muloqot o'rnatish va boshqalar).

Bundan tashqari reklama boshqa funksiyalarni ham bajaradi:

Kommunikativ funksiya—bunda reklama faoliyatini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan anketa, so'rov, fikrlar yig'ish, tovarlar ayirboshlash jarayonini tahlil qilish yordamida bozor va iste'molchilar bilan teskari muloqot o'rnatadi. Shu bilan birga reklama ikki tomonlama muloqotga yo'l qo'yaydi, chunki reklama tinglovchilari har doim ham unga javob berinaydilar.

Nazorat qiluvchi va to'g'irlovchi (axborot). Bu tovarning bozorga kirib borishini nazorat qilish, iste'molchilarning bu tovarga moyilliklari tizimini yaratish va mustahkamlash, kerak bo'lganda reklama va sotish faoliyatini tez yo'lga qo'yish.

Talabni boshqarish. Iste'molchiga yo'naltirilgan ta'sir imkoniyatidan foydalangan holda reklama nafaqat talabni shakllantirishga, balki uni

oshqarishga ko'maklashadi. Bu funksiya yordamida axborot oqimini, ste'molchilar va harid qilinayotgan tovarlarga ta'sir usullarini boshqarish numkin.

Iqtisodiy. Iste'molchilarning tovarlarni harid qilishga majbur qiladigan va avdo-sotiqlarini tezlashtirib, talabni shakllantirishga, sotishni ag'batlantirishga, kapital tovar aylanmasi tezlashuviga ko'maklashadi.

Tarhiyaviy. Odamlar reklamadan ko'p narsalar o'rganadilar, taklif qilinayotgan tovarlar haqida yangi va qiziqarli ma'lumotga ega bo'ladilar, o'z usayotlarini mukammallashtirish usullarini kashf etadilar. Reklama bu funksiyasida yangi va tatbiq etilmagan tovarlarga moslashuvni jarayonini ezlashtirish orqali sanoatdagi texnik taraqqiyot rivojlantiradi va hamma uchun usayotni yaxshilashni amalgalashadi.

Ommaviy (jamoaviy). Reklama orqali birdaniga ko'pchilik shaxslarga yo'naltirilgan va qandaydir ijodiy voqe'a-hodisa, yubiley, ogohlantirishni targ'ib etuvchi murojaat beriladi. Haridor ommaga tushunarli reklamadan rag'batlanadi.

Ta'sirchan. Bu xususiyat dizayn, chiroq texnikasi va boshqa ta'sirlar yordamida ko'zga tashlanib, reklamani ta'sirchan, ko'zga tashlanadigan va chiroyli qiladi.

Reklama funksiyalariga muvofiq reklama strategiyasi ham vujudga keladi:

1. Tarqatilgan axborot orqali taklif etilayotgan tovar haqida bilimga ega bo'lish.
2. Iste'molchini tovar xususiyatlari bilan tanishtirish orqali uning kerakligini tushuntirish.
3. Iste'molchilarda qoniqishni shakllantirish uchun tovari joylashtirish (pozitsyalash).
4. Tovar harid qilish niyatini shakllantirish.
5. Birinchi harid jarayonini osonlashtirish.

Reklama rivojlanishining 3 ta alohida yo'nalishi (mijozlarni jalb qilish, bozor faoliyatini tahlil qilish jarayonida qatnashish, tadbirkorlik faoliyatida

muvaffaqiyat qozonish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish), shuningdek, ularning kompleks ta'siri mavjud. Tovar reklamasi va firma reklamasi o'rnasidagi asosiy farq reklama murojaatining obyektidadir. Istalgan tashkilot odalda ham alohida mahsulot reklamasi, ham umumiy firma reklamasi bilan shug'ullanadi. Birinchi holatda mahsulotning noyob sifatlari ko'rsatilsa, ikkinchi holatda firmanın ma'lum tavsiflari (masalan, firma kattaligi, tuzilmasi va aloqalari)ni ko'rsatish orqali haridorlarning hamma mahsulotga bo'lgan ishonchini oqlashga harakat qilinadi.

Bozor iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatlarının rivojlanib borishi va ularni ishlab chiqarishlarini, tovarlarini, ko'rsatayotgan xizmatlarini hamda bajarayotgan vazifalarini reklama qilish katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Quyida biz tadbirkorning reklama imkoniyatlari chizmasini keltirib o'tganimiz. Unda reklama tadbiri harakteri, tarkibi va asosiy rejalashtirilayotgan maqsadlar keltirib o'tilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

| Reklama tadbiri harakteri | Tarkibi | Asosiy rejalashtirilayotgan maqsad |
|---|--|--|
| Toshkent shahar TP tomonidan tashkillashtiriladigan tadbirkor tovarlari har yillik an'anaviy qatnashish | Tadbirkor chiqaruvchi bo'yicha tayyorlash | Mahsulot reklamasi, hamkor va mijozlar qidiruvni |
| Har yillik "Tashabbus" tanlovida qatnashish | Tanlovda qatnashish uchun materiallarni tayyorlash | Tadbirkor imidjini yaratish va us'mab turish |
| O'z firma do'konida reklama shitini o'matish va o'zgartirish turish. | Tashqi reklama bezagini yaxshilash | Potensial mijozlarni jalb etish |
| Tovarlar haqida ma'lumotlarni yillik "O'zbekiston tadbirkori mahsulotlari" katalogiga joylashtirish | Tadbirkorlik faoliyati haqida maxsus reklama sahifasini tayyorlash | Mahsulot imidji, reklamasini oshirish |
| "Prestij" jurnaliga ilova qilinadigan salufada reklamani joylashtirish | Reklama e'lonlari matnini tayyorlash | Potensial hamkorlar uchun mahsulot reklamasi |

4 - chizma Tadbirkorning reklama imkoniyatlari chizmasi

boshqarishga ko'maklashadi. Bu funksiya yordamida axborot oqimini, iste'molchilar va harid qilinayotgan tovarlarga ta'sir usullarini boshqarish mumkin.

Iqtisodiy. Iste'molchilarning tovarlarni harid qilishga majbur qiladigan va savdo-sotiq jarayonini tezlashtirib, talabni shakllantirishga, sotishni rag'batlanirishga, kapital tovar aylanmasi tezlashuviga ko'maklashadi.

Tarbiyaviy. Odamlar reklamadan ko'p narsalar o'rganadilar, taklif qilinayotgan tovarlar haqida yangi va qiziqarli ma'lumotga ega bo'ladilar, o'z hayotlarini mukammallashtirish usullarini kashf etadilar. Reklama bu funksiyasida yangi va tatbiq etilmagan tovarlarga moslashuvni jarayonini tezlashtirish orqali sanoatdag'i texnik taraqqiyot rivojlantiradi va hamma uchun hayotni yaxshilashni amalga oshiradi.

Ommaviy (jamoaviy). Reklama orqali birdaniga ko'pchilik shaxslarga yo'naltirilgan va qandaydir ijodiy voqe'a-hodisa, yubiley, ogohlantirishni targ'ib etuvchi murojaat beriladi. Haridor ommaga tushunarli reklamadan rag'batlanadi.

Ta'sirchan. Bu xususiyat dizayn, chiroq texnikasi va boshqa ta'sirlar yordamida ko'zga tashlanib, reklamani ta'sirchan, ko'zga tashlanadigan va chiroyli qiladi.

Reklama funksiyalariga muvofiq reklama strategiyasi ham vujudga keladi:

1. Tarqatilgan axborot orqali taklif etilayotgan tovar haqida bilimga ega bo'lish.
2. Iste'molchini tovar xususiyatlari bilan tanishtirish orqali uning kerakligini tushuntirish.
3. Iste'molchilarda qoniqishni shakllantirish uchun tovari joylashtirish (pozitsyalash).
4. Tovar harid qilish niyatini shakllantirish.
5. Birinchi harid jarayonini osonlashtirish.

Reklama rivojlanishining 3 ta alohida yo'nalishi (mijozlarni jalg qilish, bozor faoliyatini tahlil qilish jarayonida qatnashish, tadbirkorlik faoliyatida

muvaqqiyat qozonish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish), shuningdek, ularning kompleks ta'siri mavjud. Tovar reklamasi va firma reklamasi o'rtaqidagi asosiy farq reklama murojaatining obyektiadadir. Istalgan tashkilot odadta ham alohida mahsulot reklamasi, ham umumiy firma reklamasi bilan shug'ullanadi. Birinchi holatda mahsulotning noyob sifatlari ko'rsatilsa, ikkinchi holatda firmanın ma'lum tavsiyaları (masalan, firma kattaligi, tuzilmasi va aloqalari)ni ko'rsatish orqali haridorlarning hamma mahsulotga bo'lgan ishonchini oqlashga harakat qilinadi.

Bozor iqlisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatlarining rivojlanib borishi va ularni ishlab chiqarishlarini, tovarlarini, ko'rsatayotgan xizmatlarini hamda bajarayotgan vazifalarini reklama qilish katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Quyida biz tadbirkorning reklama imkoniyatlari chizmasini keltirib o'tganmiz. Unda reklama tadbiri harakteri, tarkibi va asosiy rejalashtirilayotgan maqsadlar keltirib o'tilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

| Reklama tadbiri harakteri | Tarkibi | Asosiy rejalashtirilayotgan maqsad |
|--|--|---|
| Toshkent shahar TP tomonidan tashkillashtiriladigan tadbirkor tovarlari har yillik an'anaviy qatnashish | Tadbirkor chiqaruvchi bo'yicha tayyorlash | ishlab tovar stend Mahsulot reklamasi, hamkor va mijozlar qidiruvni |
| Har yillik "Tashabbus" tanlovida qatnashish | Tanlovida qatnashish uchun materiallarni tayyorlash | Tadbirkor imidjini yaratish va ushlab turish |
| O'z firma do'konida reklama shitini o'matish va o'zgartirish turish. | Tashqi reklama bezagini vaxshilash | Potensial mijozlarni jalb etish |
| Iovarlar haqida ma'lumotlarni yillik "O'zbekiston tadbirkori mahsulotlari" katalogiga joylashtirish | Tadbirkorlik faoliyati haqida maxsus reklama sahifasini tayyorlash | Mahsulot imidi, reklamasini oshirish |
| "restuj" jurnaliga ilova qilinadigan sahifada reklamani joylashtirish | Reklama e'lonlari matnnini tayyorlash | Potensial hamkorlar uchun mahsulot reklamasi |

4 - chizma Tadbirkorning reklama imkoniyatlari chizmasi

Savdoda turli xildagi reklama vositalari mavjud bo'lib, ularning faoliyati, aholiga, mavjud xalq iste'moli tovarlari to'g'risida ma'lumotlarni o'z vaqtida samarali, maqsadga muvofiq ravishda yetkazib berishga qaratilgandir.

Hozirgi paytda respublikamizda reklama vositalarining turlari keskin ko'payib bormoqda. Ularning iste'molchilarga yetkazib berayotgan ma'lumotlarning sisati, ta'sirchanligi, jiddiyligi, sodda va oddiyligi, tushunarligi bilan jahon reklama standartlari talabi darajasiga yetib borayotganligi muhim ijobjiy yutuqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Bevosita savdo-sotiq jarayonining ma'lum bir bosqichlarida, ayniqsa haridorming o'zi sotayotgan tovarni afzal ko'rishiga erishish va uni sotib olishga undash kerak bo'lganda eng samarali kommunikatsiya vositasidir. Shuning uchun, soddarоq vazifalar kommunikatsiyaning arzonroq texnik vositalari orqali uzatilgan sari, savdo xodimlarining strategik marketingdagi roli ko'chayib boradi.

Savdo sohasida reklamani amalga oshirish jarayonida savdo xodimlarining maqsad va vazifalari-shaxsiy muloqot strategiyasini ishlab chiqish eng avval firmaning marketing strategiyasini amalga oshirishda savdo xodimi o'ynaydigan rolni belgilab olishni talab qiladi. Buning uchun firma har bir tovar bozorida o'z mijozlari bilan o'rnatmoqchi bo'lgan aloqa harakterini aniqlab olish kerak.

Reklama faoliyatida savdo xodimining tipik vazifalarini uch yo'nalish bo'yicha guruhash mumkin:

- savdo qilish, shu jumladan potensial mijozlarni aniqlash, ularning chtiyojlarini o'rganish, sotish sharoitlarini muhokama qilish va bitim tuzish;
- mijozlarga xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan tovardan foydalanishda yordam ko'rsatish, hariddan keyingi xizmat ko'rsatish, tovarni ilgari surish va boshqalar;
- firma uchun ehtiyojlarning o'zgarishi, raqobashilarning faolligi, tovarlarning moslashuvi haqida axborot to'plash.

Shunday qilib, savdo xodimi faqat firmaning tijoriy organi emas, balki

uning marketing axboroti tizimidagi muhim element hamdir.

Reklamada savdo xodimlarining quyidagicha turlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- asosiy vazifasi tovari jismoniy yetkazib berish bo'lgan, yetkazib berish bo'yicha vakil;

- sotish hududida faoliyat ko'rsatuvchi, buyurtmalarni qabul qiluvchi va undan tashqari, ayniqsa yirik do'konlarda mijozga maslahashi bo'lishi mumkin bo'lgan sotuvchi.

- buyurtmalar qabul qilish va tovarlarning uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida ulgurji va chakana sotuvchilar bilan uchrashib turuvchi sayyor vakil;

- savdoni rag'batlantirish bo'yicha vakil: u reklama va reklama tadbirlarini bevosita savdo shoxobchasining o'zida tashkil qiladi;

- tijoriy targ'iboshi: u buyurtmalarni qabul qilmaydi, faqat yangi tovarlar haqida, ayniqsa tibbiyot sohasidagi yangi tovarlar haqida axborot beradi

- texnik jihatdan chuqur bilimga ega bo'lgan hamda mijozga uning muammolarini hal qilishda o'z maslahatlari bilan yordam bera oluvchi savdolar bo'yicha injener, IBM firmasining savdolar bo'yicha injeneri aynan shunday ishlaydilar;

- avtomobillar, maishiy elektr asboblari, ensiklopediyalar, sug'urta polislari kabi tovarlarni sotish bilan shug'ullanuvchi kommovoyajer, bunda ijodiy qobiliyatlar va kommunikasiya strategiyalari muhim rol o'ynaydi;

- murakkab loyihalar bo'yicha shartnoma tuzuvchi, u texnik va moliyaviy bilimlardan tashqari muzokaralar olib borish iste'dodiga ham ega bo'lishi kerak.⁹

Umuman aytganda, savdo xodimning asosiy vazifasi, avvalgidek, tovarning o'z talablariga mos kelishi masalalari bo'yicha ikkiyoqlama aloqadan yaxshi xabardor bo'lgan haridorning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liqdir. Firma

⁹ Гарифов Г.Л., Тарасевич В.М., Ани Н. Маркетинг – 3-изд. – М.: Питер, 2005.

uchun esa, savdo xodimining yangi vazifasi fermaning bozordagi o'zgarishlarga moslashuvini tezlashtiruvchi ma'lumotlarni to'plashdan iboratdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir tashkilot, firma o'z bozori va haridori ko'lamini saqlash, ular salmog'ini oshirish, yangi ehtiyojni qondirish uchun doimiy tarzda marketing tadqiqotlarini amalga oshirmog'i lozim.

Albatta, har bir marketing tadqiqoti tegishli sarf harajatlarni talab etadi. Asosan yirik firmalar o'z tarkibiy tuzilmalari, shu'ba tashkilotlari miqiyosida marketing tadqiqotlarini o'tkazadilar. Lekin barcha sohalar bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazishga imkoniyat va muayyan zaruratlar doimiy bo'limganligi hamda xodimlarni butun yil davomida ishda band qilib turish qimmatga tushishi sababli, ayrim muammolarni ixtisoslashgan marketing markazlariga, institutlariga topshiradilar va davriy tarzda axborot olib turadilar.

AQSHda eng yirik va mashhur firmalar o'z markteting tadqiqotlarini asosan besh sohada amalga oshiradilar:

1. Reklamani tashkil etishga oid tadqiqotlar.
2. Strategik rejalahtirish va tashkilot siyosatiga oid tadqiqotlar.
3. Tashkilot ichki va tashqi mas'uliyatini baholashga oid tadqiqotlar.
4. Bozordagi holat tahlili.
5. Sotish va bozor imkoniyatlariga oid tadqiqotlar.

2.5. Jamoashilik bilan munosabatlar (Public Relations)ning mohiyati

Public Relations-tashkilotlar va maqsadli bozor o'rtaсидаги kommunikatsiyalarni yaratishdir.

Jamoashilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislar shaxs yoki muassasa va jamoashilik orasidagi to'g'ri o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishadi. Korporativ PRning asosiy maqsadi maqsadli bozorlarda kompaniyaning ijobjiy imidjini shakllantirish va joriy axborot ko'magini ta'minlashdir. Korporativ PR turli xil maqsadli guruqlar bilan (biznes doiralari vakillari, ommaviy axborot

vositlari mutaxassislari, reklama beruvchilar, mijozlar guruhlari o'z mutaxassislari va boshqalar) jamoashilik aloqalarini yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlashdan iboratdir, PR bo'yicha ishlar ikki yo'nalishda olib boriladi: ichki va tashqi PR(Public Relatoins).

Ichki PR kompaniya xodimlarida «Korporativ ruh»ni shakllantirishga yu'altirilgan bo'ladi, imidj va simvolikani ishlab chiqishni kuzda tutadi, firma xodimlari ichki omumiy axborot vositlari amal qilishini kuzda tutadi, korporativ va ijtimoiy madaniy hayotdag'i muhim voqealarga bag'ishlangan chora-tadbirlarni o'tkazishni ko'zda tutadi.

Tashqi PRda kompaniyaning ijobiy obrazini mamlakat reklama bozorida shakllantirish hamda kompaniyani dinamik tarzda xalqaro imidjini yaratish hisoblanadi.

PR chora-tadbirlarining vazifasi firmanınraqobatbardoshligini oshirish maqsadida tovar yoki xiznatlar firmanın o'zini, shaxsi, modani, ideologiyani va boshqalarni boshqariladigan imidjini (obrazini obru-e'tiborini) shakllantirishdir.

PRning 5 ta asosiy maqsadi mavjuddir:

1. PR obyektini pozisiyalashtirish.
2. Imidjini yuksaltirish (yoki obro'-e'tiborini boshqarish).
3. Antireklama (imidjini kamaytirishga yoki «qora PR»).
4. Raqobashilarни qayta ko'urish.
5. Kontr reklama (tasodifan kamaytirilgan imidjini tiklash).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida marketing tadqiqotlaridan rag'batlantiruvchi omillarning iste'molchi «qora qutisi»da qanday xatti-harakatga aylanishi o'r ganiladi. Qora quti ikki qismdan iborat:

- iste'molchi va rag'batlantirish omiliga ega bo'lish;

- iste'molchining mahsulot harid qilish haqidagi qarori uning xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'ladi.

Iste'molchi xatti-harakatining o'sib borish jarayoni beshta bosqichdan iborat:

1. Ehtiyojni aniqlash.
2. Ma'lumot izlash.
3. Muqobil mahsulot turlarini baholash.
4. Harid.
5. Harid natijasi.

Iste'molchini o'rganish «SOS»konsepsiyasiga, bu konsepsiya quyidagi elementlardan tashkil topgan:

- bozor ishtirokchilari (bozorda haridni kim amalga oshiradi? (occupants));
- bozor predmetlari (bozorda qanday mahsulotlar va predmetlar sotiladi va sotib olinadi, qanday qondirilmagan ehtiyojlar mavjud (objects));
- bozor ishtirokchilari o'z oldiga qo'ygan maqsadi (nima uchun ular harid qiladi (organizations));
- bozorda ishtirok etadigan tashkilotlar (bozorda iste'molchi bilan birgalikda kim harakat qiladi));
- bozorda operatsion jarayonlar (harid qanday amalga oshadi (operations));
- harid imkoniyatlari (harid qachon amalga oshadi (occasions));
- sotish kanallari (harid qayyerda amalga oshadi (outlets)).

Bir qancha tadqiqoshilarning fikricha, iste'molchi xatti-harakati, xulq-atvorini o'rganishning uslibiyot asosi umummilliy, analitik-bashoratlash usul va uslublaridan tashkil topadi.

Bu usullardan tashqari motivlarni tadqiq etish bevosita savol bermasdan turib, shu tipdag'i qiziqtiргan savollarga ma'lumot olishdek xos san'at hisoblanadi. Shu maqsadlar uchun bilvosita yo'llar bilan axborot olishda nozik usullar majmuasidan foydalilaniladi. Teran surov, proeksiyon shakllar xuddi shunday usullarga kiradi.

Proeksiyon shakllar usulining maqsadi shaxsning ma'naviy olamiga kirib borish, tadqiq etiluvchi shaxslarning munolsabatlari, harakatlari motivlarini

o'rganishdir. Bu shaxslarning boshqa insonlar va boshqa holatlar haqidagi mulohazalari yoki yozma fikrlari asosida ularning ma'naviy olamiga kirib boriladi. Shaxs proeksiyasi boshqa kishilarni, atrofdagi insonlarni, voqealarni baholashda so'rovga javob beruvchilar (respondentlar) o'zlarining ayrim xislat-xususiyatlarini, kayfiyatlariga ham nisbat berdilar, degan qarashga asoslanadi. Masalan, gapni to'ldirish testi, so'zlar majmuasi testi, fikrlar kompleksi va hokazolar.

Qisqacha xulosalar

Bozor sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish va uni yanada chuqurlashtirish va globallashuv sharoitida reklama faoliyatini tashkil etishda reklamaning ahamiyati katta hisoblanadi. Reklama faoliyatini tashkil etish jarayonida reklamani elementlari hamda jamoat bilan ishlash, jamoat fikrini o'rganish katta ahamiyat kash etadi. Public Relations-tashkilotlar va maqsadli bozor o'rtaсидаги kommunikatsiyalarni yaratishdir.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. PR (Rablik Releyhnz)ning mohiyatini ochib bering.
2. Bozor sharoitida reklamalar va ularning ahamiyati.
3. Reklamalarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Savdo va ishlab chiqarish reklamalari.
5. Reklama faoliyatining elementlari.
6. Reklama vositalari.
7. Reklama klassifikatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari.
8. Reklama vositalari va ularni ahamiyati.
9. Reklama faoliyatini tashkil etuvchi ichki va tashqi omillar.
10. Bozor sharoitida reklamani tashkil etish usullarini ko'rsatib bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyolar

1. Забин Д., Бребах Г. Прицельный маркетинг. Новые правила привлечения и удержания клиентов/ пер. с англ. Прал. Тит. Англ. – М.: Изд-во Эксмо, 2006. - 304с
2. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: Учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.
3. Мудров А.Н. Основы рекламы: учебник / А.Н. Мудров. – М.: Экономист, 2005. – 319 с.
4. Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учебное пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.-414 с.

www.dis.ru.

www.bci-marketing.aha.ru

www.marketing.al.ru/index_0007.shtml

www.marketing.uef.ru/students-news.php

3-hob. REKLAMA VOSITALARI VA TURLARI

3.1. Reklama vositalari

Reklama vositalarining xususiyatlari va belgilariga ko'ra klassifikatsiyalarga bo'linadi. Savdoda qo'llanilayotgan reklama vositalari xususiyatlari va belgilariga ko'ra quyidagi klassifikatsiyalarga bo'linadi:

- tayinlanish belgisiga ko'ra;
- joylashgan o'rniغا ko'ra;
- qo'llanilish usuliga ko'ra;
- texnik vositalarni qo'llanilish harakteriga ko'ra.

Savdo reklama vositalarining *tayinlanish belgisiga ko'ra* ma'lum bir iste'molchi guruhi doirasiga tayinlangan, belgilangan bo'ladi. Bu iste'molchilar guruhi doirasiga:

| | |
|----------------------------|----------------------------|
| - katta yoshdagи kishilar; | - erkaklar; |
| - yoshlar; | - ayollar; |
| - o'smirlar; | - sportsmenlar; |
| - kichik yoshdagи bolalar | - ulgurji sotib oluvchilar |

Joylashgan o'rniغا ko'ra reklama vositalari *ichki* va *tashqi vositalarga* bo'linadi.

Ichki reklama vositalari- asosan savdo tashkilotlari va korxonalarini tizimi ichida qo'llaniladi.

Tashqi reklama vositalari esa chakana va ulgurji savdo tashkilotlari va korxonalarini tizimidan mustasno, ularga to'g'ridan-to'g'ri tegishli bo'lmaydi. Ushbu reklama vositalari o'z navbatida chakana va ulgurji savdo tashkilotlari, korxonalarini tizimi iste'molchilar, shuningdek, jami aholi massasi uchun ularning e'tiboriga havola etiladi.

Reklama vositalarining *qo'llanilish usuli* va *texnik vositalarning harakteriga ko'ra* quyidagi turlarga bo'linadi:

- vitrina-ko'rgazma reklamalari;

- bosma reklamlari;
- plakat-grafika reklamalari;
- kino reklamalari;
- radio -televizion reklamalari;
- yoritish reklamalari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklama faoliyatini tashkil etish va uni amalga oshirish uchun axborot juda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlar olish manbalari xususida fikr yuritganda faqatgina tegishli mamlakatda chop etiladigan axborotlarnigina emas, balki xorijiy matbuot, xalqaro iqtisodiy-moliyaviy tashkilotlarning axborotlarini ham inobatga olinoq lozim. Masalan, AQSHda nashr etiladigan «Forchun», «Forbs» kabi jurnallarda Yevropa malakatlari bozori xususida reklama va axborotlar, undagi o'zgarishlar, siljishlar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Germanianing jahonga mashhur bo'lgan «Xandelsblat», «Virtshaftsvoxe» iqtisodiy gazetalari Amerika kompaniyalar faoliyati to'g'risida hamda ularni qiziqtirayotgan bozorlar xususida ma'lumotlarni chop etadi. Bu esa o'z navbatida, barcha qiziquvchi va tegishli bozorga ishtiyoyqmand kompaniyalar uchun axborot manbai bo'lib hisoblanadi.¹⁰

Jahon iqtisodiyoti yanada shakllanayotgan va xalqaro munosabatlar takomillashayotgan sharoitda xalqaro iqtisodiy, moliyaviy tashkilotlar: Xalqaro savdo tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro rivojlanish va rekonstruksiya banki va shu kabilar o'zlarining yillik hisobotlarini nashr qiladilar. Bunday ma'lumotlardan xalqaro bozorda faoliyat boshlayotgan va yuritayotgan kompaniyalar foydalanishlari mumkin.

Kompyuterlar uchun ma'lumotlar banki ham hozirda mustaqil bozor sifatida ildam rivojlaninoqda. Hozirgi kunga kelib, dunyoda 6000 dan ziyod ma'lumotlar bankining turlari yaratilgan bo'lib, so'nggi yil davomida u qariyb 2 marotabaga ortdi. «Informatsion-broker» tizimini marketing xususida barcha

¹⁰ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности. Учебное пособие для вузов. М: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

axborotlarni yig'ish, kompyuter ma'lumotlari bankiga kiritish va unga ehtiyoj sezgan tashkilotlarga yordam ko'rsatish vazifasini bajaradi. Ushbu bankni varatish, kompyuter dasturlariga kiritish bo'yicha ixtisoslashgan. Odatda ular kichik tashkilotlar, shaxslar uyushmasi bilan muntazam aloqada bo'lib, kompyuter dasturlarining imkoniyatlarini oshirish, ko'plab iste'molchi tashkilotlar uchun qo'laylik yaratishga qaratilgandir.

Bizning mamlakatimizda axborot yig'ish manbalari bir muncha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatning mavjudligi eng avvalo, reklama faoliyatini tashkil etish bo'yicha axborot olish manbalari va ushbu soha bo'yicha mutasaddi tashkilotlarning tashkiliy bo'ysinish xususiyatlaridan kelib chiqadi. O'zgacha jihatdan esa, omnaviy tadbirkorlikning rivojlanish darjasи, korxonalar, uyushmalar, savdo va sanoat palatalari reklama faoliyatini tashkil etish xususida ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha faoliyatlarning hozirgi holati, ularni guruhlarga ajratishda alohida yondoshishni talab qiladi.

Bozor munosabatlarining izchil rivojlanish sharoitida reklama faoliyatiga taalluqli axborot va ma'lumotlarga bo'lgan talab yanada orta bormoqda. Reklama faoliyatini tashkil etishda marketing axborotiga bo'lgan talabning orta borish jarayoni uni ta'minlashda ishtirok etuvchi muassasalar, tashkilotlar, tadqiqot guruhlari faoliyatining tubdan qayta qurish sharoitida amalga oshirilmоqda.

Reklama faoliyatini tashkil etish uchun bozorda marketing tadqiqoti muammosi va maqsadlarini aniqlash yalpi tadqiqotda eng muhim va mas'uliyatli bosqich hisoblanadi. Ko'pgina hollarda tadqiqot maqsadi uni vujudga keltirgan muammo bilan bir xil deb qaraladi. Aslida esa, mavjud muammoni hal etish qanday maqsadga erishish imkonini beradi, deb qaralishi lozim. Muammoni aniq belgilash, bu tadqiqotni to'g'ri tashkil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoning mantiqan to'g'ri, sodda va maqsad sari yo'naltirilganligiga alohida etibor bermoq lozim. Aks holda, noto'g'ri ifodalangan muammo

tadqiqotini tayinli maqsad sari yo'naltirilmaslikka, yuqori ortiqcha harajatlarga olib keladi.

3.2. Reklama vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Ishlab chiqarish va chakana savdoda reklama vositalari quyidagi belgilariga qarab klassifikatsiyalanadi:

1. Qo'llaniladagan joyiga ko'ra;
2. Belgilangan maqsadiga ko'ra;
3. Texnik vositalarini qo'llanilishi va foydalanish usuliga ko'ra.
 1. Qo'llanilish joyiga qarab, reklama vositalari do'konga kirgan haridorlarga mo'ljallangan, do'kon ichidagi reklamaga hamda butun aholiga mo'ljallangan, do'kon tashqarisidagi reklamatlarga bo'linadi.
 2. Reklama vositalari o'z maqsadiga ko'ra aholining ma'lum bir kategoriyasi va gunuhlariga (muktab o'quvchilari va ularning ota-onalariga, parhez taomga muhtojlarga) mo'ljallangan bo'lishi mumkin.
 3. Texnika vositalarini qo'llash va ulardan foydalanish usullariga ko'ra reklama quyidagi turlarga bo'linadi:
 - a) deraza va do'kon ichkarisidagi vitrina reklamalari, do'kon va boshqa jamoat joylaridagi tovar ko'rgazmalari;
 - b) tasviriy, fotografik, yoritiladagan reklamalar (do'konlardagi osma reklama yozuvlari, plakatlar, preyskuranltlar, transporantlar, afishalar);
 - v) bosma reklamalar, kataloglar, prospektlar, gazeta va jurnallardagi e'lonlar;
 - g) namoyish reklamalari (mahsulotlar degustatsiyasi, kiyimlarning yangi modellarini namoyish qilish va boshqalar);
 - d) kino-televideniye va diapozitiv reklamalar;
 - e) ovozli reklamalar.

Hozirgi paytda mustaqil ravishda reklama faoliyatini tashkil etish va yangi axborot manbai bo'lib elektron ma'lumot banklari, «informatsion-broker» tarzidagi kompyuter vositasida yetkaziladigan ma'lumotlar tizimi shakllanmoqda. Bu ma'lumotlar kompyuterlar vositasida uzatilayotgan, to'planayotgan va saqlanayotganligi uchun yangi tur deb sanaladi va yuqoridagilaridan farq qiladi. Ushbu ma'lumotlar orqali reklama faoliyatini tashkil etish niyatida bo'lgan har bir tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlar o'zlarining amaliyotlarida qo'llashlari mumkin.

3.3. Reklama turlari va ularning tavsifi

Asosiy reklama vositalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: bosma reklama, televizion reklama, radio reklama, kino reklama, tashqi reklama, tovarlarni sotish joyidagi reklama, buyumlar reklamasi, tovarlarni jihxozlash reklamasi, obro'li reklama.

Reklama vositalarini tanlash ko'p omillarga bog'liq bo'lib, bular quyidagilardir:

- reklama qilinadigan tovarning harakteri, uning mazmuni;
- bozor hajmining katta yoki kichikligi reklamaning maqsadi, reklama kompaniyasining masshtabi, bozor talabining xususiyati, tayyorlanayotgan reklama vositalarining texnik imkoniyati va boshqalar.

Hozirgi vaqtda bosma reklamalarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- reklama e'lonlari;
- maxsus reklama nashrлari;
- ko'p nushali bosma reklama;
- sanoat bosma reklamasi.

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda reklamaning eng keng tarqalgan vositasi bo'lib, bosma reklama hisoblanadi. Bu reklamaga iqtisodi rivojlangan mamlakatlardagi jami reklama harajatlarining 40-60 % to'g'ri keladi. Bu

reklama vositasining qulayligi, keng o'quvchilar ommasini qamrab olishi bilan harakterlanadi.

Bosma reklama vositasi sifatida gazeta, jurnal, (spravochnik) ma'lumotnomalardan foydalilanildi. Bosma reklama gazeta va jurnallarda e'lon yoki maqola sifatida joylashtiriladi.

Reklama e'lonlari 2 ko'rinishda bo'ladi: tasnilli (klassifikatsion) va tijoriy reklamalar.

Tasnilli reklama-bu qisqa xabarlardan iborat bo'lib, arzon ta'riflar bo'yicha reklama harajatlari to'lanadi, ko'pincha ular gazetalarning doimiy sahifalariga yoki joy tanlamasdan gazeta sahifalarining xohlagan joyiga joylashtirish mumkin. Bunday e'lonlarga yarmarka va ko'rgazmalarning ochilishi, do'konga tovarlarning kelib tushishi va shunga o'xshash e'lonlar beriladi.

Tijoriy reklamada esa kengroq ma'lumot beriladi. Bozorda vujudga kelayotgan o'zgarishlami o'z vaqtida sezaga bilish, muayyan davr mobaynida haridorlar xulq-atvorini, mijozlar xatti-harakatini, raqobashilar taktikasini o'rganish korxona va tashkilotlarning marketing faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kash etadi. Bu xususda axborotni to'liq olish, qayta ishlash va undan qaror qabul qilish bosqichida unumli foydalanish imkoniyatlari bir munkha chegaralangan bo'ladi. Chunki, bozorda ro'y berayotgan o'zgarishlarning jadalligi, o'zero bog'liqligi va ta'sirchanligi yuqoridir.

Shu sababdan, o'rganilayotgan jarayon yoki obyekt xususida zudlik bilan axborot olish, uning imkonini boricha to'laligini, ishonchlilikini ta'minlash talab etiladi, bunday tarzda axborot olish uslubi bo'lib-kuzatish uslubi hisoblanadi.

Kuzatish asosida o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonga xos bo'lgan axborotni yoppasiga yoki tanlama shaklda olish mumkin. Yoppasiga kuzatish muayyan majmuining barcha birliklarini tadqiq qilish asosida amalga oshiriladi. Bunday kuzatish odatda ko'p vaqt mablag' talab qiladi va uning natijalari tarmoqlararo ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladi. Masalan, aholini ro'yxatga olish, tegishli hududdagi sanoat va savdo korxonalarini ro'yxatga

olish va buning natijasida reklama faoliyatini qanday tashkil etish mumkinligi to'g'risida faoliyat olib boriladi.

Tanlanma kuzatish esa marketing tadqiqotlarida ko'proq qo'llaniladigan uslub hisoblanadi. U yoppasiga kuzatishdan bir necha xususiyatlariga ko'ra farqlanadi va yetarlicha afzalliklariga ega. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, tanlama kuzatishda yig'iladigan ma'lumotlar tez fursatlarda amalga oshiriladi. Bu esa bozor xususida tezkor axborot yig'ish va qaror qabul qilish jarayoni uchun o'ta muhimdir.

Ikkinchidan, tanlama kuzatish yo'li bilan olinadigan axborot majmuining ko'p qirralarini va xususiyatlarini atroficha o'rganish imkonini beradi. Natijada majmua xususidagi axborotni to'liqroq tarzda qayta ishlash, undan unumli foydalanish mumkin bo'ladi.

Uchinchidan tanlama kuzatishda ro'yxatga olinuvchilar miqdori nisbatan kam bo'lganligi sababli, tadqiqot obyektini (yoki muloqotdagi auditoriyani) tayyorlash, u bilan mustahkam aloqa va qayta aloqa o'rnatish imkonini bir muncha yuqori bo'ladi, bu xususiyat esa kuzatishda «yanglishishlar» ehtimolini kamaytirishga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, majmua miqyosida kuzatish o'tkazish ko'plab xodimlarni jalg qilish va harajatlarning ortib borishiga olib kelsa, tanlama kuzatishda tadqiqot nisbatan arzon tashkil etiladi.

Lekin tanlama kuzatishni amalga oshirish dastavval muayyan qoidalarga va ketma-ketlikka amal qilishni talab etadi. Bu birinchi navbatda kuzatish uchun aniqlanadigan tanlovning miqdoriy va sifat jihatdan vakilligi bilan bog'liq. Kuzatish uchun majmuuning tayinli miqdorini ajratish tanlovning miqdoriy vakilligi deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, majmuuning ko'lami haqida yetarli darajada asoslangan fikr yuritish uchun zarur bo'lgan miqdor birligiga tanlovning miqdoriy vakilligi deb ataladi. Sifat jihatdan vakillik deganda majmuani tashkil qiluvchi elementlarning (guruahlarning) tanlama kuzatishdagi ishtirokini belgilovchi miqdoriy birliklari tushuniladi.

3.4. Vitrina-ko'rgazma reklamalari

Vitrina-ko'rgazma reklamalari-savdo reklama vositalari ichida eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Vitrina-bu savdo tarmog'idagi do'konning yuzi hisoblanadi. Vitrinaning asosiy vazifasi, savdo zalida mavjud bo'lgan, sotish uchun mo'ljallangan tovarlar assortimentini iste'molchilarga yaqindan tanishtirish, yangi hamda hali aholiga yaxshi tanish bo'limgan yoki ma'lum bo'limgan tovarlarni keng targ'ibot qilish, shuningdek, aholiga yaqinlashib kelayotgan ma'lum bir mavsumga mos mollarni o'z vaqtida sotib olish zarurliligini eslatib turishdan iboratdir. Vitrina-oyna reklamasi, yangi-tovarni hozirgi zamon modasi yo'nalishiga muvosiqligini namoyish qilish orqali, aholini estetik saviyasini oshirishda va uni tarbiyalashda muhim rol o'yaydi. Shu bilan jami iste'molchilar uchun ularning e'tiboriga havola etiladi.

Shu bilan birga, yaxshi, go'zal, ixcham qilib bezatilgan vitrina-oyna ko'rgazmalari, shahar ko'chalarining ko'rki va bezagidir. Bundan tashqari, vitrina-oyna ko'rgazmalari, o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan xalq iste'mol mollarini keng omma o'rtasida doimiy ravishda targ'ibot qilishda va namoyish etishda siyosiy-tarbiyaviy vazifani bajarishda ham muhim rol o'yaydi.

Vitrina-oyna reklamalarini hozirgi davrda bezatish, joylashtirish borasida ularga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat.

Vitrina ekspozitsiyalari ko'cha yuzidan yaxshi ko'zga tashlanadi, shuning uchun u aniq, tushunarli ravishda ham tashqaridan, ham savdo zalidan ko'rindigan qilib joylashtirilgan bo'lishi kerak. Vitrinada faqat sotuvda mavjud bo'lgan, sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qo'yilishi, sotuvda vaqtinchá bo'limgan yoki sotib bo'lingan tovarlar namunalari vitrinadan olib tashlanishi zarur. Vitrinada, namoyish qilinayotgan tovarlar namunalariga, aniq va to'liq qilib yozilgan baho yorliqlarini bo'lishi lozim.

Vitrina ekspozitsiyalarini oyida ikki marta doimiy ravishda almashtirib turish kerak. Iste'molchilarни vitrinada ko'rgazma etilayotgan tovarlarning xususiyatlari, qo'llanilish usullari va yo'llari bilan, hamda boshqa ayrim asosiy belgilar bilan yanada yaqindan tanishtirish, haridorlar qiziqishini oshirish maqsadida, qo'shimcha ravishda mazkur ma'lumotlar yozilgan maxsus e'lonlar yoki plakatlarni tavsiya etish kerak.

Vitrina, o'ziga xos tovar xususiyatiga mos ravishda original bezakka ega bo'lishi zarur. Ushbu bezak tovarlarga berilayotgan rang-barang yorug'liklarni ta'sirchanligi, plakatlarni haridorlar e'tiborini jalb etuvchanligi, jozibadorligi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turishi kerak.

Vitrinada, faqat natura-donabay tovarlarning namunalari yoki ulaming qadog'i, pachkasi va korobkalarini qo'yish zarur. Vitrinalarning to'g'ri, maqsadga muvofiq ravishda bezatish ma'lum darajada vitirinaga qo'yilayotgan korobkalarning konstruksiyasiga, tuzilishiga bog'liq bo'lib, u vitrina fasadi chizig'idan tashqariga burtib chiqarilgan yoki do'kon savdo zali ichiga tomon yo'naltirilgan holda joylashtirilgan bo'ladi.

Vitrina ko'rgazma maydonlarining hajmi, ko'rgazma uchun tavsiya etilayotgan mollarning assortimentiga, xususiyatiga va boshqa belgilariga ko'ra quyidagi maydon hajmi tiplariga bo'linadi:

- nooziq-ovqat mollari joylashtirilayotgan vitrina maydonining hajmi, ko'rgazmaga tavsiya etilayotgan tovarlar assortimentiga bog'liq holda va unga mos ravishda 1 metrdan 2 metrgacha;
- yirik savdo tarmoqlarida; masalan, universamllarda, savdo markazlarida, "Hamma narsa ayollar uchun", "Hamma narsa erkaklar uchun" va boshqa tipdagi do'konlar uchun - 3 metr va undan ortiq;
- kichik hajmdagi tovarlar: galantereya, suvenirlar, yuviler mollari va boshqalar uchun - 80 sm. dan 1 metrgacha;
- oyna vitrinalari maydonining balandligi binoning asosiy bo'yidan hisoblaganda - 0,8 metrdan 1,2 metrgacha bo'lishlikni tavsiya etiladi.

Vitrina maydonlarining bo'yи va eni bo'yicha optimal o'lchamlarni tanlash, vitrina kurgazmalarini umumiy obzorli tasviriy ko'rinishini ko'rkamlashtiradi va bu orqali potensial haridorlar qiziqishini keskin ortirishga sabab bo'ladi.

Vitrina korobkalarini bezatishda maxsus o'rash materiallari sisatida taxta panellar, organik oynalar, qatlamlı plastiklar, oynalar, glazurli plitkalar va boshqalar qo'llaniladi. Tovarlarni namoyish qilishda esa, turli xildagi manekenlar, katta maxsus tayyorlangan byustlar, simdan tayyorlangan yengil konstruksiyalar, shisha va plastik tag qo'yilmalari shuningdek, armaturalar, reykalar, kapronli iplar ishlataladi, sujetli vitrinalarni bezatishda esa-dekorativ materiallardan, daraxt shohlari, barglari, tabiiy gul bo'laklaridan keng foydalaniadi.

Haridorlarni tovarlardan o'z e'tiborlarini olib qochmasliklari uchun, joylashtirilgan vitrina jihozlari maxsus neytral ranglarda bo'yaladi.

Oynali vitrinalar, mos ravishda tayyorlangan maxsus shishadan iborat bo'ladi. Yorug'lik ta'sirini kamaytirish, shishani tasviriy jilosini oshirish maqsadida, vitrinalar 15 gradusli burchak qiyaligida vitrina qutisiga joylashtiriladi. Oyna vitrinasining ramasini yasashda aluminiy qo'yilmasidan foydalaniadi. Bu o'z navbatida, uning mustahkamligini oshiradi va asosiy detallarni kesishish bo'linmalarini kamaytiradi. Vitrinalarni to'g'ri, aniq qilib yoritish, namoyish qilinayotgan tovarlarni tuzilishini, formalarini va ranglarini iste'molchilarga tushunarli qilib yetkazib, aholi e'tiborini jalb qilishda muhim o'rin tutadi. Vitrinalarni yoritish, ularni hozirgi zamon yo'nalishida davr talabiga javob berishi, avvalam bor, ta'sir ettirilayotgan yorug'liklarni ochiqligiga, bir tekisda yorug'liklarni tovarlar bo'yicha tarqatilishiga, yoritilayotgan jihozlarni tez-tez mos ravishda almashtirib turishligiga uзвиy ravishda bog'liqdir.

Vitrinalarni yoritish uchun jihozlarni tanlashda, iste'mol qilinayotgan elektr-energiya sonini e'tiborga olish zarur. Vitrinalarni yoritish turli usullarda: *bir tekisda tarqatiluvchi, yo'naltirilgan va kombinatsiyalashtirilgan* bo'ladi.

Vitrinalarni yoritish normasi, savdo korxonasining ixtisoslashganligiga va joylashgan joyiga bog'liq bo'lib, vitrina shishasining 1 kvadrat metr sathini yoritish uchun zarur bo'ladiidan lanpaning quvvati (Vt) hajmida ifodalanadi. Tovarlarni namoyish qilish uchun qo'llaniladigan texnik vositalarning turlariga bog'liq bo'lgan holda, vitrinalar *dinamik harakatlanuvchi, qo'zg'almaydigan va ovoz tarqatuvchi turlarga bo'linadi*.

Dinamik harakatlanuvchi vitrinalar qo'yilgan jihozlarda o'rnatilgan tovarlarning asosiy qismi doimiy ravishda aylanib, harakatlanib turuvchi bo'ladi.

Qo'zg'almaydigan vitrinalarga tovarlarni ko'rsatish, namoyish qilish uchun qo'llaniladigan maxsus moslama va jihozlar ishlatalidi.

Ovoz tarqatuvchi vitrinalarga, turli xildagi qurilma va moslamalar kiradi, ular tanlab olingan tovarlarni namoyish qilishda turli sujetlar hamda matnli mavzular orqali ifodalab berishdan iborat bo'ladi.

Vitrinalar tovarlarni reklama qilish harakteriga ko'ra qo'llanish joyiga, bezatilish xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhi larga bo'linadi:

- namoyish qilish harakteriga ko'ra;
- bezatish xususiyatiga ko'ra;
- bezatish uslubiga ko'ra.

Tovarlarni *namoyish qilish harakteriga va qo'llanish xususiyatiga ko'ra*-tor ixtisoslashgan, ixtisoslashgan, umumlashtirilgan, aralash turlarga bo'linadi.

Tor ixtisoslashgan vitrinalar-asosan shakllari, fasonlari, markalari va ranglari turlicha bo'lgan bir xil tovar guruhini reklama qilishga mo'ljallangan bo'ladi.

Ixtisoslashgan vitrinalar-savdo korxonasining profiliga mos keluvchi mahsulotlarning bir tovar guruhini reklama qiladi.

Umumlashtirilgan vitrinalar-turli tovar guruhlarini namoyish qilish uchun foydaliladi, bu o'z navbatida, xizmat ko'rsatilayotgan haridorlar kategoriyasiga yoki umumiyl talabiga bog'liq bo'ladi.

Aralash vitrinalar-uncha katta bo'limgan savdo korxonalarida o'matiladi. Ular turli xildagi tovar guruhlarini namoyish qilishga xizmat qiladi.

Vitrinalar bezatish harakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- *tovar ko'rinishidagi*, qachonki, namoyish qilinayoggan obyekt tovar yoki tovarlar to'plamidan iborat bo'ladi;
- *tovar-dekorativ ko'rinishidagi*, qachonki, tovarlarni namoyish qilinishi dekorativ-rassomchilik vositalari yordamida amalga oshiriladi;
- *sujetli*, agar, vitrina uchun tanlanayotgan tovar asosida ma'lum bir sujet bilan bog'liq bo'lsa, masalan, dengizda dam olish bilan, ovchilik bilan, sport va umuman reklama qilinayotgan tovarni alohida ta'kidlash maqsad qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Shuningdek, bu guruh o'z navbatida, agitatsiya-propaganda harakteriga ham ega bo'lib, ma'lum bir ko'zda tutilgan tadbirlarni muhim elementlarini, kunlarini, vaqtini va boshqa ma'lumotlarini targ'ibot qilishga ham qaratiladi.

Tovarlarni namoyish qilish bo'yicha qo'llanilayotgan printsiplari va bezatish uslublariga ko'ra vitrinalar *individual* va *tipovoy* bo'ladi.

Individual vitrinalarни-rassom dekorasiya orqali bezatadi. Individual vitrinalar yirik tipdagi do'konlarda o'matiladi. Ushbu vitrinalarni bezatish, o'zgartirish yoki almashtirish maqsadlari savdo korxonasining reklama tadbirlarini rejali amalga oshirilishi bilan birga, unga bog'liq holda birga amalga oshiriladi.

Tipovoy vitrinalar-asosan, o'rta va uncha katta bo'limgan do'konlarda, reklama tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus eskizlar bo'yicha bezatiladi. Ushbu vitrinalarni bezatishda maxsus tipdagi standart yig'ma jihozlar qo'llaniladi. Tipovoy vitrinalarda eskizlarni qo'llanilishi katta iqtisodiy samaradorlikka egadir, chunki, u individual bezatish reklamasiga nishbatan juda arzon.

Vitrinalar joylashgan joyi, konstruktiv tuzilishiga ko'ra:

- *oyna vitrinalari;*

- do'kon binosining oldi tomoniga-sasad qismiga qurilgan vitrinalar;
- do'konning savdo zalida alohida holda joylashtirilgan vitrinalar;
- ko'cha yuzida, maydonlarda o'rnatilgan vitrinalar;
- umumiy jamoa binolarida joylashtirilgan vitrinalarga bo'linadi.

Vitrinalar, tovarlarning dekorativ vositalarini o'rnatish va kompazitsion joylashitirish printsipiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- muvozanatli;
- mustahkamli;
- bir vaznda (maqomdaligi);
- ayrim elementlarni barcha kompozitsiyalarga uzviy ravishda bo'y sunuvchanligi.

Muvozanatli-bir xil predmetli simmetrik yo'l bilan markazdan chap va o'ng tomonga joylashtirishdan iborat bo'lib, natijada, tovar guruhlari va dekorativ elementlari assimetrik tartibda joylashtirishga erishiladi.

Mustahkamli-yirik gabaritli tovarlar vitrinalarning pastki qismiga va kichik hajmdagi predmetlarni esa yuqorigi qismiga o'rnatish bo'yicha maxsus moslamalar yordamida o'rnatiladi.

Bir vaznda (maqomda, ritm)-tovarlarni aniq bir tizim bo'yicha, jami guruhlarini va alohida olingen predmetlarini ajratgan holda joylashtirishdan iborat bo'lib, ular orasidagi masofa va rangli dog'lar takrorlanib tasvirlanadi.

Ayrim elementlarni barcha kompozitsiyalarga uzviy bo'y sunuvchanligi-vitrina ko'rgazmalarida asosiy o'rinn tutgan va namoyish qilinayotgan tovarlar kompozisiyalariga alohida e'tibor berib, ularning elementlariga ikkinchi darajali e'tiborni qaratilishidan iboratdir.

Ilozirgi davrda savdo tarmoqlari tizimida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish sohalarini keng tarqalishi munosabati bilan, ularda qo'llanilayoggan savdo reklamalarining uslubi ham mos ravishda o'zgarib, ularning soni ham oshib

bormoqda. Ayniqsa, savdo tarmoqlarida vitrina reklamasi bilan birga do'kon ichida qo'llanilayoggan reklamalarning roli ham keskin oshib bormoqda.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish savdo shoxobchalarining arxitektura qurilish tuzilmasiga bog'liq ravishda vitrina korobkalarining konstruktiv tuzilishi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- alohida-alohida, qo'shimcha, yalpi, yalpi oyna orqali do'kon interyerini (ichki tomonini) ko'rinishi.

Savdo shoxobchasi peshtog'i (binoning old tomoni)ni yoppasiga oyna bilan o'matish, tashqaridan, ko'cha tomondan savdo zalistagi tovarlarni qanday qo'yilganligini va joylashganligini ko'rish imkonini beradi.

Savdo shoxobchalari ichida tovarlami ko'rgazma qilish, vitrina oynalarini bezatish umumiy printsipiiga asoslangan holda tuzilgan bo'ladi. Tovarlarni ko'rgazma qilish uchun, savdo zalida maxsus tashkil etilgan joydan tashqari, shuningdek, oynalar oralig'idagi bo'sh maydonlardan ham foydalaniлади.

Savdo zallarida tovarlarni ko'rgazma qilish, savdo zalini bezatish umumiy kompozitsiyasiga mos kelishni taqozo etadi. Savdo zalida, savdo shoxobchasinga ixtisosligiga mos ravishda tovarlarni namoyish qilishdan tashqari, yangi, ishlab chiqarish korxonalari tomonidan tavsiya etilayotgan tovarlarni, zamonoviy tovar-modalarini, sifat belgisida ishlab chiqarilayotgan tovarlarni namoyish qilishni ham tashkil etiladi.

Savdo shoxobchasi ichki reklamalarini tashkil etish, unga mos reklama vositalarini tanlash, o'z navbatida, do'kon interyerining arxitektura xususiyatiga, hamda, do'konda qo'llanilayotgan mavjud savdo-tehnologik jihozlarning holatiga ham uzviy ravishda bog'liq bo'ladi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish savdo shoxobchalarida tovarlarni ratsional, maqsadga muvofiq ravishda joylashtirish, do'konga tashrif buyurayotgan haridorlarga psixologik ta'sir etadi, savdo zali interyerini ko'rkam, chiroyli qilib ko'rsatishga xizmat qiladi, va shuningdek, savdo maydoni va savdo zalida

o'matilgan texnologik jihozlardan maksimal foydalanish uchun imkoniyat, shart-sharoitlar yaratadi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatadigan savdo shoxobchalarida, tovarlarni namoyish qilish, tovarlarni an'anaviy shakllarda sotayotgan do'konlardan farqli o'laroq, birinchi navbatda, do'kon savdo zalini va vitrinalarni dekorativ-rasmlar orqali bezatish emas, balki, do'konga tashrif buyurayotgan haridorlarni *reklama ma'lumotlari* bilan muntazam ravishda samarali tanishtirib turilishi bilan ajralib turadi. Ushbu ma'lumotlar asosan, do'kon bo'yicha bo'limlarni, tovarlar seksiyalarini qay tartibda va qayyerda joylashganligini, va ularda qaysi tovar gunuhlari mavjudligini, eng ko'p haridorlar oqimining harakatlanishini ratsional chizmalar, tovarlarni tanlash va to'lov tartibi kabilami o'z ichiga oladi. Savdo shoxobchalarida reklama ma'lumotlari vositalari sifatida "*soqov ma'lumotlar*" turlari ham ko'p qo'llaniladi. Ushbu ma'lumotlar-turli shakldagi ko'rsatkichlar va maxsus tayyorlangan matnlardan iborat bo'lib, savdo zalida haridorlarni to'g'ri yo'nalish olishlariga, do'kon xodimlariga yoki boshqa kishilarga ortiqcha murojaat qilmasdan kerakli tovarlarni topishlariga zimdan yordam beradi.

Savdo zalidagi *ko'rsatkichlar-strelkalar* ko'rinishidagi belgilardan, chizmalardan, savdo bo'limlari va seksiyalarining joylashishi rejalaridan, tovarlarning tasviri ifodalaridan, maxsus tuzilgan matn yoki matnli belgilardan tuzilgan bo'lishi mumkin. Savdo zalidagi ko'rsatkichlarni bezatishda yozuvdagি shrifflarni aniqligiga, harflarning bo'yini 6 sm. dan 12 sm. ga teng bo'lishligiga, hamda enini o'lchami esa 2:1 nishatda bo'lishligiga alohida e'tibor beriladi. Ko'rsatkichlar asosiy haridorlar oqimiga nisbatan perpendikular holatida joylashtiriladi. Ularning joylashgan balandligi esa haridorlar uchun qulay, ko'rinishi aniq, tezda ko'zga tashlanadigan qilib o'matiladi.

Qisqacha xulosalar

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va modernizatsiya qilish sharoitida reklamani o'tkazish vositalarining ahamiyati kattadir. Vitrina-ko'rgazma

1. Alari bu savdo jarayonlarini rivojlantirish va savdo madaniyatini oshirish
2. yatini beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklama faoliyatini tashkil
3. reklama faoliyatini tashkil etish usullari, reklama vositalari, reklama
4. bozor sharoitida reklamaning ahamiyati va obyektiv zarurligi,
5. ni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini chuqr bilish lozim.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Reklama vositalaridan foydalanishni o'ziga xos xususiyatlari.

2. Horgi sharoitda reklama turlari va ularning ahamiyati.

3. Vitrina – ko'rgazma reklamalari.

4. Reklama vositalari.

5. Reklama klassifikatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari.

6. Reklama vositalari va ularni ahamiyati.

7. Vitrina – ko'rgazma reklamasini avzalligi.

8. Jarayonlarida vitrina – ko'rgazma reklamalarining ahamiyati.

9. Reklama vositalarining qo'llanilish usuli.

10. sharoitida reklama faoliyatini tashkil etish

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Бребах Г. Прицельный маркетинг. Новые правила привлечения
и продажи клиентов/ пер. с англ. Прал. Тит. Англ. – М.: Изд-во Эксмо,

2007 г. - 34с

2. Чиратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы:

уровень – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая
компания «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.

3. Мудров А.Н. Основы рекламы: учебник / А.Н. Мудров. – М.: Экономист,
2004 г. - 39 с.

4. Амиров Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб.

Помощь для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.-414 с.

www.kitob.uz.

www.kitobmarketing.aha.ru

4-bob. TIJORAT REKLAMASI, UNING IJTIMOIY-IQTISODIV AHAMIYATI VA VAZIFALARI

4.1. Tijorat reklamasi, uning iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Kishilarning ijtimoiy va iqtisodiy holatlari, ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni va moddiy normalarni tashviqot qilish jarayonida, shuningdek aholining oqilona ehtiyojlari va estetik didlarini shakllantirishga faol ta'sir o'tkazishning qudratli vositalaridan biri-tijorat reklamasidir.

Reklama maxsus faoliyat shakli sifatida e'londarda tasvir va bosma so'zlardan foydalanish boshlangan davrda yuzaga kelgan.

Reklama-ayniqsa iqtisodi rivojlangan mamlakatlarning tijorat faoliyati davrida rivojlangan. Uning XYII asr boshlarida paydo bo'lishi Angliyalik U.Kekston va fransiyalik T.Renado nomlari bilan bog'liq. Angliyada dastlabki bosma e'londalar Fransiyadagiga qaraganda 20 yilcha keyin paydo bo'lgan. 1657-yilda Londonda bosma e'londalar bo'lgan birinchi gazeta chiqa boshlagan.

Germaniyada reklama birmuncha keyinroq yuzaga kelgan bo'lsada, ammo jadal rivojlangan. Bu yerda reklama sohasida tadqiqot ishlari boshlab yuborilgan. XIX asr oxiriga kelib, Germanida dunyoda birinchi bo'lib, reklamaga bag'ishlangan maxsus jurnal nashr etila boshlangan. 1868-yilda Germaniyada reklama haqida qonun chiqarilgan. Tovar sifati haqida noto'g'ri ma'lumot bergen shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Eng qudratli biznes hukmronlik qilaytgan mamlakat—Amerika Qo'shma Shtatlarida reklama harakteridagi dastlabki e'londalar 1704-yil 1-mayda Bostondagи «Nyusmetter» gazetasida paydo bo'lgan.

AQSHda reklama fontastik sur'at bilan rivojlandi. 1950-yilda reklamaga bo'lgan jami harajatlar 5,5 mlrd., dollarni tashkil etgan bo'lsa, 1990-yillarda reklama harajatlari 100 mlrd., dollardan oshib ketdi.

Rossiyada dastlabki e'lolnami 1887-yilda Moskvada faoliyat olib borayotgan yirik korxona egasi Mitchel ochgan. Usha davrda yuzaga chiqqan «E'lolnar-savdoni harakatlantiruvchi kuch», degan shiorni u ilgari surgan edi.

Rossiyada reklamaning 1920-1930-yillardagi avji V. Mayakovskiy, L.Listskiy, S.Iguinniy, A.Makkusov, A.Zelenskiy, A.Radakov, A. Nitkin va boshqalar nomi bilan bog'liqdir.¹¹

V.Mayakovskiy reklamaga o'z munosabatini ifodalab, biz agitasiyaning kuchini yaxshi bilamiz degan edi. Har bir harbiy g'alabada, xo'jalik sohasadagi har bir muvaffaqiyatda agitasiyaning kuch va qudrati aks etgan. Reklama-sanoat, savdo agitatsiyasidir. Mayakovskiy tomonidan o'sha vaqtida aytilgan fikrlar hozirgi kunda ham o'z aktualligini yo'qotmagan: "Hech bir ish, u hatto to'g'ri bo'lsa ham, reklamasiz oldinga siljimaydi".

Odatda deb yozgan edi u-saqat yomon tovarlarnigina reklama qilish kerak yaxshi narsalar shunday ham o'taveradi deb o'ylaydilar bu eng noto'g'ri fikrdir.

Reklama-bu narsalar nomidir...

Reklama har bir buyumni, hatto eng ajoyibini ham eslatib turishi kerak.

Shu bilan birga tijorat reklamasi bir qator talablarga javob berishi kerak:

- reklama ma'lum maqsadga, ma'lum toifali haridorlarga mo'ljallangan bo'lishi kerak;
- reklama qilinadigan tovar bozor talablariga javob berishi va haridorlar talabini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak;
- reklama saqat qonun talablarigagina emas, balki axloq va estetik norma talablariga ham javob berishi kerak;
- reklama haqqoniy bo'lishi kerak, u reklama qilinayotgan tovar va xizmatlar haqida to'g'ri ma'lumot berishi kerak;
- reklama unga qilinayotgan tovarga raqobashi bo'lgan tovar haqida noto'g'ri ma'lumot bermasligi kerak;

¹¹ Панкратов Ф.Г., Ызажонов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: Учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 326 с. 2 экз.

- reklama mavsumiy talab ehtiyojlariiga javob berishi kerak;
- reklama doimo va tiziqli ravishda o'tkazib turilishi kerak.

4.2. Tijorat reklamasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarishning oliy maqsadi xalqning tobora o'sib borayotgan moddiy va madaniy ehtiyojlarini to'liq qondirishdan iboratdir. Ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish, fan-teknika taraqqiyoti asosida uning samaradorligini oshirish, moddiy noz-ne'matlar iste'mol qilishning tobora o'sib borishi, shaxsning ma'naviy kamol topishi, ijodiy va siyosiy aktivligining o'sishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Bozor sharoitida tijorat reklamasi kishilarning didini tarbiyalash, talabini o'stirish va ayni vaqtida tovarlarga bo'lgan talabini aktiv shakllantirishga qaratilgandir. Bu iste'molning yaxshilanishiga olib keladi. Bunday ijobiy samara esa o'z navbatida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Bozor munosabatlari davrida tijorat reklamasi haridorlar tovarlarni iste'mol qilishining eng ratsional usullaridan xabardor qilinishi unga yordam ko'rsatishi lozim. Reklamaning bu vazifasi iste'molchiga bo'lgan yangi munosabatni, aholi haqida, uning chtiyojlari va sog'lig'i to'g'risidagi g'amxo'rliknigina ifodalab qolmay, balki muhim iqtisodiy ahamiyatga ham egadir. Chunki u moddiy boyliklarning yanada ratsional foydalanilishi, iste'mol qilinishi uchun, binobarin ehtiyojni qondirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Tijorat reklamasi savdo madaniyatini o'stirishga yordam beradi. Yaxshi tashkil etilgan reklama yordamida haridorlar istagan tovarlarini tez topadilar, ularni kam vaqt sarf qilib harid qiladilar. Bunda tovarlar realizatsiyasi tezlashadi, muomala harajatlari kamayadi.

Tijorat reklamasi ko'pdan ma'lum ba'zi bir tovarlar haqidagi foydali ma'lumotlarni aholiga yetkazadi, tovarlarning xususiyati, fazilati, qo'llanish usullarini tushuntirib beradi.

Tijorat reklamasi keng ommaning manfaatlarini ko'zda tutadiki, bu uning g'oyaviyligi, haqqoniyigli, aniq va muayyan maqsadga qaratilganligi hamda rejaligida o'z ifodasini topadi.

Tijorat reklamasining g'oyaviyligi uning asl mohiyatidan kelib chiqadi. Amalda bu tijorat reklamasi vositalarining xalq moddiy farovonligi va madaniy darajasini oshirish sohasida hukumatimiz o'tkazayotgan siyosatga mos kelishidan iborat talabdir. Reklama hamda uning ayrim vositalari iste'molchilarga maishiy turmush sharoitini yaxshilash, to'g'ri ovqatlanish, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish to'g'risida yo'l-yo'riqlarni ham ko'rsatib turadiki, bu uning tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Haqqoniylig tijorat reklamasining eng muhim belgisi bo'lib, bu tovarlar, ularning sifati, fazilat-xususiyatlari va afzalliklari to'g'risida haqiqatga mos keladigan ma'lumotlar berishini anglatadi.

Konkretlilik-ishonchli dalil isbotlarda va reklama vositasi yozuvlarida, keltirilgan raqam va ma'lumotlarda ifodalanadi. Reklama grafikasida ushbu tamoyillarga amal qilish asossiz formalizmga va keng haridorlar ommasiga tushunarsiz usullarga barham beradi.

Reklamaning muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi uni o'z-o'ziga mahliyo bo'lishi va reklama vositalaridan norasional foydalanishdan tiyib turadi. Uning asosiy obyekti reklama qilinayotgan tovarlar va bozor konyunkturasidir. Reklamaning muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi uning u yoki bu vositasi samarasini, korxona tovar oboroti o'sishiga yordamini, shuningdek, tarbiyaviy va psixologik ta'sirini baholashga imkon beradi.

Rejalilik shuning uchun ham zarurki, bunda har bir savdo korxonasing faoliyati reja bilan belgilanadi. Savdo reklamasi rejasi shu savdo korxonasi rejasining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Reklamani ishlab chiqarish rejasi bilan tovar oboroti rejasi o'rtaida mutanosiblik qaror topishiga imkon beradi. Bu yangi tovarlarni muomalaga

kirishga ko'maklashuvchi, uning xususiyatlari to'g'risida informatsiya beruvchi qudratli vositadir.

Tijorat reklamasi savdodagi texnologik jarayonlarning tarkibiy qismidir. Shunday ekan, reklama ham haridor bilan uchrashuv paytidan uning talab va ehtiyojini aniqlashdan, tovarlarni unga oqilona namoyish etishdan boshlanadi. Tovarniig xususiyatlari, sisati, undan foydalanish, iste'mol qilish, qo'llanish usullari do'konlardagi texnologik jarayonlarni tashkil etishda muhim rol o'yinaydi. Ayni vaqtda yo'ldagi tovarlarni mohirlik bilan tavsiya etish ham reklamaning diqqat markazida bo'lishi kerak.

Tijorat reklamasi davlat ixtiyorida bo'lib, korxonalar ishlab chiqargan mahsulot va buyumlarni propaganda qilish bilan davlatning umumxalq farovonligini oshirishga qaratilgan siyosatini amalga oshiradi. Aniq maqsad va vositalari bo'lган bu siyosat butun jamiyat manfaatlari yo'liga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda reklama mamlakatimizda mustahkam mavqeni egalladi. Tovar ishlab chiqarishning ko'payishi reklamaning ham tez rivojlanishini belgilab beradi.

Mamlakatimizda ko'plab reklama tashkilotlari tuzildi, reklama nashrlarining soni yildan-yilga oshib bormoqda. Reklamaning rivojlanishiga bag'ishlangan turli ishlar va tadqiqotlar yuzaga kelmoqda, uning iqtisodiy samaradorligini tahlil etishga harakat qilinmoqda.

4.3. Tijorat reklamasining maqsadi va vazifasi

Savdo korxonalari va tashkilotlarida reklama ishlarini rejali tashkil etish, uning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Savdo korxonalari va tashkilotlarida reklama rejalar 1 yilga tuziladi. Bu rejada reklama aksiyalari, reklama chora-tadbirlari va reklama kompaniyalarini o'tkazish oylari aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Yillik rejalar choraklik rejalarda reklama ishi yoritilgan bo'ladi va bu reja chorak boshlanishidan bir-ikki oy oldin tuziladi. Choraklik rejalarda ayrim

Tijorat reklamasi keng ommaning manfaatlarini ko'zda tutadiki, bu uning g'oyaviyligi, haqqoniyligi, aniq va muayyan maqsadga qaratilganligi hamda rejaligida o'z ifodasini topadi.

Tijorat reklamasining g'oyaviyligi uning asl mohiyatidan kelib chiqadi. Amalda bu tijorat reklamasi vositalarining xalq moddiy farovonligi va madaniy darajasini oshirish sohasida hukumatimiz o'tkazayotgan siyosatga mos kelishidan iborat talabdir. Reklama hamda uning ayrim vositalari iste'molchilarga maishiy turmush sharoitini yaxshilash, to'g'ri ovqatlanish, bo'sh vaqtidan oqilona foydalanish to'g'risida yo'l-yo'riqlarni ham ko'rsatib turadiki, bu uning tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Haqqoniylig tijorat reklamasining eng muhim belgisi bo'lib, bu tovarlar, ularning sifati, fazilat-xususiyatlari va afzalliklari to'g'risida haqiqatga mos keladigan ma'lumotlar berishini anglatadi.

Konkretlilik-ishonchli dalil isbotlarda va reklama vositasi yozuvlarida, keltirilgan raqam va ma'lumotlarda ifodalanadi. Reklama grafikasida ushbu tamoyillarga amal qilish asossiz formalizmga va keng haridorlar ommasiga tushunarsiz usullarga barham beradi.

Reklamaning muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi uni o'z-o'ziga mahliyo bo'lishi va reklama vositalaridan norasional foydalanishdan tiyib turadi. Uning asosiy obyekti reklama qilinayotgan tovarlar va bozor konyunkturasidir. Reklamaning muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi uning u yoki bu vositasi samarasini, korxona tovar oboroti o'sishiga yordamini, shuningdek, tarbiyaviy va psixologik ta'sirini baholashga imkon beradi.

Rejalilik shuning uchun ham zarurki, bunda har bir savdo korxonasing faoliyati reja bilan belgilanadi. Savdo reklamasi rejasi shu savdo korxonasi rejasing tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Reklamani ishlab chiqarish rejasi bilan tovar oboroti rejasi o'rtaida mutanosiblik qaror topishiga imkon beradi. Bu yangi tovarlarni muomalaga

kritishga ko'maklashuvchi, uning xususiyatlari to'g'risida informatsiya beruvchi qudratli vositadir.

Tijorat reklamasi savdodagi texnologik jarayonlarning tarkibiy qismidir. Shunday ekan, reklama ham haridor bilan uchrashuv paytidan uning talab va ehtiyojini aniqlashdan, tovarlami unga oqilona namoyish etishdan boshlanadi. Tovarniig xususiyatlari, sitati, undan soydalinish, iste'mol qilish, qo'llanish usullari do'konlardagi texnologik jarayonlarni tashkil etishda muhim rol o'yinaydi. Ayni vaqtida yo'ldagi tovarlami mohirlik bilan tavsiya etish ham reklamaning diqqat markazida bo'lishi kerak.

Tijorat reklamasi davlat ixtiyorida bo'lib, korxonalar ishlab chiqargan mahsulot va buyumlarni propaganda qilish bilan davlatning umumxalq farovonligini oshirishga qaratilgan siyosatini amalga oshiradi. Aniq maqsad va vositalari bo'lган bu siyosat butun jamiyat manfaatlari yo'liga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda reklama mamlakatimizda mustahkam mavqeni egalladi. Tovar ishlab chiqarishning ko'payishi reklamaning ham tez rivojlanishini belgilab beradi.

Mamlakatimizda ko'plab reklama tashkilotlari tuzildi, reklama nashrlarining soni yildan-yilga oshib bormoqda. Reklamaning rivojlanishiga bag'ishlangan turli ishlar va tadqiqotlar yuzaga kelmoqda, uning iqtisodiy samaradorligini tahlil etishga harakat qilinmoqda.

4.3. Tijorat reklamasining maqsadi va vazifasi

Savdo korxonalari va tashkilotlarida reklama ishlarini rejali tashkil etish, uning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Savdo korxonalari va tashkilotlarida reklama rejalar 1 yilga tuziladi. Bu rejada reklama aksiyalari, reklama chora-tadbirlari va reklama kompaniyalarini o'tkazish oylari aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Yillik rejalar choraklik rejalarda reklama ishi yoritilgan bo'ladi va bu reja chorak boshlanishidan bir-ikki oy oldin tuziladi. Choraklik rejalarda ayrim

Reklamaning ijtimoiy samaradorligi shundan iboratki, reklama tovarlar haqida odamlarga yangi ehtiyojni paydo qiladi, axborot beradi, haridorlarning didini shakllantiradi, iste'molchilaming tovarlar haqidagi bilimini kengaytiradi, savdo madaniyatini oshiradi va hokazo.

Reklamaning psixologik samaradorligi shundan iboratki, u informatsion va tarbiyaviy funksiyani bajaradi.

4.4. Biznesda reklama harajatlari budgetini tuzish.

Reklama tovarga talabni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Uni turli-tuman ta'riflash mumkin. U talabni shakllantirish maqsadida reklama qilinayotgan tovarga iste'molchilarni ogohlantirish jarayoni, sotuvni tashkil qilish jarayoni, iqtisodiy va ijtimoiy jarayon, jamoat bilan bog'lanishni amalga oshiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Reklama bu yakka shaxsga hisoblanmagan axborot bo'lib, u hamma haridorlarga tovar va xizmat to'g'risidagi ma'lumot yetkazish, shuningdek reklama beruvchilarni g'oyalarini izohlovchi vositadir. Reklama bir guruh odamlarga mo'ljallangan, shuning uchun noshaxsiy tavsifga ega. Reklamaning katta qismiga buyurtmachilar tomonidan haq to'lanadi, ammo ba'zi bir reklama omillariga haq to'lanmaydi.

Masalan, «Amerika Qizil Yarim Oy», «Yunayted Uey», «Amerika rak kasalligiga qarshi jamiyatining reklamalari bepul jamoashilik asosida oynai jahon orqali beriladi va kundalik matbuotda chiqariladi.

Reklamalarning katta qismi o'z tavsisi bilan ishontiruvchi hisoblanadi. U alohida sotuv uchun o'ziga yo'l ochib boradi: auditoriyani axborotga ega ekanligini ta'minlaydi va fermaning mahsulotga xayriyohlik munosabatini uyg'otadi.

Reklama talabni shakllantirish tizimining elementi hisoblanadi va ma'lum «tovar timsol»ini ta'minlaydi, bu esa sotib olish qarorini qabul qilinishiga

yordamlashadi. Do'konlar, yarmarkalar va ko'rgazmalarning xizmatlarini amalga oshirishda reklama muhim rol o'yaydi. Keng tarqalib va yuksalib borish darajasida reklama keng g'oya doirasini ya'ni iqtisodiy, siyosiy, diniy va ijtimoiy tashviqot qilishda ishlataladigan asosiy strategik qurollardan biri bo'lib hisoblanadi.

E'lon reklama bo'lishi uchun reklama beruvchi o'zini tanishtirishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyektining reklama bilan bog'liq, faoliyat turi turli-tuman bo'lishi mumkin: tovarga va uni ishlatalishiga reklama, firma reklamasi, ochiq, (bevosita), va yopiq, (bilvosita) reklama, sotuvni kengaytirishni ta'minlovchi reklama. Reklamani tarqatuvchi vositalar—radio, oynai jahon, gazeta, jurnal, pochta, video kassetalar va boshqalar.

Reklama sohasida qaror qabul qilish etapları. Muvaffaqiyat yoki mag'lubiyatni aniqlash, tanlab olingan reklama faoliyati usullarini nazorat qilish va reklama beruvchilarning reklamaga ketgan harajatlarini maqsadga muvoysiqligiga ishonch hosil qilishdir. U kutilgan sotuv xajmini oshirish bilan bir qatorda reklamani samaradorligini baholash va qo'yilgan maqsadga erishishni hisobga oladi.

Reklamaning asosiy turlari tovar va prestij reklamalaridan iborat. *Tovar reklamasining asosiy maqsadi-tovarga bo'lgan talabni shakllantirish va rag'batlantirishdan iboratdir.*

Tovar reklamasi iste'molchini tovarning xossalari, afzallikkari bilan xabardor qilib, uni harid qilishga qiziqtiradi, uni sotib, passiv haridordan faol haridorga aylantirishga xizmat qiladi.

Prestij (obro' orttirish uchun qilinadigan) reklama firmanınraqobashilariga qaraganda ishonchli, afzalliklarga ega ekanligini targ'ib qiladi. Bunday reklamaning maqsadi firmanın iste'molchi, haridorlar o'tasida imidjini, obro'yini oshirish, ishonchini qozonishdan iboratdir.

Shu yo'l bilan iste'molchilarni o'z tovarlarini sotib olishga undaydi. Prestij reklamasida firma o'zini tashqi muhitni, ekologiyani saqlashga.

iste'molchilar salomatligi va aholining turmushini yaxshilashga g'amxo'rlik qiluvchi, shu boisdan, yangi va yuqori sifatlari tovarlarni ishlab chiqarishga intiluvchi firma ekanligiga haridorlarni ishontirishga harakat qiladi. Shuningdek, firma iste'molchilarda o'zi to'g'risida yuqori malakali, ishonchli, jiddiy firma, sherik degan fikr tug'dirishga intiladi. Ushbu reklama orqali o'zining ijobiy obrazini yaratib, joriy davrda va kelajakda ishlab chiqarayotgan tovarlarini yuqori narxda sotish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirishni maqsad qilib qo'yadi.

Prestij reklamasi orqali firma o'zi to'g'risida ijobiy jamoashilik fikrini shakllantiradi. Buning uchun turli jamoashilik faoliyatlarini yuritadi. Ular jumlasiga homiylik, ta'lim tizimi, san'at, sportni rivojlantirish, rag'batlantirish, jamoashilik fondlarini tashkil etishda ishtirok etadi va shunday fondlar ishida faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, ilmiy-amaliy anjumanlar, seminarlar, turli konkurslar, shouular tashkil qiladi, xayirli ishlarda qatnashadi.

Reklaina turlariga qarab ajratiladigan harajatlar, reklama o'zining amalga oshirilishiga, berilishiga ko'ra bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi.

Bevosita reklama aniq, tovar va firmaga nisbatan reklama funksiyasini bajarib, tijorat shartlariga asoslanib, reklamani beruvchini ko'rsatgan xolda beriladi. Masalan, jurnallardagi ilmiy maqolalar, filmlarda firma mahsulotidan foydalanish va hokazo.

Reklamalar, tovarlarning hayotiy siklli bosqichlari va reklama materiali xususiyatlara ko'ra axborot, tushuntirish agressiv shakkarda beriladi.

Masalan, tovarning hayotiy siklining birinchi bosqichida tovarning iste'mol xususiyatlari to'g'risida axborot reklamasi beriladi. Amino uchinchi bosqichda, mudosaa marketing strategiyasi qo'llanilganda, agressiv-reklama, ya'ni ushibu firma tovarigina eng yaxshi sifatga, afzalligini *tushuntirishga* qaratilgan reklama beriladi. Raqobashilarni sindirish maqsadida nihoyatda qimmatbaho reklama berish preventiv deb ataladi.

Mamlakatni sotsial-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha hukumat dasturlarini amalga oshirishda firmaning ishtirok etayotganligini pisanda qiluvchi, uning vatanparvarligini, davlat manfaati uchun faoliyat ko'rsatayotganligidan xabar beruvchi reklama turlariga himoya yoki korporativ reklama deyiladi.

Reklama berishda xuddi badiiy adabiyotda bo'lganidek ma'lum darajada bo'rttirish, lof qilishga yo'l qo'yiladi. Ammo bunday bo'rttirma haridorlarni to'g'ridan-to'g'ri aldashga, ularga yolg'on ma'lumotlar berishga olib kelsa, u xolda reklama vijdonsiz, aldamchilik reklamasi hisoblanadi. Vijdonsiz, aldamchilik reklamalar turiga qonunchilik yo'li bilan man qilingan texnik vositalar va usullarni qo'llash yo'li bilan berilgan reklamalar ham kiradi. Reklamalarni tarqatish vositalari xilma-xildir. Reklamalar matbuot, radio, televide niye, maxsus reklama firmalari, roliklari namoyish qilish, plakatlar, pannolar, do'kon peshtaxtalari-vitrinalarini bezash, tovarlarni o'rabi-joylash va hokazolar orqali beriladi.

Reklama berishni rejalashtirish. Reklamani berishni rejalashtirish murakkab ish bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) reklama obyekti va axborot mazmunini belgilash;
- 2) reklama yo'naltirilgan haridor va iste'molchilarini aniqlash;
- 3) reklama berish maqsadini aniqlash; reklama axboroti, ma'lumotnomasini tuzish;
- 4) reklama berish, tarqatish vositalarini tanlash;
- 5) reklama berish grafigi, muddati, intensivlikni aniqlash;
- 6) reklama berish harajatlari va samaradorligini hisob-kitob qilish.¹³

SInuni qat'iy ta'kidlab o'tish joizki, reklama har bir mamlakat qonunlariga muvosiq keladigan usul, shakllarda berilishi kerak. Shu boisdan ayni bir firma o'z tovarini turli mamlakatda turli usul va shakllarda, mazmunlarda reklama qiladi.

¹³ Васильев Г.А., Попиков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004

Xalqaro marketingda ham sotishni rag'batlantirishning umumiy marketingdan ma'lum bo'lgan usullari qo'llaniladi. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iboratdir:

- 1) moliyaviy usullar, ya'ni narx imtiyozlari, yengilliklarini qo'llash. Bunda narx engilliklarining umumiy, oddiy, eksport, yashirin, mavsumiy va boshqa xilma-xil usullaridan foydalaniladi;
- 2) qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar, kredit kartochkalari;
- 3) haridorlar o'rtasida konkurslar tashkil etish, lotareya o'yinlarini o'tkazish;
- 4) mustaqil ravishda ishlatish mumkin bo'lgan idishlarga tovarni joylash va h.k.

Servis siyosati. Tovarlarni sotish, haridorlarni jalg qilish servis siyosatiga, ya'ni tovarlarni sotish vaqtida, sotilgandan so'ng ishlatilish jarayonida xizmat ko'rsatish usullariga bog'liq bo'ladi.

Servis siyosati o'z ichiga sotilgan tovarga xizmat ko'rsatish, tovarni haridorga yetkazib berish, tashish, tushirish va boshqa xizmat turlarini ko'rsatishni oladi.

Haqiqatda yangi reklama uchun haq to'lanmaydi, ammo u haridorlami ogohlantirishga, ma'ruzaga, maqola matnlarini tayyorlashga, prezentsiya o'tkazishga sezilarli mehnat va vaqt talab qiladi.

Ko'pchilikni diqqat e'tiboriga firma to'g'risida ma'lumotlar etkazilishdagi vositalar sisatida korporativ reklama hisoblanadi, u korxonaning imidjini yaxshilashga mo'ljallangan va quyidagi maqsadlarga erishishda ishlatiladi: ommaga firma faoliyati to'g'risida ma'lumot berishda firmani bozordagi aniq o'mini aniqlashda, shtat o'zgarishlarini aks ettirishda, narx siyosati haqida, kasaba qo'mitalari bilan o'tkazilgan mulohazalarda, yangi tovami bozorga olib chiqish haqida, yoki sotuv kanalini o'zgarishi haqida, aksiyalar qiymatini oshishi haqida, xizmashilarni axloqiy qoidalarni mustahkamlashda va boshqalarda. Faoliyatni omma bilan bo'lgan aloqasida va

reklamada eng yuqori samaraga erishish uchun markazlashgan muvosifqlashtirishga erishish kerak, ko'plab reklama agentliklari jamoat bilan aloqa qilish bo'limiga ega va shu turdag'i xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadilar, ko'pchilik firmalarning reklama bo'limlari ham jamoat bilan bo'lgan aloqa bilan shug'ullanadilar.

Reklama ko'p mablag' talab qiladi. Bu mablag' bekor ketmasligi uchun firma marketing faoliyatini yaxshi o'ylab qadam qo'yishi kerak.

Nimalarni reklama qilish mumkinligi aniqlanadi:

1.Muayyan tovarlarni. Bunda reklama haridorlarga tovarning xossalari, narxi haqida ma'lumot beradi.

2.Firmalarni. Reklama iste'molchida firma haqida taassurot yaratadi. Masalan, firmaning ish faoliyati.

3.Voqealarni. Misol uchun ko'chmas mulk birjasi o'tkazayotgan auksion haqida, turli xil savdo-kurgazmalari haqida va h.k.

4.Fikrlarni. Reklama odamlarni biror narsalardan muhofaza qilishga chaqiradi yoki bir firma aksiyalarini sotib olishga chaqiradi. Masalan, mablag'larni turli xil jamg'armalarda saqlash haqidagi reklamalar.

Reklamaga sarflanadigan mablag'lar. *Reklamaga qancha mablag' surflashi kerak?* Bu savol marketingning eng qiyin masalalaridan biri hisoblanadi. Gap shundaki, reklamaning samaradorligi bilan unga ketadigan harajat orasidagi bog'lanishni aniqlash juda qiyin bo'ladi. Reklamaga sarflangan mablag'ni oshishi bilan talabning qanchalik kattalashishini tushunish juda qiyin. Bunday tekshiruvni tashkil qilishning o'zi ham ancha qiyin va qo'shimcha mablag' talab qiladi.

Har xil firmalar reklamaga ketadigan harajatni har xil aniqlaydi. Bir xil firmalar reklamaga qancha imkoniyati yetsa, shuncha sarflaydi. Boshqa firmalar reklama uchun oldin tushgan soydaning ma'lum foizi miqdorida mablag' ajratadi. Yana bir boshqa firma esa bu mablag'ni raqobashi firma mablag'iga nisbatan belgilaydi.

Reklamaga ketadigan mablag' qiymati reklama vositasiga ham bog'liq bo'ladi. Firma o'z maqsadiga erishish uchun hamda harajat ko'payib ketmasligi uchun o'z reklamasi qanday oraliqda chiqib turishini ham belgilashi kerak. Televideniye omrnaviy va ta'sir etishning rang-barang imkoniyatiga ega bo'lsada, boshqa axborot vositalaridan o'zining qimmatligi bilan ajralib turadi.

Tashqi reklama taxtalari o'zlarining arzonligi, e'tiborni qayta-qayta jalgila olishi, tezda yangilanib turishi imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Aholining barcha qatlamiga birdek «qotib qolgandek» murojaati, o'zining alohida o'quvchilari yo'qligi ushbu axborot yetkazish uslubining jozibadorligini pasaytiradi.

Reklama axborotining qolgan turlari asosan biror bir hudud doirasi bilan cheklangan bo'lib, odatda, ularning tegishli aholi qatlamlariga ta'siri tez va kuchli bo'lsa-da, juda katta tashkiliy harajatlarni talab qiladi.

Biznes rejada harajatlar taqsimoti. Ma'lumotlarga ko'ra, AQSHdagi kompaniyalarning 2/3 qismi yillik yoki keyingi yillarga qisqacha ko'rsatmali yillik rejalarini tayyorlashadi. Qolganlari 2 qismga bo'linib, 1-qism 3-5 va undan ortiq muddatli marketing rejani, ikkinchisi esa yillik va tezkor rejalarini ishlab chiqishadi.

Marketing rejalarishining oxirgi bosqichida marketing faoliyatini natijalarini nazorat qilishning asosiy kriteriyalari belgilanadi.

Odatda firmalar *reklama tadbirdarining maxsus rejasini* tuzishadi. Bunda tanlangan reklama mablag'laridan tashqari rejalarishirilgan sarflar jami ham belgilanadi. Rejada yana quyidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan: reklama aynan kimlar uchun mo'ljallangan; reklama taqsimlanadigan hudud; reklama ishi muddati. Rejada reklama faoliyatining boshi va oxiri belgilab ko'rsatiladi, shuningdek, uni tarqatish vositalari haqida ma'lumotlar beriladi. Reklama tadbirdari rejasi bozomi o'rganilishdan olingan natijalar asosida shakllantiriladi. Bunda belgilangan qadamlarning hosildorligi baholanadi.

Reklama harajatlarida berilgan maqsadlarga sarflanadigan pul mablag'larining hajmi belgilanib, ularning turli reklama tadbirlaridagi taqsimoti hisoblab chiqiladi. Reklama faoliyati kuchayib ketishi natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lган qiyinchiliklarning oldini olish maqsadida tadbirkor qo'shimcha resurslarga ega bo'lishi kifoyadir.

Reklama biznesi va reklama dasturini tuzish Maqsadlarni belgilash reklama tadbirlarini tuzish jarayonidagi ilk qadam—reklama vazifalarini belgilashdir. Bu yerda reklama aynan marketingning kompleks dasturida nimalarni qilishi kerakligi aniqlanadi. Reklama oldida bir qator taqsimot va muloqot sohasidagi masalalar qo'yiladi.

4.5. Korxona yoki firmanın reklamada faolligi

Tashkilot va firmalarda reklama ishlarini rejali tashkil etish, uning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Reklama rejasini tuzish uchun ko'p majburiyatlar nazarda tutmoq va foydalanilgan reklama mablag'larini optimal kombinatsiyalarini hamda reklama ko'rinishlarini aniqlab olmoq kerak.

Odatda reklama faoliyatini rejalashtirish quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. Reklama obyekti hamda haridorlarga tovar haqida bildirilishi zarur bo'lган axborotning mazmuni va mohiyati aniqlanadi.
2. Reklamaning subyekti yoki adresati aniqlanadi. Ya'ni sotuvchi va haridorlar gurhi yoki reklama e'lonlari bilan murojaat qilish orqali sotib olish haqidagi qarorga ta'sir qiluvchi shaxslar aniqlanadi.
3. Reklama motivi aniqlanadi. Haridorning diqqatini tovarga jalb etish uchun reklama e'lonida nimaga urg'u berish kerakligi aniqlanadi.
4. Reklama vositalarining turlari tanlab olinadi va ularning optimal to'plami hamda reklama e'lonlarini tarqatuvchi kanallar o'ttasidagi aloqalari aniqlanadi.

5. Reklama axboroti tuziladi. Bunda reklama sarlavhasi ifodalanib, matn tuzilib, illustratsiya(tasviri) aniqlanidi, personal, reklama tarqatuvchilar yoki musiqa tanlanadi.

6. Reklama uamoyishlarining grafigi tuziladi.

7. Reklama tadbirlariga qilinadigan harajatlar smetasi tuziladi. Umumiy harajatlar alohida tarmoqlarga ketgan harajatlar aniqlanadi, (bunda maxsus usul va formulalardan foydalanilgan bo'lishi kerak).

8. Oldindan taxminiy reklamaning foydaliligi aniqlanadi. Foydalilik reklama kompaniyasi taxmini bo'yicha sotilgan tovar ustunligining miqdoriy ifodasida hisoblanadi.

Reklamaning obyekti bo'lib tovar yoki firma xizmat qiladi. Reklama obyektini aniqlash vaqtি reklama tashkiloti faoliyatining va rejalashtirishning eng ma'suliyatli davridir.

Reklamaning subyekti esa reklama agentliklari hamda reklama murojaatlari yo'llangan potensial auditoriyadir.

Reklamani rejalashtirishda uning yangi shakllaridan foydalanilsa maqsadga muvosif bo'ladi.

Reklamaning yangi shakllarini Amerika olimi P. Druker: tijorat korxonalarining 2 asosiy funksiyasi ya'nii marketing va kashfiyotlardan mavjud holda foydalanishini ta'kidlab o'tadi:

1. Bozorda marketing tadqiqotlari asosida faoliyat olib borish.

2. Biznesning asosiy maqsadi shundaki, kashfiyot yordamida haridorlami topishdir.

Ilaqiqiy marketing shundan iboratki: bu kashfiyot haridorlarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'z pullariga ularning ishlab chiqargan tovarlari to'g'ri keladimi yoki yo'qmi shuni aniqlash lozim. Bu yerda eng asosiysi, birinchidan haridor shunday joyni aniqlashi lozimki, sizning korxonangizdan tezda o'zi xohlagan mahsulotni topsin. Ikkinchidan majbur qilmasdan, qandaydir nozik yo'l bilan o'z mahsulotingizga haridorlar e'tiborini jalg

etishngiz, uchinchidan esa haridorlarni mana shu ishlab chiqargan mahsulotingizga e'tiborlarini doimiy ravishda jalb etishingiz lozim.

Demak bundan shuni aytish kerakki, mahsulot o'z egasini topmaguncha, uni ishlab chiqarishning hojati yo'q.

Rivojlangan korxona va firmalar ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorga chiqarishda, reklama kompaniyalarini o'tkazishda har xil usullardan foydalanadilar. Yangi bozomi tashkil qilish yoki o'z haridorlarga ega bo'lisch. Bu yerda maxsus tayyorlangan reklamalar tovarlarni do'kon peshtaxtalariga qo'yisnih talab etadi¹⁴.

Korxonadagi reklama kompaniyalarining bozor sharoitida haqiqatda ham foydali va unumli bo'lishi uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Korxona ishlab chiqargan mahsulot bozorda kimga atalgan va reklama kimga qaratilganligi haqida o'zingizga aniq hisobot berishingiz lozim.

2. Siz shunday sharoit yaratingki, korxonada ishlab chiqargan mahsulotlarning belgisi, korxona markasi bozorda aniq bo'lsin va u hech narsa bilan chalkashtirilmasisin.

3. O'z reklamangiz bilan haridorlarni zeriktirmay balki qiziqtirish kerak. Reklama sohasida yangilik kiritish, kashfiyoshilik kerak. Bu yerda ko'proq tavakkalchilikdan foydalanish lozim, shunda ko'proq foyda olishga muvaffaq bo'lish mumkin.

4. Reklamada his-hayajonga emas, balki aniq fakt va haqiqatlarga tayanish lozim. Haridorlar qanday muammolarga duch kelganlarini yaxshi tushunishga harakat qiling va sizning mahsulotingizni harid qilgan holda ularga reklama orqali bu muammolarni hal qilishlarini namoyish qiling.

5. O'z mahsulotingiz nomini ko'zga tashlanadigan sarlavha bilan ifoda qiling (ko'cha va do'kon oyna, eshiklarida). Iloji boricha sodda va tushunarli 8-

¹⁴ Росситер Дж. Р., Перси Л. Реклама и продвижение товаров - СПб.: Питер 2003

10 harfdan iborat so'zlardan foydalanish lozim, chunki haridorlar tez eslab qoladilar.

6. Reklamada ko'proq ko'rgazmali qurol va rasmlardan foydalaning. Shuni yodda tutingki. reklamada rasmdan ko'ra fotosurat afzalroqdir. Chunki haridor fotosuratni tez esda saqlaydi va unga ko'proq ishonadi.

Qisqacha xulosalar

Reklama narsalar nomidir. Tijorat reklamasi savdodagi texnologik jarayonlarning tarkibiy qismidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat reklamasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, maqsadi va vazifasi, tijorat reklama faoliyatini tashkil etish usullari, tijorat reklamasi vositalari, tadbirkorlik faoliyatini olib borishda tijorat reklamasi faoliyatining o'rni va ahamiyati, tijorat reklama faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari benihoya kattadir. Tijorat sohasida vitrina-ko'urgazma reklamasining o'rni haqida talabalar keng fikr va bilinga ega bo'lislari lozim.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Tijorat reklomasi, uning iqtisodiy mohiyati va mazmuni.
2. Tijorat reklomasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
3. Tijorat reklamasining maqsadi va vazifasi.
4. Tijorat reklamasi faoliyatining elementlari.
5. Tijorat reklamasi vositalari.
6. Tijorat reklamasi vositalari va ularning ahamiyati.
7. Tadbirkorlik faoliyatini olib borishda tijorat reklamasi.
8. Tijorat reklama faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
9. Korxonalardagi reklama kompaniyalarining bozor sharoitida haqiqatda foydaliligi va unumi.
- 10.Tijorat sohasida vitrina-ko'rgazma reklamasining o'rni.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Забин Д., Бребах Г. Прицельный маркетинг. Новые правила привлечения и удержания клиентов/ пер. с англ. Прал. Тит. Англ.–М.:Изд. Эксмо, 2006.-

2. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: Учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.
3. Мудров А.Н. Основы рекламы: учебник / А.Н. Мудров. – М.: Экономист, 2005. – 319 с.
4. Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.-414 с.
www.dis.ru.
www.marketing.al.ru/index_0007.shtml
www.marketing.uef.ru/students-news.php

10 harfdan iborat so'zlardan foydalanish lozim, chunki haridorlar tez eslab qoladilar.

6. Reklamada ko'proq ko'rgazmali qurol va rasmlardan foydalaning. Shuni yodda tutingki: reklamada rasmdan ko'ra fotosurat afzalroqdir. Chunki haridor fotosuratni tez esda saqlaydi va unga ko'proq ishonadi.

Qisqacha xulosalar

Reklama narsalar nomidir. Tijorat reklamasi savdodagi texnologik jarayonlarning tarkibiy qismidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat reklamasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, maqsadi va vazifasi, tijorat reklama faoliyatini tashkil etish usullari, tijorat reklamasi vositalari, tadbirdorlik faoliyatini olib borishda tijorat reklamasi faoliyatining o'rni va ahamiyati, tijorat reklama faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari benihoya kattadir. Tijorat sohasida vitrina-ko'urgazma reklamasining o'rni haqida talabalar keng fikr va bilimga ega bo'lishlari lozim.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Tijorat reklomasi, uning iqtisodiy mohiyati va mazmuni.
2. Tijorat reklamasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
3. Tijorat reklamasining maqsadi va vazifasi.
4. Tijorat reklamasi faoliyatining elementlari.
5. Tijorat reklamasi vositalari.
6. Tijorat reklamasi vositalari va ularning ahamiyati.
7. Tadbirdorlik faoliyatini olib borishda tijorat reklamasi.
8. Tijorat reklama faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
9. Korxonalardagi reklama kompaniyalarining bozor sharoitida haqiqatda foydaliligi va unumi.
10. Tijorat sohasida vitrina-ko'urgazma reklamasining o'rni.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Забин Д., йрсбах Г. Прицельный маркетинг. Новые правила привлечения и удержания клиентов/ пер. с англ. Прал. Тит. Англ.-М.:Изд. Эксмо, 2006.-

2. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: Учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.

3. Мудров А.Н. Основы рекламы: учебник / А.Н. Мудров. – М.: Экономист, 2005. – 319 с.

4. Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.-414 с.

www.dis.ru.

www.marketing.al.ru/index_0007.shtml

www.marketing.ucf.ru/students-news.php

axborot vositalarining o'sib borayotgan tanlovchanligi tufayli pasayib boradi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalangan holda, bu harajatlarni turli mamlakatlar iqtisodiyotidagi nisbiy ahamiyatini baholash mumkin.

«Mak Grou-Xill Riserch» firmasi tadqiqotlar natijasida sohaviy konyunktura nashridagi reklama e'lonlari orqali amalga oshirilgan bitta muayyan maqsadli aloqaning qiymati 17 sentga tengligi aniqlangan.

Savdo vakilining bir marja tashrifining qiymati esa 1977-yilda o'rtacha 97 dollarni, 1988-yilda esa 252 dollarni tashkil etган¹⁹

Kommunikatsiya harajatlarining taraqqiy etishi va ayniqsa yangi kommunikatsiya vositalarining tez rivojlanishi reklama kanallari va bevosita savdoning nisbiy rolini qayta baholashni talab qiladi.

5.2. Reklama vositalari klassifikasiyasi

Reklamani tayyorlash va tarqatish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Reklama faoliyatini tashkil etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulotlar to'g'risida axborot oqimini shakllantirish;

- tadbirkorlik va iste'mol madaniyatini takomillashtirish;
- reklamaning davlat va jamoat mansaattlariga, umum e'tirof etilgan axloq va ma'naviyat normalariga, yuridik va jismoniy shaxslarning ishchanlik obro'siga, atrof muhit holatiga tajovuzidan himoyalanish choralarini ta'minlash;

- mahsulotning harakteri, tayyorlanish usuli va joyi, iste'mol xususiyatlari, sifati va boshqa tavsiyflari, uni realizasiya qilish shartlari borasida iste'molchilarни chalg'itadigan yolg'on yoki noaniq ma'lumotlar reklama vositasida tarqatilishining oldini olish.

¹⁹ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности Учеб. Пособие для вузов - М: ЮНИТИ-ДАНА, 2004

O'zbekiston Respublikasi hududida reklamani tayyorlash va tarqatish bilan bog'liq munosabatlarga tatbiq etiladi. Ijtimoiy voqealarni siyosiy partiyalarining, diniy va jamoat tashkilotlarning manfaatlarini aks ettiruvchi yoki ularni qo'llab-quvvatlashga mo'ljalangan axborot bilan bog'liq munosabatlarga tatbiq etilmaydi.

Reklama faoliyatini tashkil etishda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilmoqda:

- reklama-yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to'g'risidagi bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida tarqatiladigan maxsus axborot;
- reklama beruvchi-reklamani tayyorlash va tarqatish uchun uning buyurtmachisi bo'lgan shaxs;
- reklama tayyorlovchi-reklama tayyorlashni to'liq yoki qisman amalga oshiruvchi shaxs;
- reklama tarqatuvchi-reklama vositalari yordamida reklama tarqatishni amalga oshiruvchi shaxs;
- reklamadan foydalanuvchi- shaxs yoki shaxslar guruhi;
- reklama vositalari-reklamani uning foydalanuvchisiga etkazish uchun ishlataladigan vositalar:

O'zbekiston Respublikasi hududida reklama O'zbekiston Respublikasining davlat tilida va reklama beruvchining xohishiga ko'ra boshqa tillarda tarqatiladi. Belgilangan tartibda ro'yxatga olingan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari), bosma usulda terilgan bo'g'inli belgililar (logotiqlar) asli qaysi tilda bo'lsa, shu tilda keltirilishi mumkin.

Reklamaga doir asosiy talablar. Qonuniylik, aniqlik, ishonchlilik, reklamadan foydalanuvchiga zarar, shuningdek ma'nnaviy zarar yetkazmaydigan shakllar va vositalardan foydalanish reklamaga doir asosiy talablardir.

Reklamada quyidagilar tagilganadi:

- 1) ishlab chiqarilishi yoki realizasiya qilinishi taqiqlangan mahsulot to'g'risida axborot tarqatish;
- 2) jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeiga qarab va boshqa holatlarga ko'ra kamsitish yoki o'zga shaxslarning mahsulotini badnom etish;
- 3) fuqarolarning sog'lig'i yoki hayotiga va atrof-muhitga zarar etkazuvchi yoxud zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, shuningdek xavfsizlik vositalariga nolisandlik tuyg'usini uyg'otuvchi harakatlarga da'vat qilish;
- 4) majburiy sertifikatlaatirilishi zarur bo'lgan yoki ishlab chiqarilishi yoxud realizatsiya qilinishi uchun maxsus ruxsatnoma bo'lishi talab etiladigan mahsulotni tegishli sertifikati, lisenziyasi bo'lмаган taqdirda reklama qilish;
- 5) agar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda utilgan bo'lmasa, boshqa mahsulot reklamasida qo'llaniladigan umumiy yechim, matn, tasvir, musiqali yoki ovozli ohanglarga aynan taqlid qilish (nusxa ko'chirish yoki o'xshatma qilish);
- 6) jismoniy shaxsning nomi yoki tasviridan uning roziligidan foydalanish;
- 7) pornografiyani ommalashtirish taqiqlanadi.

Voyaga yetmagan shaxslarga mo'ljallangan reklamaga doir cheklashlar quyidagi reklamalar taqiqlanadi:

- faqat voyaga yetgan shaxslarga muljallangan yoki voyaga etmagan shaxslarning olishi yoxud iste'mol qilishi taqiqlangan mahsulotni iste'mol qilayotgan yoki undan foydalanayotgan voyaga yetmagan shaxslar tasviri tushirilgan reklama;
- voyaga yetmagan shaxslarni mahsulot olishiga yoki reklama qilinayotgan mahsulotni olishni iltimos qilib uchinchi shaxslarga murojaat etishga da'vat qiluvchi reklama;
- haqiqiy yoki o'yinchoq quroldan foydalilanigan reklama.

Reklama beruvchining huquq va majburiyatları. Reklama beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- reklama xususida shartnoma tuzish to'g'risida oshkora taklif (ommaviy oferta) kiritish;

- reklama tayyorlovchi va tarqatuvchi shartnomani asossiz ravishda bekor qilgan hollarda, yetkazilgan zaraming o'rmini va ma'naviy zaramni qoplash to'g'risida da'vo bilan sudga murojaat qilish.

Reklama beruvchi-reklama tayyorlovchi va tarqatuvchining talabiga binoan reklama axborotining ishonchlilagini tasdiqlovchi hujjalarni taqdim etishi;

- agar reklama beruvchining faoliyati litsenziyalanishi zarur bo'lsa, mahsulotni yoki reklama beruvchining o'zini reklama qilayotganda tegishli lisensiya taqdim etishi shart.

Reklama beruvchi qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va zimmasiga o'zga majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Reklama tayyorlovchi va tarqatuvchining huquq va majburiyatları.

Reklama tayyorlovchi va targatuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- ommaviy oferta yo'llangan shaxsdan belgilangan tartibda aksept olganidan so'ng reklama beruvchi shartnoma tuzishdan bosh tortgan xollarda, bu shaxsni shartnoma tuzishga majburlash to'g'risidagi hamda reklama beruvchining shartnoma tuzishni asossiz ravishda rad etganligi tufayli etkazilgan zaraming o'rmini qoplash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilish;

- qonun hujkatlarida belgilangan hollarda reklama beruvchidan tegishli lisensiya talab qilish.

Reklama tayvorlovchi va targatuvchi:

- reklama faoliyati va homiylik qoidalarini bajarishi;

- axborot yoki boshqa materiallarni bergen shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligesiz oshkor qilmasligi;

-reklama beruvchi qonun hujjatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan axborot bergan taqdirda reklama beruvchini bu haqda vaqtida xabardor etishi shart.

Reklama tayyorlovchi va tarqatuvchi qonun hujjatlariga muvosiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va zimmasiga o'zga majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Reklamaga bo'lgan mualliflik huquqi-reklamaga bo'lgan mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni tartibga solish qonun hujjatlariga muvosiq amalga oshiriladi.

Reklamani aynanlashtirish-reklama, uni tarqatish shakllari yoki vositalaridan qat'iy nazar, boshqa axborotdan reklama deb hisoblash mumkin bo'ladi gan darajada aniq ajratilgan bo'lishi kerak. Televideniye va radiodagi reklama boshqa dasturlardan uning boshlanishi va oxirida audio, video, aralash vositalar yoki boshlovchilarning sharhlari yordamida ajratib qo'yilishi lozim.

Mahsulotga qiziqishni shakllantirish va mahsulot realizatsiyasiga ko'maklashish uchun iste'molchilarining e'tiborini mahsulotning muayyan markasiga (modeliga, artikuliga) yoki uning ishlab chiqaruvchisiga izchillik bilan jalb etuvchi, shuningdek mazkur mahsulotni ishlab chiqaruvchi yoki tarqatuvchi shaxsga taalluqli ma'lumotlardan (rekvizitlardan) iborat axborot materiali, mualliflik va tahririyat materiali reklama hisoblanadi hamda u "Reklama" yoki "Reklama o'rnila" rukni ostida joylashtirilmog'i lozim.

Homiylik. Teleko'rsatuvalar, radioieshittirishlarni uyshtirishda, boshqa ommaviy axborot vositalari uchun materiallar tayyorlashda teatr-konsert, sport tadbirlari va soha tadbirlarini tashkil etishda homiyalar qatnashishi mumkin.

Reklama televidenie va radio, audiovizual mahsuloti bilan bog'liq bo'lgan va homiylik xizmatlaridan, foydalanilayotgan taqdirda, homiyalar to'g'risidagi axborot ko'rsatuvning boshlanishida va oxirida qisqa va aniq ko'rsatilishi kerak. Homiyining yonida yoki uning o'miga uning tovar belgisi ko'rsatilishi mumkin.

Yangiliklar to'g'risidagi teleko'rsatuvlarda va radioeshittirishlarda homiylarning xizmatlaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Noto'g'ri reklama. Noaniqligi ikki xil ma'noni anglatashi, bo'rttirib yuborishi yashirib ketishi oqibatida reklamani tarqatish vaqta, "oyi va usuliga nisbatan qo'yilgan talablarni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablami buzishi natijasida reklamadan foydalanuvchilarni chalg'ituvchi yoki chalg'itishi mumkin bo'lgan shaxslarga shuningdek davlatga zarar va ma'naviy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan reklama noto'g'ri reklama hisoblanali. Noto'g'ri reklama taqiqlanadi. Reklamani noto'g'ri deb topish to'g'risidagi qarorni vakolatli davlat organi qabul qiladi.

Yashirin reklama. Yashirin reklama iste'molchining idrokiga uning o'zi anglamagan holda ta'sir o'tkazadigan shu jumladan maxsus videoilovalardan (qo'sh ovozli yozuvdan) foydalanish yo'li bilan hamda boshqa usullar bilan ta'sir o'tkazadigan reklamadir. Yashirin reklamadan radio, tele, video, audio va kino mahsulotda shuningdek bosma mahsulotda foydalanishga va uni o'zga usullar bilan tarqatishga yo'l qo'yilmaydi.¹⁶

Qiyosiy reklama Qiyosiy reklama raqobashiga yoki uning tomonidan taqdim etilayotgan muayyan bir turdaga mahsulotga bevosita yoki bilvosita aynaqlashtiriladigan reklamadir. Agar reklamada mahsulotning moddiy, muhim, ishonchli xossalari xolisona va halol taqqoslansa, agar bunda reklama undan foydalanuvchini chalg'itab qo'ymasa va chalg'itib qo'yishi mumkin bo'lmasa, reklama beruvchi bilan raqobashi shaxsi yoki reklama beruvchining va raqobashining tovar belgilari, firma nomi, mahsuloti aralashib ketmasa hamda raqobashini yoki uning tovar belgilarini, firma nomini, mahsuloti yoxi faoliyatini badnom etmasa, ishechanlik obro'siga putur yetkazmasa.

Ijtimoiy reklamali axborot Ijtimoiy reklamali axborot sog'liqni saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish, energiya resurslarini ehtiyyot qilish,

¹⁶ Манба- Узбекистон Республикаси “Реклама тарбияти”ги Конунин маълумотларидан олинган

huquqbazarliklarning oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga doir axborot, shuningdek tijorat yo'sinida bo'limgan boshqa axborotdir. Shaxslarning ijtimoiy reklamali axborotni bepul asosda tayyorlash va tarqatishga doir faoliyati, o'z mol-mulkini ijtimoiy reklamali axborot tayyorlash va tarqatish uchun boshqa shaxslarga berishi xayriya faoliyati deb e'tirof etiladi.

5.3. Reklama klassifikatsiyasi (sinflanishi)

Reklama klassifikatsiyasi (sinflanishi) tahlil va qo'llash maqsadida reklamaning ko'p turlarini tartibga solish uchun kerak. Klassifikatsiya (sinflanish) asosini reklama vositalari tashkil etadi. *Reklama vositasi*—bu ma'lum bir shakl va ko'rinishda axborot uzatish uchun biron bir tashuvchidan foydalangan holda reklamani namoyish etish usulidir. Reklama vositalari reklama xabari yetkazilishi uchun iste'molchiga qanday usullar yordamida ta'sir qilish mumkinligini aniqlaydi.

Reklama vositalariga quyidagilar kiritiladi: vizual (ko'rish), akustik (eshitish), grafik (ko'rish), predmetli (sezish) va hid bilishga ta'sir qiladigan hamda ularning birikmalari. Tarqalish turiga qarab reklama quyidagilarga bo'linadi: bosma, audio-vizual, kompyuterlashgan, tashqi, pochta orqali, suvenirlarda (esdalik sovg'alarda) transportda, namoyish. Mutaxassislar asosan **reklamani 6 turga ajratadilar**:

1) *Iste'molchi reklamasi-keng* iste'mol tovarlarini va uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari, shuningdek, iste'mol xizmatlarini reklama qiladi. Bu reklama turi eng keng auditoriyali OAVga mo'ljallangan, bundan tashqari, maxsus gazeta va jurnallardan ham foydalaniladi.

2) *Professional reklama*-ning maqsadi nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarni, shu jumladan, xomashyo, detallar va qo'shimcha uskunalar, ishlab chiqarish texnika va texnologiyasi, ofis jihozlari va kanselyariya tovarlarini siljitishdan iborat.

3) *Savdo reklamasi*—sotuvchilarga va birinchi navbatda ulgurji savdogarlar, agentlar, import va eksport qiluvchilarga yo'naltirilgan. Uning o'ziga xosligi shundaki, tovarlar olib sotish uchun reklama qilinadi.

4) *Chakana savdogarlar uchun reklama*—savdo va iste'mol reklamalari o'rtaida oraliq bosqich hisoblanadi. Uning asosiy shakkllari—buyurtmalar bilan ishslash, ya'ni reklamaga to'g'ridan-to'g'ri javob va do'kondan tashqarii sotish bilan shug'ullanish.

5) *Moliyaviy reklama* — bank, ipoteka, birja, sug'urta va kapital qo'yilmalarga xizmat qiladi. U ssuda berish yoki olish, sug'urtalashning barcha turlarida, aksiyalar sotishda, investitsiya fondlari faoliyatida, obligatsiyalar va nafaqa fondlari haqida ma'lumotlarni chop etishda muhim hisoblanadi.

6) *Yollash haqida reklama*—uning maqsadi personalni shakllantirishdir. Uning 2 ko'rinishi mavjud-ish beruvchining shaxsan o'zining reklamasi va bo'sh turgan ish joyiga xodimlarni jalb qilgan paytda ulush (komissionno'e) oladigan ish beruvchi agentliklar nashrlari.

"Aksireklamali reklama" biror bir reklamani tanqid qilish maqsadida yaratiladi. Uning mohiyati boshqa reklama roliklari va siljitim usullariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishdan iborat.


Insafsizlik bilan qilingan reklama—raqobashi firmalar obro'siga putur yoki moddiy zarar keltiradi va, afsuski, hozirgi kunda ko'p uchraydi.

Reklama kompaniyalariga sarflanadigan katta xarajatlar ba'zan firmani individual reklamadan voz kechib, *kollektiv* (*jamoaviy*) reklamadan foydalanishga majbur qiladi. Masalan, har xil korxonalarda ishlab chiqarilayotgan bir nechta mahsulotni (tennis raketkasi va sport oyoq kiyimi) reklama qilish mumkin. Bu strategiya samarali bo'lishi uchun tovarlar o'zaro mos kelishi va uinumiyl maqsadga ega bo'lishi kerak.

Bir xil turdag'i mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga *go'shma reklamadan* foydalanish ma'qulroqdir. Bu holatda aniq (konkret) bir korxona

emas, balki har xil korxonalarda ishlab chiqarilgan bir mahsulotning o'zi reklama qilinadi.

Iqtisodiyotning turli sohalarida reklamadan foydalanishning *o'ziga xos xususiyatlari* mavjud. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonaning reklama faoliyati ishlab chiqarish vositalarini harid qilish ratsional yechimlarga asoslanganligi gipotezasiga tayanadi va uning markazida axborot uzatish bo'ladi. Reklama asosan professional nashriyotlarda chop etiladi. Reklamani rejalshtirish jarayoni o'z ichiga bir necha bosqichlarni oladi va u 2-rasmda keltirilgan. Birinchi bosqichda reklama (firma) obyektlari va tovar xaqida faol va bo'lajak haridorlarga xabar berish zarur bo'lgan axborotlar aniqlanadi. ✓
Ikkinci bosqichda reklama subyekti, ya'ni iste'molchilar va haridorlar guruhi yoki harid xaqidagi qarorga ta'sir qiluvchi shaxslar aniqlanadi, reklama e'lonlari ularga murojaat qiladi. Uchinchi bosqich - bu reklama sabablari, ya'ni haridorlami tovarga e'tiborini jaib qilish uchun urg'u beriladigan narsa.
To'rtinchi bosqichda reklama vositalari turini nisbatan eng ma'qulini tanlash. ✓



2-rasm. Reklama faoliyatini rejalshtirish bosqichlari.

Bunda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

- kanalning axborot, ko'ngilochar ma'lumot beruvchi vazifalari;
- reklama xabarining harakteri;
- kanalning texnik imkoniyatlari;
- kanalning auditoriya maqsadlariga to'g'ri kelishi;
- reklama tadbirlarini o'tkazish vaqtini tanlash;
- reklama kanalining davriyligi.

Beshinchi bosqichda reklama xabari tuziladi, sarlavha shakkantiriladi, matn tuziladi, rasmlar chiziladi, xodimlar, reklamani yetkazib beruvchilari, musiqani janri tanlanadi.

Oltinchi bosqichda reklama chiqishlari, reklama tadbirining jadvali tuziladi, reklama turlari, uning tarqatish vositalari bo'yicha vaqlarda muvofiqlashtiriladi.

Yettinchi bosqichda reklama tadbirlarida harajatlar smetasi tuziladi, ya'ni harajatlarning umumiyligi miqdori va alohida moddalar bo'yicha haridorlarning taqsimlanishi aniqlanadi. Yakuniy sakkizinch bosqichda dastlabki reklama samaradorligi aniqlanadi, ya'ni reklama faoliyatini natijasida tayyor mahsulotlarni sotish natijalari belgilanadi.

Reklama budgetini rejalashtirish reklamaga ajratilgan mablag'lami umumiyligi miqdori, ularni taqsimlash, ya'ni ulardan qanday tartibda va qanday hajmda foydalanimishini doimo ko'rsatish aniqlanadi.

Amaliyotda reklama harajatlari doirasini aniqlashning turli xil usullaridan foydalilanadi. Oldingi yil harajatlaridan kelib chiqqan xolda, ular maqsadlar va vazifalarni hisobga olgan holda oldingi yildagi sotish hajmida 3 %ni tashkil qiladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi, jahon bozoriga chiqish reklama faoliyatining rivojlanishini talab qiladi. ✓

5.4 Reklama faoliyatini tashkil etishda reklama vositalarini bo'lishning ahamiyati va obyektiv zarurligi.

Reklama faoliyatini tashkil etishda talab etilayotgan klassifikatsiyalarga bo'linishining ahamiyatiga ko'ra asosan ularni qismlarga bo'lib o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Televideniye va radiodagi reklama. Teleradiotashkilotlar uchun reklamaga ajratilgan ko'rsatuvi (eshittirish) vaqti ko'rsatuvning (eshittirishning) har bir soatiga 10 %dan ortib ketmasligi kerak. Bu talab ko'rsatuvning (eshittirishning) ixtisoslashtirilgan reklamaviy kanallariga tatbiq etilmaydi. 45 daqiqadan ortiq davom etadigan konsert-tomosha va sport dasturlari, kino- va telefilmlar reklama uchun to'liq 45 daqiqlik vaqtini 10 %dan oshmasligi kerak. Reklama ko'rsatuvlarning boshlanishi bilan yoki ular tugaganidan so'ng joylashtirilishi ham mumkin. 10 daqiqadan kam davom etadigan teleko'rsatuvlarga (radioeshittirishlarga) umuman, 10 daqiqadan ortiq davom etadigan teleko'rsatuvlarga (radioeshittirishlarga) esa bu teleko'rsatuvlarning (radioeshittirishlarning) mualliflik huquqi egasi bilan kelishmasdan turib reklama joylashtirilishi mumkin emas.¹⁷

Davlat anjumanlari va marosimlari olib ko'rsatilayotgan (eshittirilayotgan) paytda uni uzib reklamani ko'rsatib (eshittirib) olish taqiqilanadi.

Bolalar davrasiga (o'n to'rt yoshgacha bo'lganlarga) mo'ljallangan ko'rsatuvlarda (eshittirishlarda) reklama taqiqilanadi. Bu taqiq ijtimoiy reklamali axborotga tatbiq etilmaydi.

Teleko'rsatuvlarning boshlovchilar, direktori va boshqa qatnashchilar reklama uchun ajratilgan vaqtdan tashqari paytda mahsulotni atayin namoyish qilish yoki uning iste'mol xususiyatlarini bevosita yoki bilvosita tavsiflash huquqiga ega emas.

Televideniye va radio xodimlariga axborot niqobi ostida reklama bilan shug'ullanish, ya'ni mahsulot ishlab chiqaruvchining rekvizitlarini, joylashgan

¹⁷ Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы. Учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.

manzilini, telefon raqamini, mahsulotning tijorat belgilarini ko'rsatish taqilanganadi.

Bosma ommaviy axborot vositalaridagi reklama. Bosma ommaviy axborot vositalaridagi reklamaning hajmi, mavzusini shu ommaviy axborot vositalarining o'zлari mustaqil belgilaydi. Obuna bo'yicha tarqatiladigan bosma vositalar obuna shartlarida nashrning umumiy hajmidagi reklama miqdorini ko'rsatishlari shart.

Reklama yo'sinidagi xabarlar va materiallarni berib borishga ixtisoslashmagan davriy bosma nashrlarda reklama davriy nashr bir soni hajmining 40 %dan ortib ketmasligi lozim, qolgan reklama bepul ilova tarzida berilishi kerak.

Telefon va hujiatli elektr aloqadan foydalaniladigan tarzdagi reklama

Oluvchining maxsus so'rovi bo'limgan taqdirda bir manzilga bir varaqdan ortiq bo'limgan hajmda bir marta jo'natish tarzida teleks va faksimil aloqa yordamida reklama qilishga yo'l qo'yiladi.

Mahalliy, shaharlararo yoki xalqaro telefon aloqasidan foydalanib taqdim etiladigan xizmatlar reklamasi uni reklama vositalarida tarqatilganda quyidagi aniq axborotlardan tarkib topishi kerak:

- xizmatning pulli yoki bepul yo'sinda ekanligi hamda uning qiymati to'g'risidagi axborot;
- taklif etilgan xizmatning mazmuni to'g'risidagi axborot;
- xizmat iste'molchilari doirasiga nisbatan qonun hujjalarda belgilangan hamda xizmatning ishlab chiqaruvchisi tomonidan belgilangan - yoshga doir va boshqa cheklashlar to'g'risidagi axborot;
- telefon aloqa kanalidan pulli foydalanish va tegishli mintaqada xizmat olish uchun undan foydalanishning I daqiqa qiymati to'g'risidagi axborot.

Bunda nazarda tutilgan axborot reklama xizmatini taqdim etish uchun foydalaniladigan telefon raqami terilgan shrift hajmining kamida yarmiga teng hajmdagi shrift bilan bosilishi zarur.

4. Davolab bo'lmaydigan yoki davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga nisbatan samarali terapeutik usul.

5. Qo'llanishi va realizatsiya qilinishi uchun tegishli davlat organlari tomonidan berilgan maxsus ruxsatnomasi bo'limgan kosmetika vositalari, maishiy kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, vitaminli va biologik jihatdan ta'sirchan oziq-ovqat qo'shimchalarini reklama qilish taqiqilanadi.

Ushbu moddaning qoidalari tibbiy muassasalar va tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan reklamaga tatbiq etilmaydi. Tibbiy muassasalar va tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan dori vositalarini reklama qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tamaki mahsulotlari va alkogollli ichimliklar reklamasi

Tamaki mahsulotlari va alkogollli ichimliklar reklamasi tamaki chekish va alkogollli ichimlikni iste'mol qilishning zarari haqida ogohlantirish bilan qo'shib olib borishi kerak. Tamaki mahsulotlari va alkogollli ichimliklar jami reklamasi maydonining kamida 5 % i hamda televide niye va radiodagi reklama roligi esir vaqtining kamida 3 soniya ana shunday ogohlantirish uchun ajratilishi zarur.

Tamaki va tamaki mahsulotlari, alkogollli ichimliklar reklamasi chekish va alkogollli ichimliklarni iste'mol qilish jarayonlarini namoyish etishdan iborat bo'lmasligi, bu jarayonlar ijtimoiy va sport yutug'iga erishish uchun yoki iste'molchilarning jismoniy va ruhiy holati yaxshilanishi uchun muhim ahamiyatga ega, degan taassurot tug'dirmasligi kerak.

Tamaki va tamaki mahsulotlari reklamasi tibbiy, sport, muktabgacha tarbiya, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridan kamida ikki yuz metr narida, alkogollli ichimliklar reklamasi esa - kamida besh yuz metr narida joylashtirilishi kerak.

Quyidagilor taqigilanadi:

1. Quvvati 28 darajadam ortiq bo'lgan alkogollli ichimliklarni reklama qilish.

2. Televideniye va radioda ertalab soat 7 dan kech soat 22 gacha tamaki mahsulotlarini va quvvati 28 darajagacha bo'lgan alkogolli ichimliklarni reklama qilish.
3. Tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar namunalarini reklama maqsadida voyaga etmagan shaxslarga bepul tarqatish.
4. Asosan voyaga yetmagan shaxslarga mo'ljallangan tadbirlarga, agar ularda tamaki mahsulotlari yoki alkogolli ichimliklarning nomi yoxud tasviridan foydalanimadigan bo'lsa, homiylik qilish.
5. Voyaga yetmagan shaxslarga tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarning nomi va tovar belgisi qo'llanilgan tovarlarni (futbol maykalari, bosh kiyimlar, o'yinlar va shu kabilarni) tarqatish, shu jumladan sotish.
6. Voyaga yetmagan shaxslarga mo'ljallangan bosma nashrlarda tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni reklama qilish.
7. Gazetalarning birinchi sahifalarida, jurnallarning va boshqa davriy nashrlarning muqovalarida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni reklama qilish.

Qurol-yarog' reklamasi. Qurol-yarog'n ni reklama qilish faqat maxsus nashrlarda, shuningdek bevosita ovchilik qurollarini realizatsiya qiluvchi savdo tashkilotlarining binolarida yoki tegishli ko'rgazmalarda (tadbirlarda) amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar va aholining mablag'larini jalb etish bilan bog'liq xizmatlar reklamasi.

Qimmatli qog'ozlarni va aholining mablag'larini (banklardagi mablag'larini sug'urta mablag'lari va shu kabilarni) jalb etish bilan bog'liq xizmatlarni yoki shunday xizmat ko'rsatayotgan shaxslarni reklama qilishni faqat bunday faoliyat turi bilan shug'ullanish huquqini tasdiqlaydigan tegishli litsenziya bo'lgan taqdirda amalga oshirish mumkin. Bunday xizmatlar yoki shunday xizmat ko'rsatuvchi shaxslar reklamasida kutilayotgan daromadlar miqdorini,

shuningdek bo'lajak foya(daromad) to'g'risidagi boshqa axborotni ma'lum qilish taqiqlanadi, kamida bir yillik yakunlarga ko'ra amalda to'langan foya (daromad) bundan mustasno.

Qimmatli qog'ozlar va aholining mablag'larini jalg etish bilan bog'liq xizmatlar reklamasi taqozo etgan munosabatlarni tartibga solish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Reklama materiallarini saglash muddatları Reklama beruvchi, reklama tayyorlovchi va tarqatuvchi reklama materiallarini oxirgi marta reklama e'lon qilingan (ko'rsatilgan) kundan boshlab bir yil davomida saqlashi shart.

Reklama axborotiga taallugli hujjatlar va materiallar olish

Reklama beruvchi, reklama tayyorlovchi va tarqatuvchi o'z zimmasiga reklama to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat olib borish yuklatilgan davlat organlarining talabiga ko'ra, ular belgilagan muddatda reklama axborotiga taalluqli hujjatlar va materiallarni taqdim etishi shart.

Reklama beruvchilar, reklama tayyorlovchilar va tarqatuvchilarining reklamaga taalluqli hujjatlarini va materiallarini moneliksiz olish huquqi monopoliyaga qarshi davlat organining mansabdor shaxslariga beriladi.

Tijorat siri hisoblangan va ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan mansabdor shaxslar tomonidan olingan ma'lumotlar oshkor qilinmasligi kerak.

Monopoliyaga qarshi davlat organi yoki reklama to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan dazlat nazoratini amalga oshiruvchi boshqa organning mansabdor shaxslari tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni oshkor qilgan taqdirda, reklama beruvchiga, reklama tayyorlovchi va tarqatuvchiga yetkazilgan zaraming o'mi shu jumladan ma'naviy zarar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Aksilreklama. Vakolatli davlat organlari reklama to'g'risadagi qonun hujjatları buzilganligini aniqlagan taqdirda, qonunbuzar mazkur organlarning qaroriga binoan va ular ko'rsatgan muddatda aksilreklama berishi shart.

Aksilreklama berish ixtiyoriy ravishda yoki sudning qaroriga binoan ham amalga oshiriladi. Aksilrekama berishni amalga oshirish bilan bog'liq barcha harajatlar qonunbuzar tomonidan qoplanadi.

Agar qonunbuzar aksilreklamani reklama to'g'risidagi qonun hujjatlariga rivoja etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ belgilagan muddatda bermasa, mazkur organ qonunbuzarning reklamasini u aksilreklamani bergunga qadar to'liq yoki qisman to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilishga hamda reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxs bilan shartnoma tuzgan taraflarni bundan xabardor qilishga haqlidir. Aksilreklama raddiya berilayotgan reklama eblon qilingan ayni o'sha ommaviy axborot vositalarida, ayni o'sha muddat, makon, joy va tartibdan foydalangan holda beriladi.

Aksilreklamaning mazmuni qonunbuzarlik holatini aniqlagan va uni tuzatish to'g'risida qaror qabul qilgan tegishli davlat organi bilan kelishiladi. Ayrim hollardagina bu organning qaroriga binoan aksilreklama beriladigan ommaviy axborot vositasi, muddat, joy va tartib o'zgartirishlariga yo'l qo'yilishi mumkin.

Reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Reklama beruvchilar, reklama tayyorlovchilar va tarqatuvchilar monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan quyidagi miqdorlarda jarimaga tortilishi mumkin:

- noto'g'ri reklama bergenlik uchun, tashqi reklamani joylashtirish tartibiga rivoja etmaganlik va aksilreklama berishdan bosh tortganlik uchun yuridik shaxslar - ekg kam ish haqining yuz baravaridan besh. yuz baravarigacha miqdorda, jismoniy shaxslar esa eng kam ish haqining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda;

- reklamaga taalluqli ma'lumotlami ushbu Qonunning 27-moddasida ko'rsatilgan davlat organlariga belgilangan muddatda taqdim etmaganlik uchun yuridik shaxslar - eng kam ish haqining qirq baravaridan ellik baravarigacha

miqdorda, jismoniy shaxslar esa - eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda:

- reklama to'g'risidagi qonun hujjalari buzilishini tugatish haqidagi ko'rsatmalarni o'z muddatida bajarmaganlik uchun yuridik shaxslar eng kam ish haqining yuz baravarigacha miqdorda, jismoniy shaxslar esa eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda.

Qisqacha xulosalar

Reklama faoliyatini olib boruvchi har bir korxona va tashkilotlar o'zlarining oldiga qo'gan asosiy maqsadlari bozorda keng faoliyat yurgizib yuqori foyda olishni ko'zlaydilar. Reklama vositasi ma'lum bir shakl va ko'rinishda axborot uzatish uchun biron bir tashuvchidan foydalangan holda reklamani namoyish etish usulidir.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Reklama vositalarining xususiyatlari.
2. Reklama vositalari tasnifining mohiyati va mazmuni.
3. Reklamani tasniflarga bo'linishi ahamiyati.
4. Reklamalarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Reklama faoliyatining elementlari.
6. Reklama klassifikasiyalarining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Reklama vositalari va ularning ahamiyati.
8. Reklama vositalarining xususiyatlari.
9. Reklamaning tasniflarga bo'linishi va obyektiv zarurligi.
10. Reklama faoliyatini tashkil eish jarayonida reklamaning elementlari.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Забин Д., Бребах Г. Прицельный маркетинг. Новые правила привлечения и удержания клиентов/ пер. с англ. Прал. Тит. Англ.-М.:Изд. Эксмо, 2006.-304с

2. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: Учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.
3. Мудров А.Н. Основы рекламы: учебник / А.Н. Мудров. – М.: Экономист, 2005. – 319 с.
4. Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.-414 с.
www.dis.ru.
[Rambler-http://www.rambler.ru/](http://www.rambler.ru/);

6-bob. BOSMA REKLAMA TURLARI

6.1. Bosma reklamaning iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Bosma reklama turlari-tovarlarni reklama qilishda, reklama turlari ichida eng asosiy o'rin tutadi. Bosma reklamalar orqali barcha aholiga ularni qiziqtiradigan turli xildagi masalalar, muammollar va boshqa kerakli ma'lumotlar har kuni yetkazib turiladi. Bu reklamalar va e'lonlar o'zining arzonligi va qulayligi bilan boshqa reklama turlariga nisbatan ham keskin farq qiladi. Bosma reklamalar o'z navbatida aholining iste'mol talabini shakllanishida, aholini estetik jihatdan iste'molini tarbiyalashda, shuningdek, savdo korxonalari va shoxobchalarini xo'jalik faoliyati asosiy ko'rsatkichlарini yaxshilanishiga va o'sishiga uzviy ta'sir ko'rsatishga qaratilgandir.

Bosma reklamalar, reklama qilinayotgan obyektlarni tanlashda ularning nihoyatda ixchamliligi bilan, potensial haridorlar kontingentlarini tanlashda, reklama tadbirlarini o'tkazish muddatlarini belgilashda va ularni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu reklamalar, maxsus reklama korxona va tashkilotlari tomonidan tayyorlanib, individual, alohida olingan har bir potensial iste'molchilar e'tiboriga havola qilingan va to'g'ridan-to'g'ri ularga yo'naltirilgan bo'ladi.

Tezkorligi, qaytarilishi va keng tarqatilishiga ko'ra matbuotdagi reklamaning vositalari ichida eng samaralsi hisoblanadi.

Qator chet el davlatlarida unga ketgan sarf-harajatlar reklamaga sarflangan harajatlarning katta qismini tashkil etadi. Bizning mamlakatda ham reklamaning bu turi ancha rivojlanayapti. Reklama e'lonlarini chop etish uchun buyurtma oluvchi ommaviy-siyosiy va ixtisoslashgan nashrlar soni yildan-yilga ko'paymoqda.

Matbuotdagi reklama potensial haridorlarning xohlagan guruhibiga yetib borishi uchun eng to'g'ri keladigan nashri tanlashi zarur. Buning uchun gazeta, jurnallar va unga turli kiritmalar ro'yxatini tuzib, tirajini ham bilish kerak. Turli-

tuman matbuot nashrlari orasidan taklif etilayotgan mahsulotlar reklamasi uchun foydalanish mumkin bo'lganini tanlash lozim. Ma'lum bir nashrning oxirgi 2-3 ta sonidagi bir necha muhim materiallarni o'qib, siz taklif qilayotgan tovar potensial haridorlarda qiziqish uyg'ota olishi haqida fikr yuritish mumkin.

Savdo, ishlab chiqarish va mutaxassis doiralar haqida so'z borganda matbuot nashrinining o'quvchi auditoriyasini o'rganish muhimdir. Masalan: tibbiyotning maxsus bo'limiga bag'ishlangan davriy nashrnini mingtadan kamroq odam o'qisa, umumiy yo'nalishdagi tibbiyot jurnallarini un minglab shfokorlar o'qishi mumkin. Lekin shu mingtadan kamroq odamlar aynan reklamaga jalb etilishi lozim bo'lgan odamlar bo'lishi mumkin.

Rejalashtirilayotgan reklama kompaniyasi doirasida foydalanish uchun tanlanayotgan nashrning afzalliklarini baholash ko'pincha tom ma'noga tayanadi. Ammo, solishtirishning matematik usuli ham mavjud bo'lib, u reklama kompaniyasini rejalashtirishning boshlang'ich qismida foydali bo'ladi. Aniq nashrning savdo-netto ko'rsatkichini va undagi reklama sahifasini olib, oddiy formula yordamida 1000 ta o'quvchiga nisbatan reklama narxi ko'rsatkichi hisoblanadi:

$$Pr = \frac{Pn}{T} * 1000^{18}$$

bu yerda: Pr-1000 ta o'quvchiga nisbatan olingan reklama narxining ko'rsatkichi, so'mda, Pn- aniq nashrda reklama sahifasi narxi so'mda, T- nashrning sotilish-netto ko'rsatkich(tiraj), nusxada.

Agar, 100 ming nusha tirajli jurnal reklama sahifasi uchun 18500 ming so'm olsa, reklamaning narxi mingta o'quvchiga nisbatan olganda quyidagicha bo'ladi:

$$Pr = \frac{18500000}{100000} * 1000 = 185000$$

¹⁸ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности Учеб. Пособие для вузов. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

Lekin bu ko'rsatkich har doim ham rosmana ishonchili va aniq mo'ljal bo'lmaydi, chunki turli nashrlarda sahifalarning hajmi turlichadir va bundan tashqari turli nashrlarning o'quvchi auditoriyalari reklama qilinayotgan mahsulotning potensichal haridorlaridan sezilarli farq qilishi mumkin.

Reklamani joylashtirish uchun nashrni tanlashda uning davriyligi katta ahamiyatga ega. Kundalik gazetalar sutka davomida tashlab yuboriladi. Mahalliy haftaaro gazeta yoki jurnalga ko'pincha bir necha marta qaraladi va 7 kun saqlanadi. Oyida bir marta chiqadigan jurnallar yanada ko'proq muddatga saqlanadi.

Kundalik gazetalarni haftaaro gazetalarga qaraganda oila a'zolari kamroq o'qishadi, kechki nashrlarga ko'pincha televizion dasturlar bo'Igani uchungina murojaat etiladi. Haftalararo va oylik jurnallarni oila a'zolari o'qib bo'lishgach, do'stlariga beradilar. Boshqa tomondan, kunda chop etilishiga va murojaatni hafta davomida bir necha bor takrorlash imkonini beradi. Bundan tashqari, ular reklamaga dolzaroblik muhitini beradi va gazetani tez tashlab yuborilishi esa o'quvchilarni tezkorlik bilan harakat qilishga chaqiradi.

Shundan kelib chiqib, reklama kompaniyasini rejalashtirishda nashrning davriyligi hisobga olinishi kerak helgan zarur omil hisoblanadi. Ma'lumki, kundalik va haftalik nashrlardan bir zumda ta'sir ko'rsatish va dolzarblik muhitini yoritish yo'lida foydalanish mumkin. Oyda bir marta chiqadigan nashrlar esa uzoq muddat esga solib turishi mumkin.

Yilda bir chiqadigan, davriy bo'Imagan nashrlardan foyda olish kamroq bo'ladi. Lekin, sizga ma'lum bo'Igan, ma'lumotnomasi sifatida qo'llaniladigan joylarni sotib olish mumkin. Lekin, shunda ham e'lonni qiziqarli material yonida bosib chiqarilishni talab qilish kerak.

Rang haqida-fotosuratlar, rasmlar yoki slaydlarni bosib chiqarishda rangli bosmadan foydalanish ancha qimmatliligiga qaramasdan, ma'lum vaqtarda to'liq o'zini oqlashi mumkin. Ba'zida e'lonni oq-qora variantda joylashtirib, o'quvchilarni o'zingizda bor bo'Igan rangli nashrlarga bo'Igan talablarini

yuborishlarini so'rashingiz mumkin. Biroq, savdo yoki texnik jurnalda ko'p rangli varqa yoki alohida bosilgan prospekt kiritilishi qanchaga tushishini oldindan aniqlash lozim.

Ko'p rangli e'londardan tashqari, qoradan boshqa standart rangdan-odatda ko'k, qizil yoki sariqdan foydalananib sahila yoki yarim sahifaga buyurtma berish mumkin. Reklama kompaniyasi davomiyligida birgina rangdan foydalanish reklamaga ko'proq e'tibor jalb qiladi va uni taniqligini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun bu usul juda qadrli bo'lishi, ma'lum bir 2-rangni qo'llash imkoniyati esa nashrn ni tanlash jarayonida muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuni aytib o'tish joizki, gazetadagi 2-rangda chop etilgan e'ltonni, oq-qora rangdagisiga qaraganda 22 % ko'p odam o'qiydi.

Reklama kompaniyasini o'tkazishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan barcha nashrlarning boshlang'ich sharxini tugallagach, reklama beruvchi yoki reklama agentligi o'ziga eng to'g'ri keladiganini tanlashgga, ularning ro'yxatini tuzishga kirishishi mumkin va reklama uchun joy sotib olish uchun birinchi qadamlarni qo'yishi mumkin.

Nashrdagi reklamaning joylashgan o'mi uning samarasiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, jurnalning oxirgi varaqlarida o'ziga o'xshash ko'p e'londar orasidagi 1/4 sahifali e'lonnning muhim redaksion material yonida birgina o'zi joylashtirilgan xuddi shunday (1/4 sahifali) e'longa qaraganda o'qilish va e'tibor qilish ehtimoli kamdir.

Shuningdek, sahifadagi e'lonnning o'mi va hatto bu e'lon bosilgan sahifaning o'zi ham ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi isbotlangan. Ko'pgina reklama beruvchilar e'ltonni o'ng sahifaning o'ng tomonidagi yuqori burchagiga joylashtirish ideal hol deb hisoblashadi, zero o'quvchining e'tiboriga, albatta, boshqa ko'pgina omillar, ya'ni e'lon bilan yondosh joylashgan materiallar, e'lonnning dizayni va sahifaning boshqa materiallariga nisbatan kontrastlik darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Agar sahifada shriftlar va og'ir vaznli illyustrasiyalari ko'p bo'lsa, atrofida bo'sh joylar ko'p bo'lgan, to'g'ri

to'rtburchak ko'rinishida, bir necha so'zdan iborat matnli e'lom-joylashgan o'miga bog'liq bo'lmanan holda e'tiborni o'ziga jalb etadi. Ba'zi nashrlar ayniqsa savdo va texnik nashrlar-o'zlarining maketlarini shu yo'sinda ko'radilarki, bunda e'lomlar doim qandaydir redaksion material yonida bo'ladi. Gazetalar ham huddi shunday yo'l tutadilar, bunda e'lomlar ko'pincha redaksion kalonkalarga tutashgan yoki ulardan uzoq bo'lmanan yerda bo'ladi.

Ammo redaksion material bilan yondoshlik hisobga olinishi kerak bo'lgan birgina holat emas. Faqat ayollarga tegishli bo'lgan mahsulot e'lomini gazetaning ko'pincha erkaklarga o'qiydigan sport sahifasiga joylashtirish be'mani bo'lur edi. Bolalarga mo'ljallangan material yonida havaskor ustalar uchun mahsulot reklamasi o'rinsizdir, uni yaxshisi uyga qarash, uni joriy ta'mirlash haqidagi maqlolar yonida joylashtirish kerak.

Ko'p hollarda reklamaning joylashgan o'mi shunday muhim ahamiyatga ega bo'ladiki, bu haqda chop etuvchi bilan aniq kelishib olish kerak. Sizdan qo'shimcha haq so'rashlari mumkin, lekin ba'zida sizdan reklama uchun standart yoki pasaytirilgan tarif bo'yicha e'lomlar seriyasini nashr etishga buyurtma olish uchun yaxshi joy rag'batlantirish sifatida kafolatlanadi, bu joy esa «chop etuvchining qaroriga ko'ra» belgilanadi. E'lomni xech qachon boshqa e'lomlar ko'p bo'lgan erga joylashtirish kerak emas. Sharhnomalar tuzayotganda buni asosiy shart qilib ko'ying va zarur bo'lganda yaxshi joylar uchun qo'shimcha haq to'lang, bu bilan siz o'z reklamangizga anchagini samarani ta'minlab berasiz.

E'lomlarning katta kichikligi ham ahamiyatga ega. Agar bozorda yangi mahsulot chiqarayotgan bo'lsa, uni qo'llash, afzalliklari haqida aytib o'tish uchun katta maydonlar kerak bo'ladi. Ammo kamtarona budjet bilan ham pulni iqtisod qilish va o'quvchilarda tovar haqida ko'proq bilishga qiziqish uyg'otish mumkin, so'ngra esa ularni namoyish zaliga borishga, telefon orqali qungiroq qilishga, varaqsa so'rashga yoki mahalliy dilerga kirishga undash mumkin, buning uchun kam formatli e'lomlar seriyasini joylashtirish kerak.

E'lonning o'lchamlari uning takrorlanish ehtiyoji, reklama assignovaniyalari kattaligi bilan, reklama murojaati xususiyatlari, ko'zlangan maqsad va shu kabilar bilan belgilanadi. Mavjud maydonga e'lon aniq tushishini bilmasdan turib, hech qachon reklama uchun joyni band qilib qo'y mang. Juda kichik maydonni sotib olish-halokat bo'lganidek, juda katta maydonni sotib olish-isrof garchilikdir.

6.2. Matbuot reklamasi

Matbuotda reklama gazeta, jurnal, spravrchnik va yilnomalariga bo'linadi.

Gazeta reklamasi. Geografik qamrovi jihatidan gazeta nashrlari umummamlakat miqyosida hududiy va mahalliy jihatlarga bo'linadi.

Tematicasiga ko'ra ularni badiiy nashr, siyosiy nashr, reklama e'loni, dam olishga doir va maxsus nashrga bo'lish mumkin. Gazetaning chiqish chastotasiga ko'ra: kundalik-yangiliklar va biznes xabarlar bilan; kechki-dam olishga doir ko'pgina axborotlar bilan; yakshanbalik-ko'pgina reklamalarni o'z ichiga oladi.

Gazeta hajmi o'quvchi auditoriyasiga bog'liq, yakshanba kunlari chiqadigan gazetalarda tiraj ko'proqdir.

Gazetalar milliy Ommaviy Axborot Vositalariga(OAV) tanlab olingan. Hozir gazetalar auditoriya ulushi va reklamaga sarflanadigan vositalar uchun boshqa OAVlar bilan raqobat kurashini olib bormoqda. Gazeta bozorining hajmi 310 mln. AQSH dollariga yetdi (maxsus nashrlarni hisobga olgan holda) yillik o'sish 29 % ni tashkil etmoqda.

Gazetada reklamaning berilishi asosan 3 turi mavjud bo'lib ular: ruknli, namoyishli, ilovali reklamalardan tashkil topadi.

Ruknli reklama o'quvchilar qiziqishlariga muvofiq holda gazetada joylashtiriladigan xabarni o'zida aks ettiradi. Masalan, «ko'chmas mulk savdosi», «avtomobillar savdosi», «kvartira ayirboshlash» va h.k.

Namoyish reklamasi istalgan o'lchamda bo'ladigan va varaqning istalgan yerida joylashtiriladigan (muharrirlik ishidan tashqari) pullik xabar. Namoyish reklamasi mahalliy va respublika darajasida bo'lishi mumkin. Mahalliy darajadagi reklamaga pastroq narxlardagi reklama tariflari bo'yicha haq to'lanadi. Respublika miqyosidagi reklamaning qiymati mahalliynikidan 75 % ko'proq.¹⁹

Ilovalar ma'lum bir vaqt oralig'idan so'ng paydo bo'ladigan umumiy va mahalliy reklama qo'yilmasini ifoda etadi. Ilova ko'rinishi bo'lib gazeta betlari o'rtasiga joylashtiriladigan erkin reklama qo'yilmasi hisoblanadi. Gazetalar reklama beruvchidan material qo'yilmasi uchun haq va reklamani ma'lum bir gazeta sonida chiqarish uchun maxsus tariflar oladi. Gazetada reklamani 3 turga bo'lish mumkin:

1) oddiy gazetadagi imtiyozli-axborot reklamasi bunda haridor gazetadagi axborot uchun haq to'laydi, u reklamani noxush deb hisoblaydi, lekin shu bilan birga axborot uchun zaruriy qo'shimcha ham deb hisoblaydi;

2) reklama uchun mo'ljallangan maxsus gazetadagi reklama-agar haridor bu gazetani sotib olsa, ongli ravishda reklamani o'qishni istaydi, shu bois gazeta reklama uchun hech qanday cheklanish bo'lmaydi;

3) tekin gazetadagi reklama reklama buruvchilar uchun va haridorlar uchun eng optimal variant bo'lib hisoblanishi ham mumkin.

Matbuotda reklamasini o'tkazish uchun mos keladigan nashrni tanlashda potensial iste'molchilarining istalgan guruhini jalg etishga qodir bo'lgan barcha gazeta va boshqa davriy nashrlarning ro'yxatini tuzish zarur. Bu ishbilarmonlar uchun mahalliy gazeta, har haftada chiqadigan hududiy gazeta, ishlab chiqarish firmalariga beriladigan maxsus gazeta nashrlari bo'lishi mumkin. Gazentalarni gayta o'rganish va tahlil qilishda reklamani berishda omillarning e'tiborga molik sonini ko'rib chiqish talab qilinadi.

¹⁹ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов.- М.: ЮНИТИДАНА, 2004.

Nashrning yo'naltirilganligi, ixtisoslashganligi va imidji- marketolog va reklama bo'yicha mutaxassislar birinchi navbatda e'tibor berishi kerak bo'lgan tushunchalardir.

Tiraj-quyidagicha baholanadigan omildir: u qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha ko'p sotilish darajaga ega.

Aholi qamrovi-davriy nashrning bir yoki undan ortiq sonlarini o'quvchilar soni. Gazeta reklamasini joylashtirishni baholashda chop etiladigan manbalarning «qo'shimcha auditoriya»ga ega ekanligi (gazetani uni o'qib bo'lgan odamning do'stlari, qarindoshlari, hamkasblari o'qiydi)ni yodda tutish muhimdir.

Nashr reytingi-nashrning bitta soni bilan aholining qamrab olinishi, ya'ni ma'lum bir vaqt oraliq'idagi nashr oluvchilar, o'quvchilar yoki uni o'qib chiquvchilarning umumiyligi soni. Reytingni aniqlashda tadqiqoshilar tomonidan respondentlardan bosma nashrning real nashrga chiqarilgan hajmi, nashr qiluvchi e'lon qilgan tirajdan farq qilish darajasi, bitta sonni o'quvchi kishilarning o'rtacha soni singari so'rovni o'tkazish jarayonida aniqlanadigan sirkulyatsiya usuli qo'llaniladi. Umuman olganda, nashr reytingi odamlarning aniq bir soni bilan yoki ko'proq umumiyligi aholi sonidan foizlarda ifodalananadi. Bitta gazeta sonining o'rtacha auditoriyasi (AIR-Average Issue Readership)–nashrning o'rtacha sonini o'qiydigan yoki ko'rib chiqadigan individlar soni. U quyidagicha aniqlanadi:

AIR=(gazetaning oxirgi sonini o'quvchi individlar soni/potensial o'quvchilarning umumiyligi soni)*100 %

Masalan, gazetaning oxirgi X sonini o'quvchi individlar soni 50000ta, potensial individ hajmi esa 200000ta odam. Demak,

$$\text{AIR} = (50000/200000)*100 \% = 25 \%^{20}$$

20 Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

Auditoriya profili—nashrni o'quvchi auditoriyadagi aholining maqsadli sotsial-demografik guruhining foizdagi ifodasi. Reklama beruvchi potensial iste'molchilarning mukammal saralangan guruhiга o'z murojaatini yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi va keraksiz tiraj paydo bo'lishining oldini oladi.

Muvofiqlik indeksi-bu maqsadli guruhdagi davriy nashr reytingining shahar aholisidagi davriy nashr reytingiga nisbatan 100 ga ko'paytmasi. Maqsadli guruhdagi nashrning muvosiflik indeksi qancha yuqori bo'lsa, shu nashrda joylashtirilgan reklamaning ta'siri shunchalik yuqori yo'naltirilgan bo'ladi. Indeksning ko'rsatkichi 200 atrofida bo'lsa, nashrning maqsadli guruhdagi o'quvchilari butun aholi orasidagiga qaraganda 2 marla ko'proq bo'ladi, buning natijasida nashrga bo'lgan qiziqish ortadi. Indeks kamayishi bilan maqsadli guruhdagi o'quvchilar soni kamayadi. Indeksning 80-120 atrofida ko'rsatkichi shuni ko'rsatadiki, nashrga maqsadli guruhda ham, shaharning butun aholisida ham deyarli bir xil qiziqish bor.

Realizatsiya hajmi—tirajning bozorda sotilgan, imzo bilan olingen, bepul berilgan qismini o'zida aks ettiradi.

Nashirning davriyligi—kundalik gazetalarda reklamani aniq bir kunda chop etish va murojaatni hafta davomida bir necha bor qaytarish imkoniyati mavjud; oylik va kvartallik gazetalar uzoq muddatga esda tutuvchilar uchun muhim rol o'ynaydi. Davriylikni belgilashda kriteriya chastota hisoblanadi, ya'ni auditoriya necha bor reklamani gazetada ko'ra olish imkoniga ega bo'lgan. O'rtacha chastota + umumiy reyting/qamrov (% da)

Bitta gazeta sonining o'rtacha hayoti – bitta guruh uchun bir soatdan ikki oygacha, jurnallar uchun olti oydan ko'proq.

Nashr formati – amaliyot shundan dalolat beradiki, katta va juda kichik formatlardagi nashrlar o'rtacha formatdagiga qaraganda kamroq sotib olinadi. Katta formatga A1 (840x594mm) standart qog'oz varaqning x ulushiga teng bo'lgan A2 (420x297mm) kiradi. O'rta format A3 (420x297mm) + ulushga ega. Shuningdek, kichik format A4 yoki 1/8 ulushli (297x210mm) hamda A5 ni 1/16

ulushli (210x148) bo'ladi. Nashrning formati reklamaning yodda saqlanib qolinishiga ta'sir ko'rsatadi.

6.1- jadval

E'lon formatiga reklamani yodda qolishining o'zaro bog'liqligi

| Reklama formati | Yodda qolish koefitsiyenti |
|-----------------|----------------------------|
| 2 bet | 1.22 |
| 1 bet | 1.0 |
| x betli | 0.75 |
| + betli | 0.6 |

Rang-to'liq rangli bosmada foydalanish qimmatga tushadi, lekin ayrim hollarda o'zini oqlaydi. Ma'lumki, butun bir reklama kampaniyasi davomida u yoki bu rangdan foydalanish reklamaga ko'proq e'tiborni jalb qilishga olib keladi va uni yaxshiroq bilib borishga yordam beradi.

6.2- jadval

Reklamani esda saqlab qolish va e'lon rangi o'rjasidagi bog'liqlik

| Ranglar soni | Esda qolish koefitsiyenti |
|---------------------------|---------------------------|
| 4 xil rang | 2.0 |
| 2 xil rang | 1.4 |
| oq-qora tasvir (standart) | 1.0 |

Format va rangning e'tiborga umumiyligi ta'sirini aniqlash uchun. Esda saqlab qolish indekslarini bir-biriga ko'paytirish kerak.

Reklama e'loniga bo'lgan e'tibor parametrlari – juda muhim omil hisoblanadi. Gazetada berilgan reklamani o'rtacha 87 % o'quvchi o'qishi mumkin, lekin aslida ularning yarmiga yaqini, ya'ni 43 %gina uni e'tibor bilan o'qiydi. Markaning nomi yoki logotipini 34 % o'quvchi ko'rsa, taxminan 19% e'lon matnnini butunlay yoki yarmini o'qiydi. Bosma reklama e'loni uchun u gazetaning qayerida joylashganligi va hajmi juda muhim o'rinni tutadi.

6.3-jadval

Gazetaning qayerida joylashganligiga qarab reklamaning o'quvchilar

e'tiborini tortishi %

| Sahifadagi joyi | Chap sahifa | O'ng sahifa |
|-----------------|-------------|-------------|
| YUqorida | 28 | 33 |
| Pastda | 16 | 23 |

6.4 – jadval¹

Reklama xahari hajmining uni o'qiyotgan o'quvchilar soniga ta'siri

| Reklama hajmi | Uni o'qigan o'quvchilar soni, % |
|---------------------------|---------------------------------|
| Varaq qismi | 24 |
| Bir bet | 40 |
| Bir betning ikkala tomoni | 55 |

Lekin reklama bilan ularning kam qismigina qiziqib qoladi. Shunday qilib, jurnal beti bilan teng reklama e'loning barcha o'quvchilari 0.05dan 0.20 % gacha tashkil etadi, ya'ni o'quvchilar reklamaga nisbatan telefon yoki xat orqali munosabat bildirishgan. Bu shuni bildiradiki, reklama e'loni maksimal darajada mingta o'quvchidan 2 tasinigina qiziqtirib qolishi mumkin.

Nemis reklamachisi S.R. XaaSning fikricha reklamaning o'quvchilar tomonidan qabul qilinish samarasi orqa-oldi betdag'i ma'lumotning qabul qilinishi orqali aniqlanadi. 6.5 – jadvalda gazeta orqa – oldi betdag'i reklamaning e'tibor tortishi kamayish tomonidan ko'rsatilgan, ya'ni 1-dan (eng yaxshi) 20-gacha (eng samarasiz).

Nashriyot tahlili va joy sotib olish – reklamani bosib chiqarish uchun joy sotib olish rejasida quyidagilar bo'lishi kerak: nashriyot nomi, adadi, e'lон hajmi, nashrlar sanasi, I nashming narxi, umumiylar narxi, nashrlar jadvali.

Tarqalish hududi-gazeta tanlashda e'tibor berilishi kerak bo'lgan eng muhim omillardan biridir.

6.5 – jadval

Gazeta varag'idagi reklamaning e'tiborni tortish samarasi tahlili

| Orqa – oldi betning chap qismi | | | Orqa – oldi betning o'ng qismi | | | Tushuntirish |
|--------------------------------|----|----|--------------------------------|----|---|---------------------------|
| 3 | 5 | 12 | 11 | 2 | 1 | Betning yuqori choragi |
| 7 | 14 | 20 | 19 | 10 | 4 | Yuqori sahifaning o'rtesi |
| 8 | 16 | 24 | 23 | 15 | 6 | Pastki sahifaning o'rtesi |
| 13 | 18 | 22 | 21 | 17 | 9 | Betning pastki choragi |

¹ Васильев Г.А., Полков В.А. Основы рекламной деятельности Учеб. Пособие для вуза. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

Reklama samaraliligi koeffitsiyenti – u har bir gazeta uchun hisoblanadi. Sababi boshqa OAV auditoriyasi bilan gazeta auditoriyasining ehtimollik foizini solishtirish uchun kerak bo'ladi.

Tanlovlik indeksi – maqsadli bozoming reklama tashuvchisi ulushiga to'g'ri keladigan auditoriya foizining shu bozomi tashkil etuvchi aholi foizi bilan taqqoslanishidir.

Tanlovlik indeksi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_{tan} = d/d_{mb}$$

Bu yerda d – maqsadli bozorda reklama tashuvchisining o'quvchilari foizi.

d_{mb} – maqsadli bozomi tashkil etuvchi aholi ulushi foizi.

Yalpi baholash koeffitsiyenti – reklama e'loni bilan qamrab olingan auditoriyadir.

Reklama harajatlari – adadi ko'rsatkichi va reklama sahifasi qiymati yordamida aniqlanadi. Masalan, 400 nusxa adadiga ega gazetada A4 formatda reklamaning qiymati 30000 so'm bo'lsa, potensial mijozni jalg qilishga ketgan harajatlar quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Harajat} = 30000/400 = 75 \text{ so'm}$$

Kishi boshiga ketadigan har xil tovarlar uchun reklama xarajatlari har xil bo'ladi, va u turli hududlarda turlicha bo'ladi. Eng ma'qul me'yor kishi boshiga 30 so'm hisoblanadi.

Tarif stavkasi – satr, sahifa, vaqt va ma'lum hududni qamrab olishi maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lган reklama faoliyati uchun stavka.

Gazetalaridagi reklama e'loni nashrlari qiymatini taqqoslash uchun «Millayn» tarifidan foydalilanildi. Bu tushuncha ostida 1 mill. nusxa adadida bosib chiqarilgan reklama matnining bir satrining nashr etilishi qiymati tushuniladi.

Ko'pchilik G'arb gazetalari joyning standart birligi - satr ko'rinishida hisob – kitob asosida ishlab chiqarilgan tariflarini yozib chiqaradilar. Satr 1/14 dyuym balandlik va 1 ustun kengligi hajmini egallaydi. Shuni aytib o'tish

kerakki, «Millayn» tariflarini faqatgina taqqoslama adadga ega bo'lgan nashriyotlar bilangina taqqoslash mumkin. «Millayn» quyidagicha hisoblanadi:²²

$$M = T \cdot 10^6 / Ha$$

Bu yerda: M – «Millayn» tarifi,

T – hisob satri uchun tarif,

Ha – nashrning haqiqiy adadi.

Ba'zan bu maqsadda «trullayn» tarifidan foydalaniлади:

Trullayn q satr uchun tariff obunachilar soni^{*} 1000000

Misol uchun, Rossiya nashrlarida tariflar tizimi I sm² bosma maydoni narxidan yoki o'z ichiga bir necha o'n kv. sm ni oladigan modullar tamoyillaridan kelib chiqadi. Jurnal va gazeta tariflari 1000 o'quvchiga nisbatan hisoblanadi. Boshqa bir xil ustun o'lchamlariga ega bo'lgan nashr paydo bo'lgan taqdirda ham, bu koeffitsiyent eng qulay va to'g'ri yo'lni tanlashda yordam beradi. Uning narxi 1000 hisob satri (gazeta ustuniga)ga teng bo'lgan reklama e'lonini 1000ta obunachiga yetkazib berish ko'rsatkichiga bog'liq bo'lib, u quyidagi formula orqali topiladi:

$$N_{tr} = T_s \cdot 1000 / H_a$$

Bu yerda: N_{tr} – 1000ta hisob satri uchun tarif narx;

T_s – sahifa uchun tarif;

H_a – nashrning haqiqiy adadi.

Nashr auditoriyasi hajmi asosida tariflarni qiyoslashda 1000 ta aholi hisobiga qo'llaniladigan nashr tarif stavkasini qo'llash mumkin. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$N_{sm} = T_s \cdot 1000 / A_h$$

Bu yerda:

N_{sm} – auditoriya hajmiga qarab qo'llaniladigan narx;

²² Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности. Учеб. Пособие для вузов - М ЮНИКИД-ДАНА, 2004.

A_h – auditoriya hajmi.

Gazeta uchun reklama maketini yaratish va uni joylashtirish uchun chiqimlarni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalilanildi:

$$M_{ya} = T_{mya} * SQT_{mj} * S$$

Bu yerda:

M_{ya} – maket yaratish, T_{mya} – $1sm^2$ maket yaratish uchun tarif, so²m, T_{mj} – $1sm^2$ reklama maketini joylashtirish uchun tarif, so²m, S – maket hajmi, sm²

6.3. Bosma reklamani o'tkazish tartibi

Bosma reklama vositalari, o'zining xususiyatlariga, qo'llanilish usuliga, reklamalarning harakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- varaqalar;

- prospektlar;

- kataloglar;

- bukletlar;

- maxsus reklama nashrlari;

- xatlar;

- otkritkalar eslatmalar sotilgan mollarga qo'shib beriladigan doimiy nashrlardagi-jurnallar va gazetalardagi e'lonlar, maqolalar va boshqalar.

Varaqalar bitta yoki bir nechta tovar gurmhlarini, masalan, velosipedlarni, magnitofonlarni, materiallarni va shuningdek boshqa nooziqovqat mollarini keng targib qilishda qulayligi bilan ajralib turadi. Varaqalarda reklama qilinayotgan tovarlarning eng muhim xususiyatlari, sisati kabi belgilariga asosiy e'tibor berilib, iste'molchilar (haridorlar) nazariga tez tushadigan, ularning e'tiborini o'ziga tortadigan darajada qilib tasvirlanadi.

Prospektlar texnik murakkab tovarlarning keng yoritilgan harakteristikalarini, ularning tayyorlanish texnologiyasini va ulardan qanday

qo'llanilish usullarini maxsus ko'rsatmalar, rekomendasiyalar orqali yoritishga mo'ljallangandir. Prospektlarni chikarishdan maqsad, iste'molchilarini (haridorlari) tovarlarni xususiyatlari, konstruktiv tuzilishi, mollarni kafolatli ishslash muddatlari, ulardan soydalanish usullari va qanday asrash, saqlash yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazib berishdan iborat. Prospektlar asosan, kommertsiya - tijorat faoliyatida ko'proq qo'llaniladi, va ular kichik broshyura tariqasida, bir nechta nusxalarda chiqariladi.

Kataloglar asosan, ma'lum bir savdo shoxobchasi, firma tiziimida mavjud bo'lgan ayrim olingen yoki tovarlar nomenklaturasi to'g'risidagi ma'lumotlarni keng yoritib berishga mo'ljallangan. Unda har bir tovari tasviri tushirilgan bo'lib, uning qisqacha harakteristikasi, xajmi, baholari ko'rsatilgan bo'ladi. Kataloglar, qo'llanili-shiga ko'ra, iste'molchi-kontingentlar holatiga ko'ra 1000, gohida 10000 gacha tirajlarda, varaqning 1/8, va 1/16 qismida chop etiladi. Ushbu reklama turlari na faqat iste'molchilar yoki haridorlar uchun balki, savdo xodimlari va mutaxassislari uchun ham mo'ljallangan bo'ladi.

Bukletlar-respublikamizda hozirgi davrda, reklama vositalari ichida aytarli darajada rivojlanmagan, ammo, keljakda istiqbolli reklama turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. U asosan, pochta orqali ("Direkt meyl") adresli, katta varaqalarda, tovarlarni sur'atlari tarzida yoki jadvallar ko'rinishida ifodalanib iste'molchilarga yuborishga mo'ljallangandir.

"Direkt meyl"-pochta orqali yuboriladigan reklama turlari, chet el reklama vositalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning hisoblariga ko'ra, hamda savdo tashkilotlarining reklama bo'yicha smeta harajatlari statistik ma'lumotlariga ko'ra, jami yil davomidagi reklama harajatlarining 14 %ini tashkil etadi. Mutaxassislarning fikricha, ushbu reklama turining afzalliklari:
-auditoriyada iste'molchilarning tanlab, saralab olingenligi;
-ixchamliligi;
-reklamalarni jo'natishda, tarqatish bo'yicha raqobashilarining yo'qligi;
-shaxsiy haraktyerdaligi kabilardan iborat.

Shuningdek, kamchiliklari, esa:

-nisbatan qimmatliligi;

- "makulaturachilik"-qog'ozbozlik holatlariga yo'l qo'yilishdan iboratdir.

Maxsus reklama nashrlari-xatlarda otkritkalar eng oddiy, ixcham va sodda reklama turlaridan iborat bo'lib, asosan, yirik ixtisoslashgan nooziq-ovqat savdo shoxobchalarida va universal do'konlarda eng ko'p muntazam ravishda doimo qo'llaniladi.

Xat, alohida olingan, donabay tovarlarni reklama qilishga mo'ljallangan bo'lib, tovarning asosiy xususiyatini aks ettiruvchi reklama tekstidan va illustratsiyalar (rasmlar bilan tasvirlash) dan iborat bo'ladi. Ushbu reklama turi, yirik savdo tarmoqlari buyurtmalari asosida, tipografiya uslubida tayyorlanadi yoki ko'paytiradigan maxsus apparatlarda keraklicha miqdorda ko'paytiriladi. Reklama xatlari, umumiy formada murojaat qilinayotgan adresatga (iste'molchilarga), tovarlarga haridor bo'lish ehtimoli bo'lgan iste'molchilarga, iste'molchi (haridor) ning familiyasini ko'rsatgan holda, pochta bo'limlari orqali yuboriladi.

Ushbu tartibda tayyorlangan reklama xatlari, qalin qog'ozlarda tayyorlanib, adresatga konvertsiz yuborish folder deb ham yuritiladi.

Savdo korxonalari va shoxobchalari reklama xatlardan tashqari, iste'molchilarni yangi keltirilgan tovarlar bilan tanishtirish maqsadida, turli xildagi va mavzudagi iste'molchilar konferensiyaning o'tkazishda, savdo ko'rgazmalarini tashkil etishda va boshqa tadbirlarni amalga oshirishda, iste'molchilarga maxsus tayyorlangan odday yoki firma otkritkalari pochta orqali yuboriladi.

Ushbu reklama vositasining afzalligi shundan iboratki, u avvalambor juda arzon, hamda istalgan har qanaqa ma'lumotlarni keng omma orasida tarqatishda kulay bo'lib, bu kichik savdo shoxobchalari, do'konlari uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Iste'molchilar (haridorlar)ga sotib olingan tovarlar- *eslatmalari* ushbu tovarlardan qanday foydalanish yo'llari, asrash usullari va tovaming boshqa xususiyatlari to'g'risida to'liq ma'lumot beradi. Misol uchun, kosmetika vositalaridan qanday foydalanish, erkaklar galstuklarini qanday boglash kerakligini yoki shlyapalarni tanlash yo'llarini, shuningdek, kiyimlarni yuvish, tozalash va qanday saqlash usulari kabi ma'lumotlarni targ'ibot qilishdan iboratdir.

Tovarlar bilan birga qo'shib beriladigan *muqovalar* sotib olingan tovarlar bilan birga beriladi. Ushbu muqovalarning teksda, tabriknoma, ma'lumotlar tariqasida izohlangan bo'ladi. Mazkur istaklar yoki tabriklar quyidagi shaklda yozilishi mumkin: "Haridingiz uchun rahmat!", yoki "Ishonamizki, siz bizning doimiy haridorimiz bo'lib qolasiz!" va hokazolar.

Bulardan tashqari tovarlarni *o'rash-joylash* materiallariga ko'ra reklama vositalari:

- savdo tarmog'ida va sanoat korxonalarida qo'llaniladigan reklamalarga bo'linadi.

Savdo tarmog'ida qo'llaniladigan *o'rash-joylash* materiallarida ishlataladigan reklamalari asosan, savdo tarmog'ini faoliyatini keng targib qilishga qaratilgan bo'ladi. Unda, savdo tarmog'ining manzili, joylashgan joyi, ishslash vaqlari, xizmat ko'rsatish usullari, hamda savdo shoxobchasining profiliga mos keluvchi tovarlarning tipik nusxalari ifodalangan savdo markalarining tasviri namoyon qilingan bo'ladi.

Hozirgi paytda *ishlab chiqarish tarmoqlarida* eng keng tarqalgan reklama turlaridan biri, o'zları ishlab chiqargan mahsulotlarini *o'rash-joylash* materiallarida reklama qilishdan iboratdir. Ushbu reklama vositasi orqali aholini mazkur tovarlarning bahosi, ishlab chiqaruvchi korxonasining harakteristikasi, tovarlardan qanday foydalanish va qanday tutish kerakligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, shuningdek, sur'at ko'rinishlari ifodalangan tovar

belgisi va etiketkasi, grafiq tuzilishidagi tasvirlari, harflarni, so'zlarni, rakamlarni o'zaro bir-biriga mos kelishligi bilan, ularning e'tiborini jalb qilishga qaratilgan.

Dovimiy nashrlardagi-jurnallar va gazetalardagi-reklama vositalari aholi o'rtaida eng ko'p va keng miqyosda tarqalgan reklama turlari bo'lib hisoblanadi. U o'zining omma o'rtaida keng tarqalgaligi uchun ham, barcha aholi tarkibiga, tashkilot va korxonalarga, ishlab chiqarish tarmoqlariga, savdo, tijorat sohalari xodimlari va boshqalarga zarur ma'lumotlarni yetkazishda va uning mohiyati bilan tanishtirishda keng imkoniyat darajasiga ega.

Jurnal reklama tarqatuvchisi sisatida sahifalar hajmiga va davriyiliga (haftalik, oylik, 2 haftalik, 2 oylik, kvartallik yoki yarim yillik) qarab 2 turga bo'linadi. Jurnallarning katta qismi oylik bo'lib, 2-o'rinda haftalik jurnallar turadi.

AQShda jurnal bozorining hajmi 160 mln. dollarni tashkil etib, yillik o'sish – 60 %ni tashkil etadi.

Tahririyat yo'nalishi bo'yicha jurnallar umumiyligi va tarmoq bo'yicha turlarga bo'linadi.

Shuningdek, jurnallar geografik qamrovi, demografik belgilari va tarkibiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

Auditoriyasiga qarab jurnallar quyidagicha farqlanadi:

- iste'mol-tovarlami shaxsiy iste'mol uchun sotib oladiganlar uchun;
- ishlab chiqarishga doir-tadbirkorlar uchun;
- sanoatga oid-ishlab chiqaruvchilar uchun;
- kasbiy-har xil kasb egalari uchun.

Jurnallar betlarining eng tarqalgan o'lchami 210*297 mm yoki 150*225 mm hisoblanadi.

O'quvchilar auditoriyasi. Yoshi kattalarning taxminan 92 %i oyda hech bo'limasa bir jurnal o'qishadi. O'rtacha jurnalni to'liq 54 daqiqada o'qishar ekan

va bunga ikki kun ketar ekan (har kun ozginadan). Kattalarning tahminan 79 % i jurnaldagи reklamani «haridlarni amalga oshirish uchun foydali» deb hisoblashadi. Ayollar erkaklarga nisbatan jurnalni ko'proq yaxshi ko'rishadi. Jurnal reklamasи televizion reklamaga nisbatan illustratsiyasi ko'pligi sababli ko'proq e'tiborni tortadi. Hisoblab chiqildiki, jurnal reklamasini o'ttacha 89 % o'quvchi ko'rishi mumkin ekan. Unga e'tibor beradigan o'quvchilar soni 49 % ni, tovar markasiga e'tibor bergan o'quvchilar soni esa 43 %ni tashkil etar ekan. Lekin 11 % o'quvchigina reklama matnini yarmigacha o'qiydi, bu esa reklamaga e'tibor qaratgan o'quvchilarning 22 % idir.

Jurnalda berilgan reklamaning afzallik va kamchilik tomonlari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Jurnal reklamalari tafsisi²³

| Afzalliklari | Kamchiliklari |
|---|---|
| <ul style="list-style-type: none"> -maxsuslashgan auditoriyaga murojaat qilish imkoniyatinining mavjudligi; -auditorianing zehnliligi; -geografik va ijtimoiy demografik jihatdan tanlash xususiyati; -jurnal yashash davrining uzunligi; -bajarishning yuqori sisatliligi va rangliligi; -takroriy o'quvchilarning ko'pligi; -gazetadagiga nisbatan reklamalarning murakkabligi | <ul style="list-style-type: none"> -reklama berilgan vaqtidan to'bosib chiqarilguncha bir necha oy o'tishi mumkin; -reklamaning qimmatligi; -jurnalning yaratilish texnologiyasi o'zgartirishlarni tez kiritishga imkon bermaydi; -reklama murojaati jadalligini oshirish imkonining yo'qligi; -reklama e'loni bir - biri bilan raqobatlashadi |

Reklama matnini yozish qoidalari. Reklama e'tiborni tortishi uchun u bir qancha qoidalarga asosan rasmiylashtirilishi kerak:

1. Ko'p rangli e'lolar oq - qoraga nisbatan 65 % ko'proq o'ziga jalb qiladi.
2. Ustun va sahifa ko'rinishidagi reklamar kvadrat va bo'yiga cho'zilgan reklamaga nisbatan ko'proq diqqatni tortadi.
3. Qiya joylashgan reklama afzallikka nisbatan kamchilik hisoblanadi.

²³ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности Учеб. Пособие для вузов - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

4. Yuqori sifatli illyustrasiya «oddiy»larga nisbatan 1,5 marta ko'proq odamda o'qishga bo'lgan ishtiyoqni tug'diradi.
5. Bitta katta illustratsiya ko'plab maydalardan ko'tra yaxshiroq. Lekin u g'ayrioddiy, kulgili va diqqatni tortadigan bo'lishi kerak.
6. Mashhur odamning rasmi hech kimga tanish bo'limgan odamning rasmiga nisbatan ko'proq diqqatni jalb qiladi.
7. Oq yoki sariq fonda qora rang yaxshi ko'rindi.
8. «Vinetka», ramka yoki aylana bilan o'raltan e'lon hech nima bilan o'ralmaganga nisbatan tezroq o'qiladi.
9. Inkor so'zlar va olib qochishlarni yo'q qilgan ma'qul.
10. Kerakli so'z yoki iboranai ajratib ko'rsatish kerak.
11. Matn qanchalik kam bo'lsa, shunchalik tez esda qoladi.
12. Ma'lum guruhi odamlarga odatiy bo'lgan shriftini qo'llash zarur.
13. Rasm bir qancha maqsadlarda ishlatalishi mumkin. Masalan, ota-onalar bolalarining birga mashinada o'tirishi-bu birinchidan, oilaning birligi va quvonchli voqeani ko'rsatsa, ikkinchidan bu avtomobil reklamasi hisoblanadi.
14. Illyustrasiya odamlarning orzu-istiklariga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, ichida yosh, yoqimli justlik o'tirgan sport mashinasining rasmi odamlarda sarguzasht qilish ishtiyoqini tug'diradi.

Jurnalda reklama maydoni betlar bo'yicha yoki uning qismlari bo'yicha sotiladi. Jurnaldagi ustunlar standartlashgan bo'lib, har xil jurnallarga turliha reklama tayyorlash kerak.

Rangli reklama oq - qoradan qimmatroq bo'ladi. Unchalik katta bo'limgan reklama e'lonini joylashtirishda uning boshqa reklamalardan ajralib turishi haqida o'ylash kerak.

Jurnaldagi reklama uchun eng yaxshi joy bu muqovaning 1-2-3-4-betlari hisoblanadi.

Jurnal reklamasini baholash ko'rsatkichlari. Baholash reklama e'lonining hajmi, ranglar soni, reklama joylashishi va tarqalish kanaliga bog'liq bo'ladi.

Reklamani o'qigan o'quvchilar soni reklama blokining o'lchamlariga ham bog'liq bo'ladi. Agar reklama aniq qilib joylashtirilgan bo'lsa, uni esdan chiqarish muddati 11 haftani tashkil etar ekan.

SHuning uchun potensial mijoz firma yoki uning mahsulotlari haqida unutmasisligi uchun yaxshi reklama kompaniyasini ishlab chiqish kerak va u davriy holda takrorlanib turishi kerak.

Jurnal reklamasini baholash ko'rsatkichlari gazetenikiga o'xshash bo'ladi. Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lib, 1000 ta o'quvchiga ketgan chiqim (MO'CH) hisoblanadi va u quyidagicha aniqlanadi:

MO'CH=sahifa yoki uning bir qismi uchun tarif* 1000/maqsadli auditorianing o'quvchilari.

Shu bilan birga reklama bo'yicha menejer chiqim statistikasini minglikning har birligi uchun hisoblab borishi kerak: sotuv, o'quvchilar, ko'ruchilar, tinglovchilar, yo'lovchilar, o'tkinchilar, oila va boshqalar. Masalan, A jurnalda reklama bilan to'la bet 10000 so'm bo'lishi mumkin, B jurnalda esa 8000 so'm. qaysi birini olish yaxshiroq?

Bunda eng muhim ko'rsatkichlarga, ya'ni haridorlar va o'quvchilar soniga e'tibor berish kerak. Undan keyin 1000 - uni o'quvchilari yoki haridorlariga ketgan chiqimni hisoblash zarur. Olaylik, A jurnal adadi 10000 nushani tashkil etsin. Shunday qilib, ming nushaga ketadigan reklama chiqimlari $10000/10=1000$ so'm. Lekin, B jurnalning adadi 5000 nusha bo'lsa, mingta nushaning narxi yuqoriroq bo'ladi ($8000/5=1600$ so'm). Shunday qilib siz nimaga pul to'lagan bo'lsangiz, shuni olasiz.

Bu muammoga boshqacha qarasa ham bo'ladi. O'quvchilarning sifatli tarkibi qanday? A jurnal-bu naf keltiruvchi harid bo'lsin. Unda, agar uni reklama mo'ljallangan odamlar emas, boshqalar sotib olsa, reklamani bosib chiqarish uchun ketgan chiqim zoye ketadi. Masalan, ko'p minglab haridorlar bilan ishlaydigan supermarketlar tarmog'iga ko'plab odamlar o'qiydigan

jurnalga pul to'lagani arzonroq tushadi. Boshqa tomondan, ko'p funksiyali kompyuter yaratuvchisiga bu jurnal umuman kerak emas.

6.4. Reklama e'lolarini marketing orqali baholash

Bunday baholash mutaxassis-marketologlar orqali quyidagi ko'rsatkichlarda aniqlanadi:

Nashr hajmi. Eng ko'p o'qiladigan nashrda 40 bet, kamroq o'qiladiganda - 80-160 bet, eng o'qilmaydigan jurnalda 200 bet bo'ladi.

E'londagi rang. Sahifaning yarmini egallagan va bitta qo'shimcha ranga ega bo'lgan reklama e'loni huddi oq-qora reklamaga teng bo'lgan diqqatni jalb qiladi. Sahifaning yarmini egallagan, lekin hamma ranglar bo'lgan reklamaning o'quvchilar auditoriyasi oq-qoraga nisbatan 85 %ga ko'p bo'ladi. Butun sahifa yoki bir betning ikki tomonini egallagan rangli reklama e'loning auditoriyasi oq - qoradan 50 % ko'p bo'ladi.

O'rtacha hisobda, hamma ranglari bo'lgan e'lon bitta qo'shimcha rangi bo'lgan oq-qora reklama e'lidan 22 % ko'proq o'quvchi jalb qilsa, oddiy oq-qora reklamalardan 68 % ko'proq o'quvchi diqqatini tortadi.

Rangli reklamaga oq-qoraga nisbatan 45 % ko'proq talab tushadi.

Reklamani uzatish usullari. Bosma material sifatida berilgan reklama axboroti odatiy reklama e'lona nisbatan kamroq seziladi, lekin uni ko'rganlarning ko'philigi o'qib chiqadi.

Tarkibida kulgili sujeti bo'lgan reklama e'lolarini huddi oddiy reklamaga teng diqqatni jalb qiladi, lekin 3 marta ko'proq o'qiladi. Bunday e'lolarni kattalarga nisbatan balog'atga yetmagan yoshlari o'qiydi.

Reklama e'londagi kupon undan ko'proq e'tiborni tortmaydi, lekin uni ko'rganlar reklamani ikki marta ko'p o'qiydi.

E'loning joyi. Nashrning birinchi betlarida joylashgan reklamaning o'quvchilari o'rtada yoki oxirgi betda joylashganga nisbatan 10 % ko'p bo'ladi.

Muqovaning 4-betida joylashgan reklama nashr ichidagi reklamaga nisbatan 65% ko'proq o'quvchini jalg qiladi. Muqovaning ikkinchi betida, shuningdek uning ro'parasida va 3-betda joylashgan reklama nashr ichida joylashgan reklamaga nisbatan 30 % ko'p o'quvchi diqqatini tortadi.

Nashr ichida joylashgan reklamaga bo'lgan e'tibor uning qaysi betda joylashganligiga bog'liq bo'ladi.

Betning pastki qismida joylashgan reklama yuqorida joylashgan reklamaga nisbatan ko'proq erkaklarni jalg qilsa, ayollar bunga umuman besfarq ekan.

Mahsus joylashtirish. Sahifaning markazida, ya'ni boshqa bosma materiallar bilan o'ralgan, lekin yonida boshqa reklama e'onlari bo'lmanan reklama butunlay o'ziga jalg qilar ekan. Nashrning har xil sonida, turli betlariда joylashgan hajmi bir xil bo'lgan reklama bitta nashr sonida chiqqandan ko'ra ko'proq diqqatni jalg qilar ekan.

Bir marta berilgan reklamaga qaraganda orada vaqt o'tib yana takroran berilgan reklama ko'proq samara beradi.

Nashr ichiga reklama yoniga qo'yilgan, unga bog'liq bo'lgan varaq qo'yilsa ham hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin, agar buklet qo'yilsa, o'quvchilar shunga ko'proq e'tibor berishi mumkin.

E'lonning shakli. Sahifaning 1/4 qismini egallasa va ustun ko'rinishida bo'lса, u kvadrat shaklidagi reklamadan ustunlikka ega bo'ladi, ayniqsa, ayollar auditoriyasida. Agarda betning o'rtasida, pastroqda ikkita yarim ustunlar shaklida olingen bo'lса, uni ko'proq sezishmasa kerak.

Gazetadagi eniga ko'ra bo'yiga uzunroq bo'lgan shakldagi reklama (vertikal to'rtburchak) juda baland yoki enli bo'lgan reklamaga ko'ra ko'proq samara beradi. Shu bilan birga unchalik baland bo'lmanan yoki enli bo'lgan reklamalar illustratsiyalar bilan bezatilsa yanada yaxshiroq.

Sahifaning 1/4 qismini egallagan baland ustun ko'rinishidagi reklama kvadrat ko'rinishidagi reklamaga nisbatan ko'proq e'tibor tortadi.

E'lon hajmi. E'lon hajmining o'sishi o'quvchilar soni o'sadi degani emas. Agar sahifaning 1/4 qismini egallagan reklama 40 ta o'quvchini jalg qilsa, 1/2 qismini egallagan reklama 80 ta emas 72 tani, bir sahifa esa 144 ta emas 130 ta o'quvchini jalg qiladi.

Ma'lum hajmga ega bo'lgan reklamaga 20 % o'quvchi e'tibor bergen bo'lsa, huddi shu reklamani 2 marta kattalashadirsa, uni 2 marta ko'proq sezishadi degani emas, u 20% kamayadi, ya'ni, 40 emas 36 %. Demak, reklamaga talab uning hajmiga bog'liqdir.

Takroriy e'lonlar. Nashrning har xil sonlarida berilgan takroriy reklama, huddi bir marta berilgan reklama bilan bir xil e'tibor tortadi.

Bir oy yoki undan ko'proq vaqtidan keyin takroran berilgan reklamaga bo'lgan e'tibor bir xil darajada turadi. 95 % auditoriyani qamrab olish uchun 8–12 sahifalik oq - qora e'lon bosib chiqarish kerak. Haridor tovar haqida unutib yubormasligi uchun yiliga 4 sahifa reklama bosib chiqarish kerak bo'ladi.

E'lonning mакeti. Ko'proq samara olish uchun maketni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- maketda asosiy o'ziga tortuvchi optik markaz bor;
- illustratsiyada tovar harakatda ko'rsatiladi. Masalan, uni ishlataoyган paytda:
 - sarlavha yoki illyustrasiyaning o'zgachaligi yanada e'tibor tortadi.
 - oilaning rasmi ko'rsatilgan bo'lsa, ismlar yoziladi. (bunday e'lon ismsiz odamlar ko'rsatilgan e'longa nisbatan ko'proq e'tibor tortadi)
 - illustratiya berilgan bo'lsa, rasm grafikasi yuqori sifatli bo'lishi kerak. (bu o'quvchilar sonini 50 %ga ko'paytiradi)

Mutuxassis-marketologlarning fikricha jurnal reklamasining 3 ta motivlashgan omillari bor:

1. rasmda tovarning iste'mol qiymati va haridning nafliligi aniq ko'rsatiladi.
2. tovarni iste'mol qilishning xususiyatlari va aniq shartlari ko'rsatiladi.

3. ishonchliligi.

Reklamaning hajmi. Agar bittasida 25 ta va ikkinchisida 125 ta so'z bo'lgan reklama e'lonlarining unumdarligini taqqoslaydigan bo'lsak ikkinchi reklamaning o'quvchilari 12 %ga ko'p bo'ladi.

Reklama e'lonidagi so'zlar 12 dan 100-150gacha ko'paysa, uni yarmigacha o'qiydigan o'quvchilari soni keskin qisqaradi.

Odatiy bir sahifali, rangli, 125 so'zli e'lonning o'sha kompaniya va uning tovarini taniydigan o'quvchilari 40 %, e'lonning yarmidan ko'pini o'qiydigan o'quvchilari-8 %ni tashkil etadi. 500 so'zli e'lonning yaqindan qarab 35 va 7 %ni tashkil etadi. 100 ta so'zni to'ldirib boradigan har bir 100 ta so'z e'lonni taniydigan o'quvchilar sonini 1 %ga kamaytiradi. Uni o'qigan o'quvchilarning yarmi yana 0,25 %ga kamayadi.²⁴

Reklama murojaati. Reklamadan taassurot olish va uning narxiga 3 xil murojaat ta'sir qiladi. *Illustratsiya*-bu o'quvchi birinchi bo'lib e'tibor beradigan narsa bo'lib-u e'tiborni tortishi uchun yetarli darajada qiziqarli va uni o'qishga ishtiyoq tug'dirishi kerak.

Matn-reklamaning asosiy matn bloki qisqa, lekin ishonchli bo'lishi kerak. Reklama joylashtiriladigan joy qimmat bo'lsada, u yaxshi yerdan tanlanishi kerak.

Lekin hamma shartlar bajarilgan taqdirda ham eng yaxshi reklamaga 50 % auditoriya e'tibor berishi mumkin, 30 %ga yaqini –sarlavhaning asosiy mavzusini eslاب qoladi, 25 %-reklama beruvchi fermaning nomini eslaydi, 10 % dan kamen esa matnning katta qismini o'qiydi.

Reklama murojaatini yaratishdan asosiy maqsad diqqatni tortishdir. Matnning asosiy diqqatni jalb qiluvchi qismi bo'lib sarlavha hisoblanadi. D.Ogilvining sikricha matnni o'qigan o'quvchilarga nisbatan sarlavhani

²⁴ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности. Учеб. Пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

o'qiganlar soni 5 %ga ko'proq bo'lar ekan. Shunga ko'ra agar siz samarali natija beradigan sarlavha tanlamasangiz 90 % omadni yo'qotishingiz mumkin.

Sarlavha 6 ta vazifani bajaradi:

- 1) e'tiborni tortib, o'z o'quvchisini topadi;
- 2) o'quvchilar qiziqqan narsaga ega;
- 3) o'quvchini asosiy matnga olib kiradi;
- 4) iloji boricha tijorat maqsadini to'liq tavsiflaydi;
- 5) haridorga hariddan naf olishi mumkinligini uqtiradi;
- 6) tovarda bo'lgan yangiliklarni ko'rsatib beradi.

Yaxshi reklama murojaatini yaratish uchun maslahatlar:

➤ o'quvchini qiynamasdan, gaplaringizni qisqa va oson so'zlar bilan yoriting;

➤ qisqa gapiring-nimani gapirmoqchi bo'lsangiz faqat shuni, undan kam ham, ko'p ham gapirmang;

➤ gapirganda faqatgina hozirgi zamonda va o'zingizni nomingizdan gapiring;

➤ shaxs olmoshlarini qo'llashdan qo'rwmang. Unutmang, siz har kimga alohida murojaat qilasiz: tasavvur qiling siz o'z do'stingiz bilan gaplashyapsiz;

➤ Oddiy so'zlarni gapirmang, yorqin, o'zgacha so'zlar o'quvchilar diqqatini ko'proq tortadi va uzoq muddat ushlab turadi;

➤ Gapingizni qisqa qiling, vergullarning ko'pligi odamni charchatadi.

Nashrlardagi e'lolnlar va ma'lumotlar, asosan, ulgurji hamda chekana savdo korxonalarida xalq iste'moli mollarini, shuningdek, yangi tovarlarni kelganligini, ularning muhimligini va ahamiyatliligini, ulardan qanday foydalanish va iste'mol qilish kerakliligini, savdo yarmarkalarini va bayram oldi tadbirlarini tashkillashtirish va amalga oshirish yo'llarini, turli xildagi sotuv-kurgazmalarini hamda namoyish-ko'rgazmalarini tashkil etish va o'tkazishni, iste'molchilarga mollarni sotish formalari, xizmat ko'rsatish sohalari va boshqa ma'lumotlarni yetkazishga mo'ljallangandir.

Gazeta va jurnallardagi chop etilayotgan ma'lumot va e'lonlar, mavzuiga qarab "aylanma stol" atrofida mutaxassislar yoki uybeklari bilan utkaziladigan suhbatlar, mutaxassislardan olinadigan intervylar, maqolalar, masalan, "Uybekasi maslahati", "Vrach maslahati", "Tanihing-yangilik" va boshqalar, tovarlarni sur'atlari va maxsus tayyorlangan illyustrasiyalar, texnik murakkab tovarlarning xususiyatlari bo'yicha mutaxassis maslahatlari kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Jurnallarda chop etilayotgan e'lonlar aholiga uzoq muddatlarda yetib borishligi bilan, ushbu jurnallarni aholini hamma qismi ham solib olmasligi, hamda chop etilayotgan jurnallarni nixoyatda chegaralanganligi va nisbatan qimmatliligidagi ko'ra iste'molchilar bu reklama vositasidan kam foydalanadilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda 609 ta gazeta nashr etiladi, shundan 357 tasi davlatga tegishli bo'lib, 161 tasi jamoat tashkilotlariga tegishli, 42 tasi tijorat, 47 tasi xususiy va 2 tasi diniy gazetalardan iboratdir.

Bundan tashqari mamlakatimizda 162 ta jurnallar nashr etilib, shundan 100 tasi davlatga, 45 tasi jamoat tashkilotlariga tegishli bo'lib, 13 tasi tijorat jurnallari va 4 tasi xususiy jurnallardan iboratdir.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni ancha og'irligi, xo'jaliklararo aloqalarni nomutanosibligi, respublikamizda ixtisoslashgan jurnallarni chop etish qiyinlashib bormoqda va ular kam nuxsada, 2 va 3 oylik muddatlar ichida bir marotaba chiqarilmoqda. Bizning respublikamizga MDH davlatlaridan yetib keladigan ixtisoslashgan "Коммерческая Вестник", "Торговля", "Потребительская кооперация" jurnallari va "Новые товары" bulleteni, hamda respublikamizda chop etilayotgan "Iqtisodiyot va hisobot" umumiyy ommabop jurnalni savdo-tijorat reklamalarining tarqatishda asosiy nashriyot vositalari sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Jurnallar orqali berilayotgan reklama vositlar, reklama vositalarining umumiyy hajmiga nisbatan tutgan hissasi, mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra 5,9-6,3 %ni tashkil etadi.

Jurnallar orqali berilayotgan reklamalarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- yuqori darajada geografik va demografik jihatdan iste'molchilarni tanlanganligi;
- haqqoniyligi va ma'lumotlarni to'g'riliqi, ishonchliligi, hamda qulayliligi;
- reklamalarni ishlab chiqarishni yuqori sifatliligi;
- uzoq muddatlarda saqlanib turishligi;
- ko'pchilik hollarda "ikkinchি marotaba" o'quvchilarning nihoyatda ko'pligi.

Kamchilik va nuqsonlari quyidagilardan iborat:

- reklamalarning paydo bo'lishi bilan jurnalda o'ren sotib olish orasidagi vaqtlnami uzoq muddatdaligi;
- chiqariladigan tirajlarning ko'pchilik hollarda foydasiz, samarasiz bo'lishligi;
- reklamalarni jurnalning ko'zlangan, istalgan joylarida joylashtirishni kafolatlanmaganligi va boshqalardan iboratdir.

Bosma reklama asosan chop etish usuli bilan olinadigan va mutlaq ko'rish hissiga mo'ljallangan asosiy reklama turlaridan biridir.

Bosma tasvirli reklama materiallarining barcha gammasini quyidagi asosiy guruhlarga bo'lish mumkin:

- ma'lum bir tovar turlarini, mahsulot va xizmatlarni reklama qiluvchi reklama-katalogli nashrlar (katalog, prospekt, buklet, afisha, plakat, listovka, brodsayt, flayer, press-reliz, so'nggi paytda bosma reklamaning faol tashuvchisi bo'lib telefon spravochniklari sanaladi);
- barcha reklama-katalog materiallarini ijodiy tarzda ishlab chiqilishida buyurtmachi tashkilot firma timsoli yaqqol ko'rsatilishi kerak, uning pochta manzili, teleks, faks, telefon, internet pochta va h.k.lar ko'rsatilishi kerak;
- devoriy, varaqlanadigan, biznes yilnomalari, cho'ntakbop kalendar-vizitkalar, tabriknomalar, sovg'a paketlari va boshqa logotip, slogan, rekvizitli bosma mahsulotni o'zida aks ettiruvchi reklama-sovg'a nashrlari; ular

favqulodda o'ziga jalb etish qobiliyatiga ega bo'lgan bosma reklama materiallarining o'ta samarali ko'rinishi hisoblanadi.

Quyida keltirilgan ma'lumotga ko'ra reklamaning afzallik va kamchiliklarini berib o'tishga harakat qilinib uni tahliliy jihatdan quydagicha keltirilgan.

Bosma reklamaning afzallikkari va kamchiliklari.

| Afzalligi | Kamchiligi |
|--|---|
| <ul style="list-style-type: none">Vizual ta'sir etish uchun bajarishning rang-barangligi«junbushga keltiruvchi» va lol qoldirish taktikasidan foydalanishhududiy joylashish, deyarli har bir ko'chadauzoq muddatli foydalanishning ta'minlanishiyaxshi yodda saqlanish | <ul style="list-style-type: none">qarnrab olinadigan auditoriya bilan taqqoslaganda bosma reklamadagi yetishmovchiliklarjoylashtiriladigan joyni tanlashga alohida e'tibor jalb qilinadibrend bilan aloqani ta'minlash har doim ham oson emasbosma mahsulotning mustahkam emasligi |

Bosma reklama xarajatlariga quydagilar ham kiradi:

Dizaynni ishslash, reklama slaydini tayyorlash, chop etish.

Gazeta reklamalari-bosma reklamalarning asosiy turlaridan biri bo'lib, uning roli hozirgi paytda oshib bormoqda va keng tarmoq otib rivojlanmoqda. *Gazeta reklamalari*, e'lonlar, maqolalar, reklama sur'atlari va turli xildagi intervylardan iborat bo'ladi. Respublikamizda hozirgi paytda chop etilayotgan "Коммерческий Вестник", "Savdogar", "Биржевой Вестник Востока" (БВВ), "Ташкентская неделя" va qator gazetalar orqali aholiga turli xildagi e'lonlar yetkazilib turiladi. Ushbu gazetalar oblast, tuman bo'limlari orqali keng ommaga tarqatilib kerakli ma'lumollar ularga yetkaziladi.²⁵

Hisob-kitoblarga ko'ra, xorijiy reklama mutaxassislarining kuzatishlariga ko'ra, gazeta reklamalariga saflanayotgan harajatlar jami reklama harajatlarining eng yuqori qismini 28,5 %ini tashkil etar ekan. Bundan ko'rindaniki, ushbu reklama vositasining mavqeい kundan-kunga oshib bormoqda. *Gazeta reklamalarining afzalligi*-qisqa muddatiligi;

²⁵ Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности Учеб. Пособие для вузов. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

- tayinliligi;
- mahalliy bozorlarni keng qamrab olishliligi;
- o'quvchilar tomonidan tan olishligi va qabul qilishligi;
- yuqori darajada haqiqiyligi, to'g'riliqi kabilardan iborat.

Kamchilik va nuqsonlari esa:

- qisqa vaqtarda, muddatlarda mavjudligi;
- tayyorlanayotgan e'lolnarning sifati pastligi;
- "ikkinchı marotaba" o'qiydigan o'quvchilar auditoriyasining kamayishi va boshqalardan iborat.

Gazeta reklamalarining yana boshqa afzalligi shundan iboratki, reklama qilinayotgan obyektlar yoki predmetlarning aniq bir adresatlarga yo'naltirilganligidir.

Bosma reklamalarning asosiy elementi, *reklama matnlari* bo'lib, u aniq, ravon, tushunarli va ishonchli qilib tuzilishiga uzviy bog'liq. Reklama teksti, reklama qilinayotgan tovarni yoki savdo tarmoqlarining ma'lum maqsadini ifodalagan xolda targib qilinadi. U asosan, ushbu tovarlarni, mavjud, haqqoniy ma'lumotlariga asoslanib, uning xususiyatlarini, afzalliklarini, tovarni ishlatalish qonun-qoidalarini, iste'molchilar e'tiborini tortadigan, ular uchun asosiy hisoblanadigan qismiga qaratilgan holda tuziladi.

Masalan, reklama qilinayotgan motosiklni matnida, mototsikl dvigatelining quvvati to'g'risidagi ma'lumotni alohida ta'kidlash; kir yuvish mashinasini ishlatalishga qulayligi va mustahkamligi bo'yicha afzalliklari; Yangi kiyim-kechaklar namunalarini-hozirgi zamon modasiga mosligi va boshqa ma'lumotlar asosan yoritilib beriladi.

Reklama mavzularining ta'sir qilish darajasi, e'lolnarning bosh jumlasiga yoki iste'molchilarga qilinaeggan murajaatnomalarining qay darajada tuzilganligiga uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Iste'molchilar e'tiborini reklama tekstiga jalb qilish uchun bosh jumla qisqa, uchta yoki yetti ta so'zdan iborat, uziga munosib tabiiy bo'lishligini taqozo etadi. Reklama e'lolnarning teksti

aniq va oddiy shriftda bosma shaklda yozilgan bo'ladi. Dekorativ shriftda yoki qo'l yozuvini qo'llanilishi reklamaning ta'sirchanlik darjasini pasaytiradi, hamda o'qish holatini qiyinlashtiradi.

Reklamalarning ta'sirchanlik darajasini oshirishning, iste'molchilarni eslab qolish qobiliyatini kuchaytirishning asosiy usullaridan biri, uni ketma-ket, bir necha marotaba takrorlash va eslatib turishdan iboratdir. Vaholanki, reklama g'oyalarining takrorlanib turishi turli xil variantlarda bajarilishi mumkin.

Qisqacha xulosalar

Bosma reklama turlari-tovarlarni reklama qilishda, reklama turlari ichida eng asosiy o'rinni tutadi. Bosma reklamalar orqali barcha aholiga ularni qiziqtiradigan turli xildagi masalalar, muammollar va boshqa kerakli ma'lumotlar har kuni yetkazib turiladi.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamalar va ularning ahamiyati.
2. Bosma reklamalarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Savdo va ishlab chiqarishda bosma reklamalarining ahamiyati.
4. Bosma reklama faoliyatining elementlari.
5. Bosma reklama vositalari.
6. Bosma reklama klassifikatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Bosma reklama vositalari va ularni ahamiyati.
8. Hozirgi sharoitda bosma reklama o'qitishning nazariy asoslari.
9. Bosma reklama imidji.
10. Tijorat tovarlarini bosma reklama qilish tartibi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Забин Д., Бребах Г. Прицельный маркетинг. Новые правила привлечения и удержания клиентов/ пер. с англ. Прал. Тит. Англ.-М.:Изд. Эксмо, 2006.-

304с

2. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.
3. Мудров А.Н. Основы рекламы: учебник / А.Н. Мудров. – М.: Экономист, 2005. – 319 с.
4. Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.-414 с.

www.dis.ru

www.bci-marketing.aha.ru

www.marketing.spb.ru

www.marketing.uef.ru/students-news.php

7 - bob. PLAKAT-GRAFIKA REKLAMALARI

7.1. Plakat-grafika reklamasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Plakat-grafika reklama vositalari-bir yoki bir nechta tovar guruhlarini, faoliyat ko'rsatayotgan yoki yangi ochilgan savdo korxonalarini, shoxobchalarini reklama qilishga mo'ljallangan. Plakat-grafika reklama vositalariga :

- plakatlar;
- maxsus tayyorlangan shitlar;
- afishalar kiradi.

Ushbu reklama vositalari-reklama qilinayotgan obyektlarning rasm-tasvirlari bilan reklama matnlarining o'zaro bir-biriga mos kelish xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Plakat-grafika reklama vositalarining asosiy turlaridan biri bo'lib *plakat* vositasi hisoblanadi. Plakatlar asosan reklama qilinayotgan obyektning yoki predmetlarning ahamiyatiga, mohiyatiga va qo'llanilish xususiyatiga ko'ra ko'chalar yuzida, umumiy dam olish joylarida, shahar transport vositalarida va shunga o'xshash joylarda o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Plakatlar o'zining tasviriyo jozibador bezak berilishi bilan, reklama qilinayotgan tovarlarni yoki obyektlarning mohiyatini qisqa, aniq tasvirlar ravishda ko'rsatilishi bilan, matnlarni ta'sirli va haimmabop tushunarli qilib ifodalanishi bilan boshqa reklama turlaridan ajralib turadi.

Reklama faoliyatini tashkil etishda iste'mol bozori va texnik-ishlab chikarish maqsadidagi mahsulot bozorlarini segmentlash, haridorming sifat marka, narx, reklama, tovar harakati shartlari saqlash haqidagi fikrlari asosida amalga oshirilishi mumkin. Bozoring tovar bo'yicha segmentlanishi raqobashilar uchun sirli bo'lgan tovar o'lchamlarini, bu sohadagi raqobashilar faoliyati va zafarlarini sonini aniqlash imkoniyatini kompaniya va firmalarga

beradi. Bozor tovarlar bo'yicha segmentlanganda, shu tovar foydalanuvchilarning guruxi, ularning yo'nalishlari, foydalanish maqsadlari, nisbatan ahamiyatli parametrlarini aniqlash imkonini beradi.

Bozorda reklamadan keyin iste'molchi o'zini qanday tutishi, avvalo, uning tovar, narx haqidagi tasavvuri, moliyaviy imkoniyatlari, didi, bilim darajasiga bog'liq bo'ladi. Narx to'g'risidagi qaror qabul qilishda sotuvchining xulq-atvori o'z faoliyatidan kutiladigan samara; vositalar oboroti, foydali savdo chegirishlari va assortment samarasiga boglik buladi. Raqobashilar xulk-atvori ishlab chikarilayotgan tovarlarga narxlarda, yangi tovarlar chikarish va ularni sifatini yaxshilashda ifodalanadi. Marketingda haridorlarni segmentasiyasida ishlab chikarish vositalari va iste'mol bozorida ikki xil yondashuv bor. Chki bu ikki xil bozordagi haridarlorning xulk-atvorlari ham xildir.

Reklama ishlab chikarish vositalari haridorlar ma'lum bir tovarni korxona faoliyatini va bozorni chukur taxlil kilib, savdodan keladigan nafni aniq bilganlardan keyingina sotib oladilar. Iste'mol buyumlari haridorlari segmentasiya belgilari juda xilma-xildir, bu belgilarni tanlash jarayoni juda murakkab²⁶

7.2. Plakat-grafika reklamasini o'tkazish tartibi

Reklama shitlari-shahar, tuman maydonlarida, shahar kuchalarining umumiyligi kesishish joylarida, ko'p qavatli turar-joy binolarining devorlarida, avtomobil yo'l trassalarining buylarida kuzga tashlanadigan joylarda urmatilgan bo'ladi. Shtlarda reklama matnlari bilan birga turli janrlarda tasvirlangan rasmlar, sxemalar yoki chizmalar bo'lishi mumkin. Reklama hitlarini tayyorlanishga, bezatilishiga qo'yilayotgan talablar, asosan, reklama qilinayotgan tovarlarning yoki savdo korxonalari, shoxobchalarining umumiyligi, harakteri, xususiyatlari, mohiyati va mazmunini tezda kuzga tashlanadigan, qisqa va aniq tekstlar yordamida ifodalangan bo'lishligini taqozo etadi.

26 Васильев Г.А., Попков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

Afishalar-o'zining tuzilishi mohiyatiga ko'ra faqat reklama matnlaridan iborat bo'ladi. Reklama afishalarinig o'chami chegaralanmagan bo'lib, reklama qilinayotgan obyektning yoki predmetning asosiy mohiyatini olib berishga mo'ljallangan matn xajmiga bog'liq bo'ladi.

Plakat-grafika reklama vositlari umuman, yuqorida ta'kidlangandek, savdo shoxobchalarining savdo zallarida ham o'matilishi mumkin va u tovarlarni joylashish holatini ifodalab, do'kon vitrina interyerlarini bezatilishining asosiy elementi bo'lib ham hisoblanadi.

Plakat-grafika reklama vositalariga qo'shimcha ravishda, shuni ta'kidlash kerakki, reklama amaliyotida xozirgi davrda eng ko'p qo'llanilayotgan reklama turlaridan biri-suratlardir.

Sur'atlar xujjalri ravishda tasdiqlovchiligi, reklama qilinayotgan tovarlarni materiallarmi, yuveler mahsulotlarni, parfyumeriya-kosmetika mollari va boshqalarni rangli tasvirda keng tayyolanish imkoniyatlari, iste'molchilarining e'tiborini o'ziga tez jalb qilishi va ularning qiziqishini orttirishi bilan ajralib turadi, bu esa, reklama vositalarining samaradorligini oshirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

7.3. Plakat-grafika reklamasining afzalliklari

Tashqi reklama vositalarining tutgan o'urni, boshqa reklama vositalariga nisbatan ancha past darajada bo'lib, uning barcha reklama harajatlariga nisbatan tutgan xissasi, atiga 1,1-1,3 %ni tashkil etadi xolos.

Ushbu reklama vositalarining *afzalliklari* quyidagilardan iborat:

- ixchamliligi;
- arzonliligi;
- takroriy kontaktlarni yuqori chastotaligi;
- raqobat darajasini kuchsizligi va boshqalar.

O'z navbatida, ushbu reklama vositalarining *kamchiligi va nuqsonlari*

- tayinli, saralangan iste'molchilarни mustasnoligi;

ijodiy haraktyerdagi faoliyat darajasini chegaralanganligi kabilardan iboratdir.

Reklama faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishda alohida etibor berilayotgan segmentatsiya belgisi - bu haridorni sotib olishdagi xulq-atvoridagi belgilari hisoblanadi. Philipp Kotler o'zining kitobida bir necha belgilarni ko'rsatib o'tadi. Ular quyidagilar:

1. Tovarni sotib olish sababiga ko'ra doimiy, alohida sabablarga ko'ra.
2. Sotib olishdan manfaatiga kura.
3. Sifati, xizmat ko'rsatish turlari.
4. Iqtisod qilish uchun.
5. Foydalanuvchi sifatidagi o'rniqa qarab:
 - foydalanmaydigan;
 - oldin foydalangan;
 - doimiy foydalanuvchi;
 - yangi foydalanuvchi;
 - endi foydalanmoqchi bo'lgan;
 - tovarlarga bo'lgan munosabatga qarab turlarga bo'linadi.

Reklama faoliyatida ranglar va ularning ahamiyati

Mutaxassislarining fikr-mulohazalariga ko'ra ranglar tur millatdagি odamlarga turlicha ta'sir ko'rsatar ekan, misol uchun:

| No | Ranglar | Davlatlar aholisiga ta'siri |
|----|--------------|--|
| 1. | Qizil | <i>Amerikada</i> -sevgi., <i>Xitoyda</i> -bayram, xushvaqt va omad., <i>Rossiyada</i> – yuqori darajada aktiv, aggressiya va urush., <i>Hindistonda</i> - hayot |
| 2. | Sariq | <i>Amerikada</i> - uyg'onish., <i>Rossiyada</i> – yorug'lik va ajralish., <i>Suriyada</i> – inotam, o'lim., <i>Hindistonda</i> – omad., <i>Braziliyada</i> - xasagarchilik |
| 3. | Yashil | <i>Amerikada</i> -umidvorlik., <i>Xitoyda</i> - shoxona hayot., <i>Hindistonda</i> – tinchlik va umidvorlik |
| 4. | Havo-rang | <i>Amerikada</i> -ishonlilik., <i>Xitoyda</i> - motamni bildiruvchi ranglardan biri., <i>Hindistonda</i> - haqguylig |
| 5. | Binalsharang | <i>Hindistonda</i> - g'am-anduh., <i>Braziliyada</i> - g'am-anduh., |
| 6. | Oq | <i>Amerikada</i> -ozodalik va tinchlik., <i>Xitoyda</i> – xavf-xatar, xiyonat va motam., Evropada - yoshlik |
| 7. | Qora | <i>Amerikada</i> -savqulotda holatlar va qiyinchilik., <i>Xitoyda</i> – haqgo'ylik, haqiqat |

Afishalar-o'zining tuzilishi mohiyatiga ko'ra faqat reklama matnlaridan iborat bo'ladi. Reklama afishalarinig o'chami chegaralanmagan bo'lib, reklama qilinayotgan obyektning yoki predmetning asosiy mohiyatini ohib berishga mo'ljallangan matn xajmiga bog'liq bo'ladi.

Plakat-grafika reklama vositlari umuman, yuqorida ta'kidlangandek, savdo shoxobchalarining savdo zallarida ham o'matilishi mumkin va u tovarlarni joylashish holatini ifodalab, do'kon vitrina interyerlarini bezatilishining asosiy elementi bo'lib ham hisoblanadi.

Plakat-grafika reklama vositalariga qo'shimcha ravishda, shuni ta'kidlash kerakki, reklama amaliyotida xozirgi davrda eng ko'p qo'llanilayotgan reklama turlaridan biri-suratlardir.

Sur'attar xujjalri ravishda tasdiqlovchiligi, reklama qilinayotgan tovarlarni materiallarmi, yuviler mahsulotlarni, parfyumeriya-kosmetika mollari va boshqalarni rangli tasvirda keng tayyolanish imkoniyatlari, iste'molchilarining e'tiborini o'ziga tez jalb qilishi va ularning qiziqishini orttirishi bilan ajralib turadi, bu esa, reklama vositalarining samaradorligini oshirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

7.3. Plakat-grafika reklamasining afzalliklari

Tashqi reklama vositalarining tutgan o'urni, boshqa reklama vositalariga nisbatan ancha past darajada bo'lib, uning barcha reklama harajatlariga nisbatan tutgan xissasi, atiga 1,1-1,3 %ni tashkil etadi xolos.

Ushbu reklama vositalarining *afzalliklari* quyidagilardan iborat:

- ixchamliligi;
- arzonliligi;
- takroriy kontaktlarni yuqori chastotaligi;
- raqobat darajasini kuchsizligi va boshqalar.

O'z navbatida, ushbu reklama vositalarining *kamchiligi va nuqsonlari*

- tayinli, saralangan iste'molchilarни mustasnoligi;

- ijodiy haraktyerdagi faoliyat darajasini chegaralanganligi kabilardan iboratdir.

Reklama faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishda alohida etibor berilayotgan segmentatsiya belgisi - bu haridorni sotib olishdagi xulq-atvoridagi belgilari hisoblanadi. Philipp Kotler o'zining kitobida bir necha belgilarni ko'rsatib o'tadi. Ular quyidagilar:

1. Tovarni sotib olish sababiga ko'ra doimiy, alohida sabablarga ko'ra.

2. Sotib olishdan manfaatiga kura.

3. Sifati, xizmat ko'rsatish turlari.

4. Iqtisod qilish uchun.

5. Foydalanuvchi sifatidagi o'miga qarab:

- foydalanmaydigan;

- oldin foydalangan;

- doimiy foydalanuvchi;

- yangi foydalanuvchi;

- endi foydalanmoqchi bo'lgan;

- tovarlarga bo'lgan munosabatga qarab turlarga bo'linadi.

Reklama faoliyatida ranglar va ularning ahamiyati

Mutaxassislarining fikr-mulohazalariga ko'ra ranglar tur millatdagi odamlarga turlicha ta'sir ko'rsatar ekan, misol uchun:

| No | Ranglar | Davlatlar aholisiga ta'siri |
|----|--------------|---|
| 1. | Qizil | <i>Amerikada</i> -sevgi., <i>Xitoyda</i> -bayram, xushvaqt va omad., <i>Rossiyada</i> – yuqori darajada aktiv, aggressiya va urush., <i>Hindistonda</i> - hayot |
| 2. | Sariq | <i>Amerikada</i> - uyg'onish., <i>Rossiyada</i> – yorug'lik va ajralish., <i>Suriyada</i> – motam, o'lim., <i>Hindistonda</i> – omad., <i>Braziliyada</i> - xafagarchilik |
| 3. | Yashil | <i>Amerikada</i> -umidvorlik., <i>Xitoyda</i> - shoxona hayot., <i>Hindistonda</i> – tinchlik va umidvorlik |
| 4. | Havo-rang | <i>Amerikada</i> -ishonlilik., <i>Xitoyda</i> - motamni bildiruvchi ranglardan biri., <i>Hindistonda</i> - haqquylik |
| 5. | Binalsharang | <i>Hindistonda</i> - g'am-anduh., <i>Braziliyada</i> - g'ani-anduh., |
| 6. | Oq | <i>Amerikada</i> -ozodalik va tinchlik., <i>Xitoyda</i> – xavf-xatar, xiyonat va motam., Evropada - yoshlik |
| 7. | Qora | <i>Amerikada</i> -savqulotda holatlar va qiyinchilik., <i>Xitoyda</i> –haqgo'ylik, haqiqat |

Boshqa ranglarga nisbatan mashhur ranglar

| Nº | Ranglar | Davlatlar aholisiga ta'siri |
|----|-----------------|---|
| 1. | Qizil | Rossiyada, Irogda, Meksikada va Norvegiyada |
| 2. | Orangi(apelsin) | Gollandiyada va Ukrainiyada |
| 3. | Sariq | Xitoyda |
| 4. | Yashil | Avstriyada, Bolgariyada, Avstraliyada, Irlандиада va Misrda |
| 5. | Havo-rang | Hindistonda |
| 6. | Oq | Meksikada |
| 7. | Korichnevye | Bolgariyada |
| 8. | | |

Qisqacha xulosalar

Plakat-grafika reklama vositalari-bir yoki bir nechta tovar guruhlarini, faoliyat ko'rsatayotgan yoki yangi ochilgan savdo korxonalarini, shoxobchalarini reklama qilishga mo'ljallangandir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida plakat-grafika reklama faoliyatini tashkil etish, plakat-grafika reklama faoliyatini tashkil etish usullari, plakat-grafika reklama faoliyatini tashkil etish iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, plakat-grafika reklama vositalari, plakat-grafika reklama e'lonlari, tadbirkorlik faoliyatini olib borishda plakat-grafika reklama faoliyatining o'rni va ahamiyati, plakat-grafika reklama faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berishga harakat qilinadi.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Plakat-grafika reklamasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni.
2. Plakat-grafika reklamasini o'tkazish tartibi.
3. Plakat-grafika reklamasining boshqa reklamalardan afzalliklari.
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamalar va ularning ahamiyati.
5. Reklamalarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Savdo va ishlab chiqarish reklamalari.
7. Reklama faoliyatining elementlari.
8. Reklama vositalari.
9. Reklama klassifikasiyalarining o'ziga xos xususiyatlari.
10. Reklama vositalari va ularni ahamiyati.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Забин Д., Бребах Г. Прицельный маркетинг. Новые правила привлечения и удержания клиентов/ пер. с англ. Прал. Тит. Англ.-М.:Изд. Эксмо, 2006.-304с
2. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.
3. Мудров А.Н. Основы рекламы: учебник / А.Н. Мудров. – М.: Экономист, 2005. – 319 с.

www.dis.ru.

www.bci-marketing.aha.ru

www.gov.uz.

8-bob. KINO REKLAMA VOSITALARI

8.1. Kino reklamasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Kino reklama vositalari reklama vositalari ichida eng samarali vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. U keng potensial iste'molchilar auditoriyasiga mo'ljallangan bo'lib, psixologik ravishda kuchli ta'sir etuvchi imkoniyatiga ega. Ushbu reklama vositalari reklama qilinayotgan tovarlarni yoki obyektlarni barcha harakteristikasini keng yoritib berishga, alohida, ayrim asosiy xususiyatlarini to'liq, aniq qilib namoyish qilishga, ifodalii ravishda ko'rsatib berish kabi chegaralanmagan imkoniyatlarga egadir. Reklama qilinayoggan tovarlarning, reklama filmlarini tayyorlash vaqtida, avvalam-bor, iste'molchilarni talabini va ularning to'lov qobiliyatini zimdan inobatga olib, ushbu tovari xususiyatlarini, ahamiyatini va boshqa muhim tomonlarini e'tiborga olgan xolda tayyorlanadi.

Bulardan tashqari, kino reklamalarning obyekti bo'lib, yangi tuzilayotgan yoki tashkil etilayotgan savdo korxonalari, shoxobchalari, ularda haridorlarga xizmat ko'rsatish usullari, shuningdek, qo'shimcha ravishda xizmat ko'rsatish sohalari va boshqalar hisoblanadi. Kino reklamalar harakteriga va qo'llanilish mohiyatiga ko'ra:

- qisqa metrajli
- diapozitiv filmlardan iborat bo'ladi.

Qisqa metrajli filmlar-qisqa muddatli 5 daqiqadan oshmagan, qiziqarli, ifodalii va hammabop tushunarli ravishda tayyorlangan bo'ladi. Odatda, ushbu reklama turlarini tayyorlash davomida, tomoshabinlar e'tiborini yanada ko'proq jalb qilish maqsadida, ko'pincha kulgili syujetli komediylar, kombinatsiyalshtirilgan syomkalar, multiplikasiyalardan foydalaniladi. Shuningdek, reklama filmlariga mashxur, maxoratli kinoaktyorlar, malakali,

ixtisosli savdo xodimlari va tajribali operatorlar taklif etilib, ular ishtirokida
seminarli, maqsadga muvofiq reklamalar tayorlanadi.

*Diapositiv filmlar-o'zining turli-tumanligi bilan boshqa kino reklama
vositalaridan ajralib turadi. Diafilmlar asosan, tovarlarni, mahsulotlarni sotish-
bungazmalarida, madaniyat uylarida, shuningdek, aholiga ko'rsatilayotgan savdo
xizmatini yaxshilash va uning darajasini yanada kutarish maqsadida maxsus
uyushtirilgan seminarlarda va iste'molchilar konferensiyalarda mavzuga mos
keladigan reklamalarni namoyish qilishga mo'ljallangandir. Kino reklamalar
tayyorlanishi va namoyish etilishiga ko'ra-reklama roliklariga, texnik
reklamalarga, umumiy qulaylikka ega bo'lgan reklama turlariga bo'linishi
mumkin.*

*Reklama roliklari-keng ommaga mo'ljallangan bo'lib, asosan xalq iste'mol
mollarini targ'ib qilishga qaratilgandir. Ushbu reklama roliklari 15 soniyadan 3
daqiqagacha davom etadigan qilib tayyorlanadi.*

*Texnik reklamalar-asosan sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan
texnikaviy mollarni va xalq iste'moli mahsulotlarni keng targ'ib qilishga
qaratilgan. Ushbu reklama vositasi mahsulotlarni harakteri va xususiyatiga ko'ra
3 daqiqadan 20 daqiqaga mo'ljallab tayyorlangan bo'ladi.*

Umumiy qo'laylikka ega bo'lgan reklamalar-barcha turdag'i, ya'ni ishlab
chiqarish sohalari va noishlab chiqarish sohalari tarmoqlari eksport mollarini,
keng aholi o'rtaida targ'ib qilishga mo'ljallangandir. Mazkur reklama turi 5
daqiqadan 30 daqiqaga davom etadigan qilib tayyorlanadi.

8.2. Kino reklamasini o'tkazish tartibi

*Televizion reklamalari-boshqa reklama vositalari ichida farqli ularoq,
muhim ahamiyatga ega va asosiy o'rin tutadi. Ularning farqli tomonlari-aholi
yoppasiga qamrab olishligi, tomoshabinlarga turli xildagi vositalar asosida,
rang-harang tasvirlar-so'zlar orqali, musiqalar ta'siri ostida, operativ ravishda*

sanoat, ishlab chiqarish korxonalaridan va savdo zallaridan to'g'ridan-to'g' ri televizion reportajlarini olib berilishi orqali ta'sir qilishligidan iborat.

Televizion reklamalari turli xildagi janrlar orqali, reklama qilinayotgan obyektlarni yoki predmetlarni namoyish qiladi. Reklama janrlari quyidagi shakllarda, ya'nisi filmlar ko'rinishida, suxbatlar tarzida, ayrim tovar turlarning xususiyatlari va tarkibi to'g'risidagi eshittirishlar tarzida, turli xildagi savdo shoxobchalari to'g'risida, xizmat ko'rsatish shakllari, kiyim-kechak, poyasjal, bosh kiyimlar va boshqa tovarlar modalari ko'rigini namoyish qilish tarzida bo'lishi mumkin.

Televizion reklamalari, turli reklama vositalarining, masalan, tasviriy, ovoz, bosma va boshqalarning eng muhim, ajralib turadigan tomonlarini qo'shib, moslashtirgan xolda, turli xildagi film janrlari yoki eshittirishlari orqali keng namoyish qilish imkoniyatlari ega. Televizion reklama filmlarining, eshittirishlarning va reportajlarning namoyish qilish muddati qisqaligi tufayli, reklama e'lonlarini ma'nodor, tushunarli va ixcham bo'lishligiga alohida e'tiborni qaratishni talab qiladi.

Televizion reklama vositalari respublika Markaziy televizion studiyasining, mavjud turli xildagi programmalari orqali, shuningdek, viloyat va maxalliy studiya eshitgirishlari orqali keng aholi o'rtasida namoyish qilinadi.

Televediniye va radio kompaniyalari uchun reklamaga ajratilgan ko'rsatuvalar va eshittirishlarning o'rnatilgan tartibdagi vaqtłari ko'rsatuvlarning hamda eshittirishlarning har bir soatiga 10 %dan ortib ketmasligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu talab ko'rsatuvlarning hamda eshittirishlarning ayrim turdag'i ixtisoslashtirilgan reklamaviy kanallariga tatbiq etilmasligi ham mumkin.

Televediniyada ko'rsatilayotgan yoki radioda eshittirilayotgan biror bir dastuming 45 daqiqa dan ortiq davom etadigan konsert-tomosha va sport dasturlari, kino va telefilmlar reklama uchun to'liq 45 daqiqlik vaqt ni 10 foizidan oshmasligi kerak. Reklama ko'rsatuvlarning boshlanishi bilan yoki ular

tugaganidan so'ng joylashtirilishi ham mumkin. 10 daqiqadan kam davom etadigan teleko'rsatuvlarga (radioeshittirishlarga) umuman, 10 daqiqadan ortiq davom etadigan teleko'rsatuvlarga (radioeshittirishlarga) esa bu teleko'rsatuvlarning (radioeshittirishlarning) mualliflik huquqi egasi bilan kelishmasdan turib reklama joylashtirilishi mumkin emas.

Davlat anjumanlari va marosimlari olib ko'rsatilayotgan (eshittirilayotgan) paytda uni uzib reklamani ko'rsatib (eshittirib) olish taqiqlanadi. Teleko'rsatuvlarning boshlovchilari, diktordagi va boshqa qatnashchilari reklama uchun ajratilgan vaqtdan tashqari paytda mahsulotni atayin namoyish qilish yoki uning iste'mol xususiyatlarini bevosita yoki bilvosita tavsiflash huquqiga ega emas.

Televideniye va radio xodimlariga axborot niqobi ostida reklama bilan shug'ullanish, ya'ni mahsulot ishlab chiqaruvchining rekvizitlarini, joylashgan manzilini, telefon paqamini, mahsulotning tijorat belgilarini ko'rsatish taqiqlanadi.

8.3. Kino reklamasining afzalliklari

Televizion reklamalar, ommaviyligi, keng iste'molchilar auditoriyasiga qaratilganligi bilan, barcha reklama vositalar hajmining 20,7 foyizini tashkil etadi. Televizion reklamalarining afzalliklari quyidagilardan iboratdir:

- harakatlar va ovozlarning, hamda tasvirlarni bir-biriga o'zaro mos kelishligi;
- seziladigan darajada ta'sirchanligi;
- yuqori darajada e'tiborni jalb qilishliligi;
- qamrab olish darajasini kengligidan iboratdir.

1992-yildan boshlab respublikamizda televizion filmlarini va radio programmalarini tayyorlash, reklama roliklarini ishlab chiqarish va tayyorlash bo'yicha, hamda ularni prokatga berish bo'yicha maxsus tuzilgan "O'zreklamfilm" ijodiy birlashmasi hamda savdo reklamalari bo'yicha hozirgi kunda keng tarmoq otib, takomillashib faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Kundalik talab tovarlariga kundalik turmush uchun zaruriy oziq-ovqatlari kir yuvish, tozalash vositalari, uy xo'jaligi uchun zaruriy mayda tovarlarni kiritish mumkin. Kundalik iste'mol tovarlarini iste'mol qilish intensivligiga ko'ra ularni o'z navbatida 3 ta quyi guruhga ajratish mumkin:²⁷

1. Doimiy ehtiyojdagi asosiy tovarlar (non, xo'jalik sovuni)
2. Impulsiv tarzda sotib olinadigan tovarlar (saqich, gazeta)
3. Favqulodda holatlar uchun harid qilinadigan tovarlar (zont).

Dastlabki tanlov asosidagi tovarlar safiga: mebel, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or uchun elektr jihozlari kiradi va u haridorlarni qiyoslashni, narx, moda, dizayn jihatidan tanlovda bir muncha mulohaza yuritishni talab qiladi. Ushbu tovarlar:

- o'xhash tovarlar (sifat jihatdan bir-biriga yaqin, lekin dizayn, narxi bo'yicha farqlanadi);
- alohida ko'rinishdagi tovarlar (rangi, fasoni, navi jihatidan farqlanadi).

Qisqacha xulosalar

Kino reklama vositalari keng potensial iste'molchilar auditoriyasiga mo'ljallangan bo'lib, psixologik ravishda kuchli ta'sir etuvchi imkoniyatiga ega. Ushbu reklama vositalari reklama qilinayoggan tovarlarni yoki obyektlarni barcha harakteristikasini keng yoritib berishga, alohida, ayrim asosiy xususiyatlarini to'liq, aniq qilib namoyish qilishga, ifodali ravishda ko'rsatib berish kabi chegaralanmagan imkoniyatlarga egadir.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamalar va ularning ahamiyati.
2. Kino reklamasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni.
3. Kino reklamasini o'tkazish tartibi.

²⁷ Васильев Г.А., Поликов В.А. Основы рекламной деятельности Учеб. Пособие для вузов - М: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.

4. Kino reklamasining boshqa reklamalardan aszalliklari.
5. Reklama xizmatini tashkil etish.
6. Reklamalarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.
7. Savdo va ishlab chiqarish reklamalari.
8. Reklama faoliyatining elementlari
9. Reklama vositalari.
10. Reklama klassifikasiyalarining o'ziga xos xususiyatlari.
11. Reklama vositalari va ularni ahamiyati.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Забин Д., Бребах Г. Прицельный маркетинг. Новые правила привлечения и удержания клиентов/ пер. с англ. Прал. Тит. Англ.–М.:Изд. Эксмо, 2006.-304с
 2. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Шахурин В.Г. Основы рекламы: Учебник. – 8-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. – 526 с. 2 экз.
 3. Мудров А.Н. Основы рекламы: учебник / А.Н. Мудров. – М.: Экономист, 2005. – 319 с.
 4. Васильев Г.А., Поляков В.А. Основы рекламной деятельности: Учеб. Пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004.-414 с.
www.dis.ru.
- Rambler-<http://www/rambler, ru>;

9-bob. RADIO-TELEVIZION REKLAMALARI

9.1. Radio-televizion reklamaning iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Radio reklama-eshittirishlari aholi o'rtasida eng keng tarqalgan, inson psixikasiga tez, operativ yetib boradigan va ta'sir ko'rsatadigan reklama vositalaridan bo'lib hisoblanadi. Radio reklamalari, olib berilayotgan eshittirishlarning mavzuiga bog'liq holda, uning mohiyatiga ko'ra turli formalarda bo'ladi. Radio reklamalar, reklama qilinayoggan obyektning yoki predmetlarning mavzusiga ko'ra turli janrlarda ham bo'lishi mumkin. Masalan, eshittirishlar, dialog (savol va javob) tariqasida, reportajlar shaklida yoki bo'lmasa hozirgi paytda eng ko'p tarqalgan musikalari ostida beriladigan e'lonlar tariqasida bo'lishi mumkin.

Radio reklamalarining eshittirishlari tarqitilish uslubiga ko'ra, shahar va mahalliy radio tarmoqlari orqali, yirik savdo tarmoqlarida, savdo markazlarida, ixtisoslashgan savdo shoxobchalarida va universal do'konlarda mavjud bo'lgan o'z radio tarmoqlari orqali, shuningdek, yarmarkalarda va bayram munosabati bilan uyuşhtirilgan maxsus bayram bozorlarida tashkil etilgan radio uzellari orqali efirga uzatiladigan turlarga bo'linadi.

Radio reklamalari yordamida istalgan reklama turlari berilishi mumkin. Masalan, yangi tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, mavjud yoki yangi tashkil etilan savdo shoxobchalarini, ularda ko'rsatilayotgan savdo xizmatlarini, haridorlarga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish formalarini va boshqa ma'lumotlarni tulaligicha etkazib beriladi.

Mazkur reklama vositasining samaradorligini yanada oshirish uchun, eshittirishlarni berilish vaqtini maqsadta muvofiq ravishda belgilash va radio eshituvchilar massasini maksimal qamrab olishga erishishdan iborat, hamda savdo tarmog'ining faoliyat ko'rsatish sohalarini ma'lum imkoniyatlari va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda, hammaga ma'qul va mos keladigan reklama janrlarini tanlab, ularni targ'ib qilish maqsadta muvofiq bo'ladi.

Radio reklamalari, reklama qilinayoggan tovarlarni harakteriga va xususiyatiga ko'ra qisqa muddatli, aniq va tushunarli ravishda 10 soniyadan 1 daqiqa vaqt davomida berilayotgan e'lollardan oshmaydigan qilib tayyorlanadi.

Radio reklamalarining keyingi paytlarda, ahamiyatini nisbatan tushib ketishiga qaramasdan, uning hissasi barcha reklama harajatlarga nisbatan 6,7 %ni tashkil etadi.

Mazkur reklama vositalarining mohiyati va ahamiyatiga ko'ra, quyidagi afzalliklarga ega:

- ommaviy foydalanishligi;
- yuqori darajada geografik hamda demografik jihatdan tayinliligi;
- nisbatan qiymatini pastligi, arzonliligi. SHu bilan birga, uning kanchiligi va augsonlari :

- eshittirishlarning faqat ovoz vositalari orqali uzatilishligi;
- televide niyega nisbatan e'tiborni ja'lb qilish darajasini nisbatan pastligi;
- standart tarif tuzilmalarini bo'lmasligi;
- reklama kontaktlarini bir lahzaligi kabilardan iboratdir.

9.2. Radio–televizion reklamani o'tkazish tartibi

Haridorlarni reklama vositalari bilan qamrab olishga radio va telereklama eng ommaviy hisoblanadi. O'zining nisbatan yosh bo'lishiga qaramasdan, ular reklamaning boshqa vositalari bilan raqobatlashadi, doimo rivojlanib, takomillashib boradi.

Radio e'lollar, radio roliklar, turli radio jurnallar va reklama radio reportajlari radio orqali reklamaning eng keng tarqalgan turlaridir.

Radio e'lol-bu diktofon orqali o'qiladigan axborotdir.

Radio rolik- alovida tayyorlangan postanovkali (o'yinli) radio sujet bo'lib.

Original yo'sinda (ko'pincha hazil yoki intrigalovchi dialog ko'rinishida) va undan musiqa hamkorligida taklif etilayotgan mahsulot, tovar yoki xizmatlar

haqida axborot beradi. Ba'zan reklama radio roligi uncha katta bo'lmagan reklama shlyager qo'shiqchisi shaklida bo'lishi mumkin.

Radiojurnal-axborot reklama harakteridagi tematik radio eshittirish bo'lib, uning alohida elementlari qisqa konferans orqali birlashadi.

Qandaydir yarmarka, ko'rgazna-sotuvlar yoki boshqa vokcalar haqidagi radioreportajlar ham to'g'ri, ham ma'joziy reklamani o'z ichiga olishi mumkin (harid qilingan mahsulot to'g'risida haridorming fikri, yangi mahsulotlar haqida ma'lumotlar, h.k.).

Televizion reklamaning eng keng tarqalgan turlari ichida-televizion reklama roliklarini televizion reklama e'lonlarini, reklama telereportajlari va teleko'rsatuvlarni, ko'rsatuvlar orasidagi tanaffusdagi telezastavkalarni ajratish mumkin.

Teleroliklar-bu televidenie orqali namoish qilinadigan, bir necha sobiyadan 2-3 daqiqa gacha davom etadigan ko'pincha reklama kino yoki videoroliklaridir.

Reklama-kommunikasiya vositasi bo'lib, u fimaning bevosita muloqot o'rnatilmagan potensial haridorlariga axborot uzatishga imkon beradi. Firma reklama yordamida markaning imidjini yaratadi va sotuvchilar tomonidan hamkorlik orqali pirovard iste'molchilarda ma'lumlik sarmoyasini shakllantiradi. Reklama kommunikasion strategiyaning asosiy vositasidir.

Reklama kanallarining rolini tanlash-asosan quyidagilardan iborat:

- reklama beruvchi uchun reklamadan maqsad- axborotlarni iste'molchilarga etkazish va tovarga bo'lgan talabni kengaytirish maqsadida ularning moyilligiga erishishdir.
- reklama iste'molchining tovarning alohida xususiyatlarini aniqlashga ketadigan vaqt va mablag'larini tejaydi.

Reklama rivojlangan sari, uning xilma-xil ko'rinishlardagi shakllari ko'payib bormoqda, shu sababli reklama beruvchilar bиргина axborot kanalidan foydalansa ham, ularning ixtiyorida reklama uslublarining keng assortimentli mavjuddir.

Imidj reklamasi tovarga yo'naltirilgan bo'lib, uning maqsadi haridorning ushbu markaga bo'lган munosabatini shakllantirishdan iboratdir. Bu holda «reklama beruvchilarning ijodiy hatti-harakatlari nafaqat haridorning darhol reaksiyasiiga, balki keyinchalik haridga olib keluvchi ijobjiy munosabatni ishlab chiqishga qaratilgan bo'ladi».

Bunday reklamaning samaradorligini faqat uzoq kelajakdagina baholash mumkin. Bu yerda munosabat tushunchasi hal qiluvchi hisoblanadi, shuning uchun kommunikasiya obyekti vazifasini avvalo tovar kontseptsiyasi bajaradi.

Undovchi reklamaning asosiy vazifasi haridorning munosabatlariga emas, balki uning hatti-harakatlariga ta'sir qilishdan iboratdir. Reklama axboroti tovar yoki xizmatni harid qilishga undashi kerak, shuning uchun uning samarasini qisqa muddatli bo'ladi va savdoning borishi bilan baholanadi. Bunday reklama uslubi tajovuzkorroq bo'lsa-da, u ham aslida imidj yaratish vazifasiga o'xshab ketadi.

Interaktiv reklama muayyan bir shaxsga moslashtirilgan reklama axboroti bo'lib, uning maqsadi potensial haridor bilan uning javobini rag'batlantirish orqali muloqot o'rnatishdir. Firma haridorning javob reaksiyasi asosida tijoriy munosabatlarni yo'lga qo'yishga harakat qiladi.

Reklamaning bu turi avvalgi ikki reklama uslubining vazifalarini o'zida mujassamlashgan imidjni yaratish va ayni paytda axborotning samarasini darhol baholashga imkon beruvchi ma'lumot bir hatti-harakatlarni erishish intiladi.

Aynan mana shu uslub o'zining avvalgi boblarda tavsiflab o'tilgan interaktiv marketingga beosita bog'liqligi tufayli tez rivojlanadi.

Tashkilot reklamasi. Yuqoridagi uch xil reklama stili bir tovar yoki markaga qaratilgan edi. Firma reklamasining vazifasi-ommaning turli tabaqalari orasida firmaga nisbatan ijobjiy munosabatni shakllantirish yoki kuchaytirishdan iboratdir.

Firmanın imidjini shakllantirish uning faoliyat turlarını tavsiflash va uning afzal tomonları, ustunlikları, xislatları va imkoniyatlariga e'tiborni jalb qilish orqali firma va uning mijozları o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlik

muhitini yaratishdan iboratdir. Bunda reklama faoliyatini tashkil etishda reklamani olib borish tajribalarga boy bo'lgan, haridorlar xilma-xil tovarlarning reklamasidan charchagan muhitda alohida kommunikasiya yo'llarini topish va ushbu holatda ist'molchilarini ehtiyojlarini qondirish orqali bozorda yaxshi faoliyat olib borish maqsad qilib qo'yish muhim ahamiyat kasb etishi zarurdir.

